

**O'ZBEKISTAN RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK: 97.018.1

ROZIQOVA GULCHEHRA HAZRATQULOVNA

**TALABA-YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING
PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

5A110901 – PEDAGOGIKA MUTAXASSISLIGI

MAGISTR

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTASIYA

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga

ruxsat berildi. _____

«Pedagogika» kafedrası mudiri

dos. A.Abdumannotov _____

Ilmiy rahbar:

dos. Abdumannotov A. _____

MO'.

SAMARQAND-2014

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I. BOB. TALABA-YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	10
1.1. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash pedagogik muammo sifatida ...	10
1.2. Tarixiy va ilmiy manbalarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning yoritilishi.....	21
1.3. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning bugungi holati va imkoniyatlari	38
II. BOB. TALABA-YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI.....	52
2.1. Ta'lim jarayonida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni va mohiyati.....	52
2.2. Auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarda talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari.....	65
III BOB. TALABA-YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHGA YO'NALTIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARINING NATIJALARI VA SAMARADORLIGI.....	76
3.1. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining metodikasi	76
3.2. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari va tahlili	86
Xulosa va tavsiyalar	90
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	92
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	92

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning bevosita rahbarligida mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Mamlakatimiz yoshlarini jamiyatda munosib o'rin egallashlari uchun barcha shart-sharoitlari yaratib berilmoqda.

Respublikamizda "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi, "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi, "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqalishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi kabi qarorlarning qabul qilinishi, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan har bir yilni ma'lum bir nom bilan nomlanishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Davlat dasturlarida olg'a surilgan barkamol shaxsni shakllantirish g'oyasi bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari ona va bola salomatligini muhofaza qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligi asosida ma'naviy va barkamol avlodni voyaga yetkazish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, bolalarga ommaviy tarzda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, yetim bolalar va ota-onalar qaromog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun sharoitlar yaratish, yoshlarning sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar O'zbekistonning kelajagi hisoblangan komil insonni tarbiyalashga qaratilgandir.

O'zbekiston yoshlar mamlakati. Ma'lumotlarga ko'ra 30 yoshgacha bo'lganlar soni mamlakatimizda 18 millionga yaqinlashdi. Aniqrog'i mamlakat aholisining qariyb uchdan ikki qismini, ya'ni 64 % ni yoshlar tashkil qiladi. Respublikamizda oila o'rtacha besh kishidan iborat. Bizda jami 6 millionga yaqin oila bor. Timsoliy qilib aytganda har bir oila o'rtacha uch nafardan bolaga ega. Mamlakatimizda har yili 500-600 ming bola dunyoga keladi.

Jadidchi olimlardan biri Abdurauf Fitrat 1914-yilda yozgan "Oila" kitobida – rivojlangan G'arb davlatlari o'z millatiga mansub aholining ko'payishiga intilib yotgani, o'z taraqqiyoti taqdirini bevosita shunga bog'layotgani g'oyasi ilgari surilgan. Allomamiz o'rtaga tashlagan ikkinchi g'oya esa bola tarbiyasiga alohida e'tibor berish oila madaniyatini yuksak darajaga ko'tarish edi.

Yoshlari ko'p mamlakatga kelajagi bor mamlakat sifatida qaraladi, yoki aksincha. Sog'lom axloqli, ruhiy jihatdan yetuk, ma'naviyatli, ma'rifatli yoshlarsiz kelajagi buyuk bo'lgan davlatni barpo etib bo'lmaydi. Shu bois, hozirgi kunda jamiyatimizning asosi bo'lgan oilaga alohida e'tibor berilmoqda. Yurtboshimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek, "... bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan odamzod hamishi ezgu orzu-intilishlar bilan yashaydi."¹

Darvoqe, bugungi kunda amalga oshirilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu-saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning balki jamiyatning eng katta boyligidir. Shu jihatdan olganda yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lgan oilani mustahkamlash barchamizning insoniy burchimizga aylangan.

Bugungi kunda respublikamizda filiallari bilan qo'shib hisoblaganda jami 70 ta oliy o'quv yurti faoliyat ko'rsatmoqda. Mavjud oliy o'quv yurtlarida 274616 nafar talabalar tahsil olishmoqda. Ularga 22500 nafar professor-o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berishmoqda. Talaba-yoshlarimizni mamlakatimiz hayotidagi o'rni kattadir. Chunki, bugungi talaba ertangi mutaxassis. Kelajakda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini rivojlantirish ko'p jihatdan ana yoshlar zimmasiga tushadi. Masalaning yana bir muhim tomoni shundaki, ana shu talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi ham bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylangan.

Mustaqillik yillarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda va oilada sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni qaror toptirish yuzasidan zarur shart-sharoitlar yaratildi. Jumladan, onalik maktabi, "Tibbiy ishlar asosi", "Balog'at davri" kabi dasturlar bo'yicha olib borilayotgan ishlar e'tiborga molikdir. "Oila kodeksi"ga binoan nikoh qurishdan oldin yoshlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, yosh onalar uchun dastlabki besh yil mobaynida dispanser nazoratini tashkil etish ishlari yo'lga qo'yilgan hamda davlat tomonidan yetarli miqdorda mablag'lar ajratilgan. Har bir shahar va tuman nikohni qayd etish bo'limlari qoshida yoshlarga oila, uning muqaddasligi, farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalar to'g'risida saboq beradigan "Oila dorilfinunlari" tashkil etilgan bo'lib, ularda turmush qurayotgan yigit-qizlar

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat". 2008. 56 b.

ko'rikdan o'tkazilmoqda. Eng muhimi xalqimiz millat genofondini sog'lomlashtirish g'oyasi bilan yangi asrga kirib keldi. Shaxsning rivojlanishida oilaning roli beqiyos. Jismonan va ma'nau sog'lom farzandlar oilada tarbiyalanadi. Oilaning mustahkam va barqaror bo'lishi hayot ostonasida turgan yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashga bog'liq. Turmushda yuz beradigan quvonchlar, yutuqlar, kamchilik va nuqsonlar, ziddiyatlar oilada o'z aksini topadi. Shuning uchun oila va oilaviy tarbiya masalalari bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Tadqiqotning ishlanganlik darajasi: oila, oila tarbiyasi, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosi pedagog, psixolog, sosiolog, faylasuf va jamiyatshunos olimlar tomonidan atroflicha o'rganib kelinmoqda. Markaziy Osiyoda yashab o'tgan qomusiy olimlardan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Jaloliddin Davoniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvar bobolarimizning asarlarida ushbu masalaga alohida e'tibor berilgan. Keyingi yillarda oila, oila tarbiyasi va yoshlarni oilaga tayyorlashga bag'ishlangan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, Yu.P.Azarov, G.M.Hamidova, A.K.Atoyev, M.J.Inoyatova, O.To'rayeva, M.Ochilov, J.Yo'ldoshev, M.Quronovlarning ushbu masalaga oid yozgan darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy tavsiya, ilmiy maqola va tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Psixolog olimlardan M.Sherbayev, V.Karimova, G'.Shoumarov, E.G'oziyev, Sh.Baratovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida oila tarbiyasining psixologik tomonlari kengroq yoritilgan. Faylasuf olimlardan V.Zohidov, I.Mo'minov, J.Tulenov, Q.Xonazarov, M.Xayrullayev, S.Shermuxammedov, E.Yusupov, F.Ismoilovlarning asarlarida va ilmiy-tadqiqot ishlarida shaxsning shakllanishi, uning ma'naviy-axloqiy kamoloti masalalariga e'tibor qaratilgan. Mustaqillik yillarida oila va oilaviy tarbiya muammolari masalasida pedagog olimlardan A.Munavvarov, O.Musurmonova, M.Inomova, M.Mahmudova, A.Muxsiyevlar o'zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida ushbu masalani yoritishgan. Masalan, p.f.d. professor O.Musurmonova "Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari", p.f.d. prof. M.Inomovanning "Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari" (mustaqil hayot ostonasidagi yoshlari) mavzusidagi dissertatsiyalari shular jumlasidandir.

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosi pedagog-psixolog olimlar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan bo'lsada, ammo hayot bu jarayonni yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Shuning uchun biz tadqiqotimiz mavzusini **“Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari”** tarzida tanladik.

Tadqiqot maqsadi: talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: oliy o'quv yurtlarida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti: oliy o'quv yurtlarida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni, shakl va metodlari.

Tadqiqot vazifalari:

- talaba – yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash pedagogik muammo va ijtimoiy zarurat ekanligini aniqlash;
- tarixiy va ilmiy manbalarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning yoritilishini o'rganish;
- talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning bugungi holati va imkoniyatlarini tahlil qilish;
- ta'lim jarayonida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni va mohiyatini yoritish;
- auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish;

Tadqiqotning ilmiy farazi; agarda

- talaba – yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash pedagogik muammo va ijtimoiy zarurat ekanligini aniqlansa;
- tarixiy va ilmiy manbalarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning yoritilishini o'rganilsa;
- talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning bugungi holati va imkoniyatlarini tahlil qilinsa;
- ta'lim jarayonida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni va mohiyatini yoritilsa;
- auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab

chiqilsa talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosini muvaffaqiyatli hal qilish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot metodlari: tadqiqot ishini amalga oshirishda ushbu muammoga oid pedagogik, psixologik, falsafiy, tarixiy-etnografik va ijtimoiy asarlar, metodik adabiyotlar, rasmiy hujjatlar o'rganildi; so'rovnomalar o'tkazildi, o'quv materiallari qiyosiy tahlil qilindi; intervyu, pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi, umumlashtirildi va matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: oliy ta'lim tizimida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari yaxlit tizim tarzida asoslandi; tarixiy va ilmiy manbalarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning yoritilganligi o'rganildi; talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning bugungi holati va imkoniyatlari tahlil etildi; talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni, shakl va metodlari va ulardan samarali foydalanish yo'llari ko'rsatildi; talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning samarali shakllari, metodlari belgilanib ularning asosiy mezonlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati:

➤ talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining natijalari pedagogika fanining tarbiya nazariyasini boyitishga xizmat qiladi;

➤ nazariy yo'nalishdagi materiallar ushbu mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borayotgan tadqiqotchilar uchun ushbu muammoni chuqurroq o'rganishga imkoniyat yaratadi;

➤ tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlarida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ma'ruzalar o'qishda, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda, mavzuga oid eshittirish va ko'rsatuvlarda foydalanish mumkin;

➤ tadqiqot materiallari va xulosalariga asoslanib oila ostonasida turgan talaba-yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, iymon-e'tiqodlilik kabi sifatlarni shakllantirish hamda oilaning muqaddasligini, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini, oila sog'lom bo'lsa – jamiyat mustahkam bo'lishini, jamiyat mustahkam bo'lsa – mamlakat barqaror bo'lish tuyg'usini singdirish;

➤ tadqiqot natijalari va uslubiy tavsiyalardan ota-onalar, yosh kelin-kuyovlar, oila ostonasida turgan yoshlar, "Oila pedagogikasi"dan ma'ruza o'qiyotgan o'qituvchilar foydalanishlari mumkin;

➤ talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ta'lim jarayoni va auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning tavsiyalari ishlab chiqildi hamda amaliyotga tadbiiq etildi.

Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning oilani mustahkamlashga oid g'oyalari, ma'ruzalari, asarlari, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Markaziy Osiyo Qomusiy allomalarining komil inson tarbiyasiga oid fikrlari, barkamol inson shaxsini xislatlarini shakllantirish to'g'risidagi ta'limotlar, odob-axloq to'g'risidagi qarashlar, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni o'rganishning tarixiy, falsafiy, xalq pedagogikasi, islom ma'naviyati bilan bog'liq nazariy xulosalalari; ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish to'g'risidagi ilg'or pedagogik tajribalar va me'yoriy hujjatlar tashkil qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilish va ma'qullanganligi:

✓ tadqiqot ishi natijalari Samarqand mintaqasidagi oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari faoliyatida;

✓ Samarqand viloyati o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi o'qituvchilari faoliyatida;

✓ Pedagogika, psixologiya kafedrası o'qituvchilari faoliyatida;

✓ talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammolari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar, izlanuvchilar faoliyatida samarali qo'llanilmoqda.

Tadqiqot natijalarining ommalashganlik darajasi:

❖ tadqiqot natijalari Respublika miqyosida o'tkazilgan konferensiya materiallarida o'z aksini topgan;

❖ Alisher Navoiy nomidagi SamDU talabalari va magistrklarining an'anaviy, ilmiy-amaliy konferensiyalarida o'qilgan ma'ruzalari (2012-2014 yy.);

❖ ilmiy to'plamlarda chop etilgan maqolalar talaba-yoshlar bilan o'tkazilgan uchrashuvlar tarzida amalga oshirildi.

Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari: tadqiqot ishlari to'rtta bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Tashxis va bashorat qilish bosqichi (2012 sentyabr - dekabr). Ushbu bosqichda tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, predmeti, obykti aniqlandi, tadqiqot rejasi tuzildi, tajriba-sinov maydonlari aniqlab olindi;

2-bosqich. Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (2013 yanvar-may). Tadqiqot muammosining ilmiy-nazariy, ilmiy-uslbiy asoslari o'rganildi, oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash yuzasidan olib borilgan tajribalar tahlil qilindi. Tadqiqot yuzasidan olib borilgan adabiyotlar tahlili bo'yicha kuzatishlar va suhbatlar natijalari asosida tadqiqot muammosining ilmiy farazi, metodologiyasi aniqlab olindi. Tajriba-sinov ishlari bilan bog'liq bo'lgan holatlar o'rganildi va uni o'tkazish metodlari ishlab chiqildi;

3-bosqich. Ta'limiy shakllantiruvchi bosqich (2013 iyun-dekabr). Tadqiqot maqsadi va vazifalariga oid muammolar bo'yicha SamDU pedagogika fakulteti talabalari bilan test, anketa so'rovlari, suhbatlar, kuzatishlar o'tkazildi.

4-bosqich. Umumlashtiruvchi yakuniy bosqich (2014 yil yanvar-iyun). Bunda talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning nazariy, pedagogik, ilmiy-uslubiy sharoitlari ishlab chiqildi va asoslandi. Tadqiqot natijalari amaliyotda sinab ko'rilishi natijasida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

- talaba – yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash pedagogik muammo va ijtimoiy zarurat ekanligini;
- tarixiy va ilmiy manbalarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning yoritiligi;
- talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning bugungi holati va imkoniyatlari;
- ta'lim jarayonida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni va mohiyati;
- auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari.

Magistrlik dissertasiyasining tuzilishi va hajmi: dissertasiya kirish, uch bob, 7 fasl, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. TALABA – YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1 Talaba – yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash pedagogik muammo sifatida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “Ertangi kunimiz – hatimizning farovonligi, zamondan orqada qolmaslik, taraqqiy topgan davlatlardan va xalqlardan kam bo'lmaslik, bir so'z bilan aytganda, ertangi istiqbolimiz, barcha ezgu niyatlarimizning amalga oshirilishi, birinchi navbatda bizning o'rnimizga kelayotgan yosh avlodimizni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashga, voyaga yetkazishga chambarchas bolidir”¹.

Shu bois ham xalqimiz va davlatimiz, har qaysi insonning barcha harakatlari ezgu niyatlari markazida farzandlarimizni jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxt-saodati, farovoni kelajagini ko'rish, boshqa xalqlar farzandlaridan hych ham kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi. Negaki, faqat har tomonlama yetuk avlodgina bugungi hayot oldimizga qo'yatgan o'ta murakkab, og'ir sinov va qiyinchiliklarni yengishi, ko'zlangan yuksak maqsadlarni egallash mumkin. Yoshlarga katta umid bilan qarayotgan Prezidentimiz, xalqimiz, ularga tayangan holda “O'zbekiston kelajagi – buyuk davlat”, - deb g'urur bilan ta'kidlamoqda. Ya'ni, mustaqillik bergan imkoniyatlar tufayli yoshlar hal qiluvchi kuch bo'lib hayotga dadil qadam qo'ymoqda. Men bu yosharga o'zimga ishongandek ishonaman”, - deb aytdi.

O'zbekiston davlatining buyuk kelajagi hozirgi kunda, asosan, maktablarda, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya olayotgan iste'dodli, ijodkor va tashabbuskor yoshlarga bog'liq. Chunki, bu yoshlar mamlakatimiz iqtisodiyoti, madaniyati va ishlab chiqarish sohalarida ijod qiladigan, kelajagimiz poydevorini yaratadigan yoshlardir. Xalqimiz hayotimizni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yangilash dasturini bajarishda yoshlarning imkoniyatariga umid bilan

¹ I.Karimov. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – T.: “O'zbekiston”, NMIU, 2012, 36-bet

qaramoqda. Negaki, "... biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odam boshqalarga foydasi tegadi, birovdan aldanib qolmaydi. Shu bilan birga, boshqalarga ortiqcha yuk ham bo'lmaydi. U har bir narsani aql va mantiq, adolat tarozisiga solib ko'radi. O'z fikri – o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi"¹.

Mamlakatimizda intellektual salohiyatni rivojlantirishning manbalari, xususan, oila – iste'dodli yoshlarni voyaga yetkazish va tarbiyalashning muhim o'chog'i sanaladi. Chunki, yosh avlod o'z hayoti yo'lida oilani kamolot beshigi, deb hisoblanadi. Yosh avlod kamolotida oilaning o'rni va ta'siri beqiyosligini Prezidentimiz Islom Karimov bunday baholagan edi: "... Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulika, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oia sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlar va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi. ... Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi"².

Oila har bir jamiyatning asl negizi bo'lib, yoshlarimizda insonparvarlik, mehnatsevarlik, axloqiylik, vatanparvarlik va yuksak tuyg'ular, avvalo oila

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar. 7-jild. – T.: O'zbekiston, 1999, 134 bet.

² Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008, 52-53, 56-betlar.

muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Oila inson hayotiga to'kislik bag'ishlaydi. Oila – davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ishdir.

Mamlakatimizda yiliga o'rtacha 300 ming oila qurilmoqda, hammasi bo'lib 7 milliondan ortiq oila bor. Ular orasida o'zaro totuvlikva hamjihatlikni ta'minlashga, barcha millatlarning o'z qadriyatlari va milliy urf-odatlarini to'laqonli ado etishlariga har tomonlama imkoniyatlar yaratilgan.

Mustahkam oila – davlat tayanchi. Oilalarimizning mustahkam, ahil, totuv bo'lishi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga bog'liq. Bugungi kunda respublikamizda filiallari bilan qo'shib hisoblaganda, jami 70 ta oliy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatmoqda. Mavjud oliy o'quv yurtlarida 274 ming 616 nafar talaba-yoshlar tahsil olmoqdalar. 2011-2012 o'quv yilida respublika bo'yicha o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini jami 532 ming 917 nafar o'quvchi-yoshlar, shundan kasb-hunar kollejlari esa 501 ming 477 nafar o'quvchilar bitirdilar. Bir so'z bilan aytganda ushbu talaba-yoshlarning aksariyati oila qurish ostonasida turishibdi. Ularning oila qurishga qanchalik tayyor yoki tayyor emasligi bu muhim masala. Chunki, balog'at ostonasida turgan yigit yoki qizning oila qurishga tayyorligi bu kelajakda jamiyatning kichik bo'g'ini bo'lgan oilalarning mustahkam bo'lishiga olib keladi. Poydevori mo'rt, zaif oilalarning esa mustahkam bo'lmasligi hych kimga sir emas.

Oila “ayol” so'zi bilan o'zakdosh bo'lib, farzandlarni tarbiyalash, kishilarning ma'naviy va jismoniy kamoloti, ularni jipslashtirish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash kabi vazifalarni bajaradi. Shuning uchun oilada avvalo ayolga bo'lgan e'tibor muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plab buyuk insonlar oilada onalarimiz qo'lida unib-o'sib tarbiya topgan. Oila moddiy va ma'naviy jihatdan mustahkam bo'lsa, tinch-totuv bo'lsa, unda tarbiyalanib voyaga yetayotgan yosh avlod ham, mustaqil fikrli sog'lom va komil inson bo'lib yetishadi. Oilaning jamiyat oldida mas'uliyatli vazifalari ham mavjud:

- **Oilaning ijtimoiy vazifasi** – farzandlarni tarbiyalash, yaxshi inson qilib kamolga yetkazish, ularning tabiat va jamiyatga nisbatan o'zaro munosabatini shakllantirish, vaqtida dam olishi va salomatligini ta'minlash kabilar kiradi;

- **Oilaning iqtisodiy vazifasi** – oila a'zolarining yashash uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar – uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak, texnika vositalari bilan ta'minlash kiradi. Oilaning mavjudligi uning o'z vazifalarini bajarishi bilan uzviy bog'liq.

Xususan, oila o'zining **demografik** vazifasi (naslning davomiyligini ta'minlash) ni bajarmas ekan, oilada natijada oila davom etmaydi.

Xalqimiz “Oilalari mustahkam bo'lgan, ravnaq topgan mamlakat qudratli va farovon bo'ladi”, - deyishi bejiz emas. O'zbek oilasi o'zining bolajonligi, ota-ona farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning samimiyligi, or-nomusning kuchliligi, yoshlarga izzat, keksalarga hurmat kabi fazilatlari bilan alohida ajralib turadi.

Sharqda ota oilaning boshlig'i, uning ta'minotchisi va posboni bo'lsa, ona esa uning ko'rki, orastaligi, fayzidir. Farzandlar esa oila gulshanining g'unchalari hisoblanadi.

O'zbekistonda yoshlarning nikohdan o'tish darajasi yuqori bo'lsada, eng muhimi oilalarning buzilishi dunyo bo'yicha eng past darajadadir. Oilaning muqaddas vazifasi – qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomondan yetuk qilib, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iboratdir. Oila muqaddas tushunchalar asosida rivojlanib, takomillashib boradi. Er-xotinning ahilligi, ma'naviyati, bilim darajasi, oila munosabatlari madaniyati nazariyasining metodologik asosini tashkil etadi. Ammo ushbu omillarning birortasining muvozanati buzilsa, oila mustahkamligiga putur yetadi. Uning sabablari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, oilalarning buzilib ketishiga er va xotinning dunyoqarashi, qiziqishi, ehtiyoji yaqin emasligi;

Ikkinchidan, erkakning zararli odatlariga berilib ketishi (spirtli ichimlik, giyohvandlik moddalar va shu kabilar) natijasida oila byudjetiga zarar keltirilishi, farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik;

Uchinchidan, o'zbek oilasi bolajon bo'lganligidan yosh oilalarda 1-2 yil farzand, aksariyat hollarda ayolni bepushtlikda ayblagan;

To'rtinchidan, er-xotin o'rtasida o'zaro hurmat va munosabat yomonlashishi, psixologik jihatdan birlikning yo'qligi sabab qilib ko'rsatilgan.

Respublika psixologlari va sosiologlarning o'rganishlariga qaraganda oilaviy tarbiya kamchiliklari quyidagicha ko'rsatilgan:

- Bolalarga kattalar tomonidan diqqat-e'tiborning yetishmasligi;
- Farzandlar bilan muloqotga kirishish istagining mavjud emasligi yoki hoxishning yo'qligi;
- Ota-onalar bilan farzandlar o'rtasida o'zaro tushunishning yo'qligi va unga ikki tomondan intilishning yetishmasligi;
- Ota-onalarning o'g'il va qizlarga nisbatan qo'pol muomalada bo'lishlari;
- Ko'r-ko'rona otalik va onalik mehr-muhabbatning hukm surishligi va uning barqaror ahamiyat kasb etmasligi;
- Oila muhitida doimiy janjallarning qaror topganligi va ularni kamaytirish uchun intilishning yo'qligi;
- Ota-onalarning beqaror his-tuyg'ulari, kayfiyatlari, ularning tarbiyasiz, tasodifiy xarakterga ega bo'lishligi;
- Ota-onalarning shaxsiy qiziqishlarini o'zaro mos tushmasligi va tubdan bir-biriga qarama-qarshiligi;
- Ota-ona o'rtasidagi o'zaro tushunmovchiliklarning surunkasiga davom etib turishi;
- Oila muhitida adolatsizlik, ikkiyuzlamachilik, o'g'rilik illatlarining namoyon bo'lishi;
- Ota-onalarning bilim saviyalari va madaniyat darajalarining past ekanligi;

➤ Oilada yaxshi an'analar, rasm-rusumlar, urf-odatlarining yo'qligi va ma'lum qolipdagi salbiy xatti-harakatlarga rioya qilinishi, ijtimoiy muhitdan tubdan ajralib qolishligi, loqaydlik kabi kamchiliklar va illatlar yigit-qizlarning oqilona tarbiyalashga xalal beradi, ko'zlangan maqsadlar sari intilishga g'oya bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida hayot ostonasida turgan yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri. Chunki, hayot taribasi shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlarimizning aksariyat qismi oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan yoki o'qishni bitirgandan keyin oila qurishyapti. Ularning oila qurishiga nechog'liq tayyorligi yoki tayyor emasligi turmush jarayonida o'z aksini ko'rsatmoqda. To'g'ri, talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammolari pedagogik-psixologik jihatdan muayyan darajada ishlangan. Ammo, davr shtobi tez, hayot oqimi o'zgaruvchan, insonning qalbi va ongi, sog'lom tafakkuri uchun kurash kuchaygan bir paytda yoshlarni oilaviy hayotga, sog'lom oila qurishga tayyorlash, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tug'ish yoshidagi onalar salomatligini mustahkamlash, nogironlar, kamqonlik kasalligiga duchor bo'lgan bolalar va ayollarga, mehribonlik uylari va internatlarda tarbiyalanayotgan bolalarga, aholining ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamlariga muruvvat yordamini ko'rsatish, tug'ishga yordam beruvchi va bolalar muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, ularni ixtisoslashtirilgan asbob-uskunalar bilan jihozlashga ko'maklashish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog'lom avlodni tarbiyalash ishida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, aholining tibbiy savodxonligini oshirishda targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish kabi masalalar har bir fuqaroning kundalik turmush tarziga aylantirilmog'i zarur.

Buning uchun mamlakatimizning har bir fuqarosi yoshidan qat'iy nazar sog'lom avlodni tarbiyalash borasida yurtboshimiz tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qaror, farmoyish, Davlat Dasturlari hamda parlament tomonidan ratifikasiya qilingan xalqaro huquqiy hujjatlarning mazmun va mohiyatini, amaliyotdagi ahamiyatini bilmog'i lozim.

Oilaning to'laqonli mustahkam bo'lishi ko'p jihatdan yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosi bilan ko'plab pedagog va psixolog olimlarimiz ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, Z.F.Mirtursunov, A.Munavvarov, G'.Shoumarov, V.Kariimova, O.Musurmonova, M.Inomova, N.Sog'inov, M.Xolmatova, D.Xoliqov, A.Muxsiyeva va boshqalarning ilmiy – tadqiqot ishlari e'tiborga molik.

Pedagogika fanlari doktori M.Mahmudova “Xalq pedagogikasi va oila tarbiyasi” monografiyasida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, maqola va tezislarida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik jihatlarini ilmiy va amaliy tomondan asoslab berishga harakat qilgan.

Olimaning ta'kidlashicha, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga 80-yillarning o'rtalarigacha e'tibor berilmay kelingan, farzandlarni oila va oilaviy hayotga tayyorlash, ayniqsa jinsiy tarbiya borasida suhbatlar o'tkazish ayb sanalib, ular oilaviy hayot, uning ostonasida bu murakkab jarayonga tayyorlanishi “yot” do'stlardan, boshqalardan eshitib, unga o'zini ko'r-ko'rona tarzda tayyorlash edi., yoshlar uchun tavsiyalar, qo'llanmalarning yetarli emasligi ham sabab bo'lganligi, yopirilib kirib kelayotgan, ovropalashib oilaviy hayotga doir axborot vositalari milliy turmush tarzimizga salbiy ta'sir etayotgani, yoshlarimizning bu sohada yot ta'sirlarga berilib ketayotgani ham oz bo'lsada namoyon bo'ladi,¹ - deb yozadi.

Psixologiya fanlar doktori G'.Shoumarov o'zining ilmiy-tadqiqot ishlarida o'zbek oilalarining o'ziga xos xususiyatlarini, oiladagi o'zaro nizolarning psixologik asoslarini yoritgan.

Pedagog olimi O.Musurmonova o'zining ilmiy-tadqiqot ishlarida oila tarbiyasining milliy g'urur va iftixor darajasiga ko'tarilganligini, O'zbekiston Respublikasi hukumati uning kamolotiga, tinchligi va farovonligiga, haq-huquqlari himoyasiga alohida e'tibor qaratilayotganligi boy materiallar asosida bayon

¹ Mahmudova M. Xalq pedagogikasi va oila tarbiyasi. Monografiya. Samarqand. SamDChTI, 2003, 174-bet

qilingan (49,50,51,52,53). Olima hukumatimiz olib borayotgan “Sog’lom avlod uchun” siyosatining asosiy maqsadi ham sog’lom ona, sog’lom bola va sog’lom jamiyatni shakllantirish, jamiyatda mavjud barcha institutlarning bu boradagi faolligini, mas’uliyatini va rolini oshirish, maqsad va vazifalarini davr tarbiyasiga mos ravishda kengaytirish hamda uning moddiy va ma’naviy bazasini mustahkamlashdan iborat ekanligiga e’tiborni qaratadi.

Psixolog olim V.Karimova ilmiy-tadqiqot ishlarida, maqolalarida o’zbek ayoli va erkaklarining oiladagi sosial-psixologik mavqeyi, er-xotin munosabatlarining bolalar tarbiyasi va oiladagi o’rniga ta’siri kabi xususiyatlarini tadqiq qilgan. (44. 327 b)

Faylasuf olim M.Xolmatova yoshlarni oilaga tayyorlashning axloqiy, jismoniy, estetik, ma’naviy, ruhiy va jinsiy tomonlarini hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini sharqona urf-odatlarimizdan foydalanishning o’ziga xos tomonlarini falsafiy jihatdan o’rgangan.

Pedagogika fanlar doktori, professor Malika Inomovanning dissertasiya ishi, o’quv qo’llanma, uslubiy tavsiyalarida mustaqillik sharoitida bolalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk inson qilib tarbiyalashda oilaning o’rnini, oilaviy tarbiyaning mazmunini, mohiyatini, metodlarini milliylik nuqtai-nazaridan tadqiq qilgan (42).

A.Munavvarov oila pedagogikasiga oid tadqiqot ishlarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-onalarning saviyasi, turmush tarzi, xarakteri, kasbiy faoliyatlari bilan bog’liqligini ishonarli faktlar asosida tahlil qilgan (48,112 b).

Oilashunos olim Yu.P.Azarov balog’at yoshidagi yigit-qizlarni rivojlanishining pedagogik-psixologik tomonlarini yoritadi. Olimning tavsiyalari talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim poydevor bo’lib xizmat qiladi (18, 197 b).

Psixologiya fanlari doktori E.G’ozdiyev tadqiqot ishlarida balog’at yoshidagi yigit-qizlarning psixologik jihatlarini tahlil qilgan.

Pedagogika fanlari nomzodi A.Muxsiyeva ilmiy-tadqiqot ishlarida oilada farzandlar tarbiyasida milliy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini yetarlicha tahlil qilgan.

Z.Dadanov va Sh.Salimovalar “Oilada bola tarbiyasi”¹ mavzusidagi maqolasidafarzandlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda ota-onalar oldida turgan vazifalarni quyidagicha ko'rsatgan:

- Bola hayotining birinchi kunidanoq uning o'sishi va rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish;
- Bolada jonkuyarlik, vazminlik, kamtarlik, umummanfaat bilan hisoblashish ko'nikmalarini tarkib toptirish;
- Bolada burch hissini vujudga keltirish kabilar.

Biz o'z farzandlarimizda xushmuomalalilik fazilatini ko'rishni istaymiz. Bunday shaxs ochiq ko'ngilli, sofdil bo'ladi, chin yurakdan gapiradi. U boshqalar bilan samimiy, odob bilan muomalada bo'ladi, - deb ta'kidlaydi.

Mualliflarning fikrlariga qo'shilgan holda aytish mumkinki, yoshlardagi xushmuomala, intizomli, mas'uliyatni his etish kabi fazilatlarni o'zida mujassam etgan yigit-qizlarning kelgusida mustahkam oila qo'rishlariga shubha yo'q.

“Oila” ilmiy-amaliy markazining tadqiqotchi-izlanuvchisi G.Haydarov “Xotin-qizlar shaxsining yetukligi – oila mustahkamligining ta'minlovchi muhim omilidir”, - mavzusidagi maqolasida ta'kidlanganidek, “... ta'lim tizimining boshlang'ich asosi bo'lgan maktabning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida voyaga yetib kelayotgan qizlar shaxsini shakllantirishga alohida yondashuv talab etiladi”, - deb yozadi.

Tadqiqotchi R.To'raqulova “Mustahkam va sog'lom oila qizlar tasavvurida” – deb nomlangan maqolasida mustahkam va sog'lom oilani shakllantirishning asosiy shartlaridan biri yoshlarni qaysi yoshda oilaviy hayotga qadam qo'yishlarini tahlil qilgan. Qizlarning sog'lom onalik, oilaviy hayot to'g'risidagi tasavvurlarini o'rganish maqsadida talaba qizlar o'rtasida maxsus so'rovnoma va metodikalar

¹Dadanov Z., Salimova Sh. Oilada bola tarbiyasi. // Xalq ta'limi. 4/2012, 127-129 betlar

asosida tadqiqot ishlari o'tkazgan. Maqolada "Qizlar necha yoshida turmush qurishga tayyor bo'ladi deb o'ylaysiz?", - degan savolnomaga qizlar 19-20 yoshda oilaga tayyor bo'ladi javobini 51,9 % lisey o'quvchi qizlari, 16,1 % oliygoh talaba qizlarini ko'rsatgan (Maktab va hayot jurnali, 6/2012, 3-4 betlar).

O.To'rayeva, S.Ergashevlar "Oilada bolalar tarbiyasi" kitobida bola tarbiyasi ota-onadan sabr-chidamni, sezgirlikni, bolaga nisbatan ham mehrli, ham talabchan bo'lishni talab etishini alohida ta'kidlagan (57, 108 b).

Izlanuvchi G.Sultonova o'zining "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning samarali yo'llari" maqolasida oilada bolalarga tarbiya berish bilan bir qatorda ularni mustaqil oila qurishga tayyorlashdan iborat ekanligini ko'rsatgan. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalar belgilagan:

- ✓ Oilalar muqaddasligini asrab-avaylash;
- ✓ Yoshlarni, xususan qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash;
- ✓ Oilada o'g'il bolalarni mustaqil oila qurishga tayyorlashlik pedagogik zaruriyat sifatida o'rganish;
- ✓ Qizlarni sog'lom turmush tarzi asosida oilaga tayyorlash jarayonlarini rejalashtirish va hayotga joriy etish;
- ✓ Oilada o'g'il bolalarni oila qurishga tayyorlashda tarbiyaning samarali usullari va vositalaridan foydalanish;
- ✓ Oilada o'g'il bolalarga yoshligidan ularning oila xo'jaligi byudjetini yaratishda, oilada sog'lom ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va pedagogik lozimligini yaratishda asosiy tayanch ekanligiga tayyorlab borish"¹, - lozimligini e'tirof etadi.

A.Abdusamedov va boshqalar tomonidan tayyorlangan "Mustahkam oila ma'naviyati" risolasida oila mustahkamligini ta'minlash, jismonan sog'lom, ma'nan kuchli va aqlan yetuk avlodni yaratish borasida yo'l-yo'riq va tavsiyalar berilgan (23, 160 b).

Oxunjon Safarov va Mels Mahmudovlar tomonidan chop etilgan "Oila ma'naviyati" kitobida o'zbek oilalari ma'naviyatini tarixiy asoslarini oila va

¹ Sultonova G. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning samarali yo'llari. // Uzluksiz ta'lim. №3, 2012, 50-53 b

jamiyat, oilada ma'naviy muhitning sog'lomligini, unda farzand tarbiyasi muammolarini hal etishda oilaviy an'analarning ahamiyati masalasini istiqloq mafkurasi nuqtai nazaridan qarab chiqilgan (27, 248 b).

Tajribali pedagog Abdulahat Usanov "Oila pedagogika" o'quv qo'llanmasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaviy an'analarning o'rnini tahlil qilishga harakat qilgan (59, 116 b).

Pedagog olim M.Mahmudova ta'kidlaganidek, talaba moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va ma'lum mutaxassislikka tayyorlanayotgan ijtimoiy guruh bo'lib, ularni oilaviy hayotga tayyorlash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu davr o'ziga xos xususiyatlar va ziddiyatlarga boy davr hisoblanadi. Chunki, talabalik davrida yuqori malakali mutaxassis, jamiyatning yetuk fuqarosi shakllanadi, fiziologik va ijtimoiy jihatdan balog'atga yetgan shaxs rivojlanadi.

Shunga ko'ra, ularni oilaviy hayotga tayyorlashda o'ziga xos xususiyat va mas'uliyat kasb etib, yoshlar hayot tarzini, o'z shaxsiy uslubini tarkib toptiradi. Bunda ularning o'ziga xos hayot tarzi, kun tartibi, qiziqishlari, shaxsiy muloqot shakllari paydo bo'ladi. Bular esa talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy-amaliy holatini chuqur tahlil etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Demak, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash takomillashtirilib borilmog'i, uning yangi qirralari kashf etilishi, to'plangan tajribalar umumlashtirilishi, bugungi kun nuqtai nazaridan yagona tizimga solinmog'i va hayotga tatbiq etilishi lozim.

1.2 Tarixiy, ilmiy va adabiy manbalarda talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning yoritilishi

Davlatimiz rahbari I.Karimov o'zining yoshlar siyosatiga doir qarashlari va konseptual yo'l-yo'riqlari "Ertangi kunimiz – hayotimizning farovonligi, zamondosh orqada qolmaslik, taraqqiy topgan davlatlardan va xalqlardan kam bo'lmaslik, bir so'z bilan aytganda, ertangi istiqbolimizning barcha ezgu niyatlarimizning amalga oshirilishi birinchi navbatda, bizning o'rnimizga kelayotgan yosh avlodimizni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashga, voyaga yetkazishga chambarchas bog'liqdir", - deb ta'kidlagan edi.

Chunki, har tomonlama yetuk avlodgina butun hayot oldimizga qo'yayotgan o'ta murakkab, og'ir sinov va qiyinchiliklarni yengish, ko'zlangan yuksak marralarni egallashi mumkin. Shu bois, muhtaram Prezidentimiz yoshlarga katta umid va ishonch bilan qaramoqda. Mustaqillik bergan imkoniyatlar tufayli yoshlar hal qiluvchi kuch bo'lib hayotga kirayapti. Shuning uchun yurtboshimiz: "Bugungi kunda yoshlarimiz hal qiluvchi kuch bo'lib hayotga dadil qadam qo'ymoqda. Men bu yoshlarga o'zimga ishongandek shionaman"¹, - deb ta'kidladi.

Mamlakatimizda intellektual salohiyatni rivojlantirishning manbalari, xususan, oila – iste'dodli yoshlarni voyaga yetkazish va tarbiyalashning muhim o'chog'i sanaladi. Chunki, yosh avlod o'z hayoti yo'lida oilani kamolot beshigi deb hisoblaydi. Yosh avlod kamolotida oilaning o'rnini va ta'siribeqiyosligini "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bunday baholagan edi: "Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchaning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shuning uchun ham oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur

¹Karimov I. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. –T.: "O'zbekiston", NMIU, 2012, 36-bet

anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi. ... Aqli raso har qanday inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu va intilishlari bilan yashaydi" (9, 173 b).

O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishdagi dastlabki yozma manba "Avesto" – ("Qat'iy qonunlar")da oilada sog'lom avlod tarbiyasining usul va vositalari, huquqiy munosabatlari haqida ma'lumot beradi. 15 yosh bola uchun balog'at yoshi hisoblanadi, unga zardo'shtiylikning qoidalari o'rgatiladi. Bu yoshda yigit yoki qiz bola turmush qurishi mumkin bo'lgan. Turmushga chiqayotgan qiz bolaning baquvvat, sog'lom, go'zal bo'lishi, bo'lajak farzandning sog'lom tug'ilishi oila mustahkamligi uchun asos hisoblangan. Ayol kishining ma'naviy pokligi, oilada saranjom-sarishtaligi, tozalagi uning axloqiy-ma'naviy yetukligining oliy bosqichi hisoblanadi.

"Avesto"da oilada tarbiya, bolani dunyoga keltirish va sog'lom qilib tarbiyalash, ayol kishining salomatligini asrash, oilada xotin-qizlarning huquqiy manfaatlarini muhofaza qilish, xomilador ayollarga e'tibor, er-xotin munosabatlarning nozik jihatlari, ersiz farzand ko'rgan qiz yoki juvonning haq-huquqlari, hayz ko'rgan ayolning sog'lom turmush tarzi, tug'ilmagan bolaga yetkazilgan shikast uchun jazo va boshqa oilaviy turmush qoidalariga keng o'rin berilgan.

Jumladan, xotin-qizlar salomatligini saqlash, ularga nisbatan zo'ravonlikning turli ko'rinishlari sodir etilganda gunohkorga belgilanadigan jazo qat'iy belgilab qo'yiladi. Homilador, hayz ko'rgan xotin aloqa qilgan, homilasini tushirgan, go'dakka, onaga shikast yetkazgan er, ayol, qariyaning jazosi oshkora o'limdir. Agar erkak kishi balog'atga yetmagan qiz yoki juvon kelgunga qadar o'sha qiz yoki juvonni o'z qaramog'iga olmog'i kerak. "Agar bordi-yu, er ayolni yetarlicha himoya qilolmasa va go'dakka shikast yetkazsa, bunday erning jazosi o'limdir". "Agar o'sha ayol odamlardan nomus qilib, bachadondagi tirik mevasini nobud

qilsa, odam o'ldirish gunohi ayol va erning gardanidadir. Ular oshkora qatl etiladilar" ("Vandidod", 15, Farzand, 15-16-betlar).

Axura Mazda saodat, go'zallik, ezgulik, ma'naviy va jismoniy sog'lom insonlarni dunyoga keltiruvchi ilohiy kuch ramzidir. U erkakning ham ayolning ham durkuni baquvvat, sog'lom xuddi shunday farzandlarni dunyoga keltirishni, shuning uchun ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amal g'oyasi orqali oilani, jamiyatni sog'lomlashtirishga, har bir sog'lom turmush tarzi asosida hayot kechirishni da'vat etadi.

Yaxshi andishali, aql-zakovatli, sog'lom er oilaning ustunidir, sog'lom kelajak poydevoridir. "Bizga shunday kamyoblik baxsh aylagilki, novqiron va kuchli yorlar topaylik, toki ular tamomiy tirikligimiz davomida bilan xushlikda bo'lsinlar, bizlardan dono, xushyor va xushkalom farzandlar dunyoga kelsin".

"Avesto"da hatto o'lik chaqaloq tuqqan ayol ham zamini kamsuv, giyohi serob, mollar va qo'ylar suruvi kamroq o'tadigan, marosimlar kam o'tkaziladigan, odamlar gavjum emas, suvdan, olovdan olim tinch-osoyishta joyda maxsus taomlar bilan ovqatlantirib, kiyintirib, parvarishlangan. Bunday ayolning ham sog'lom bola tuqqan ayol singari organizmi osoyishtalikni, pravirishni talab etadi, chunki u ham ko'p qon va kuch yo'qotadi. "Bachadonning ichi tozalanishi uchun, uch yo olti, yo to'qqiz jam kul aralashtirilgan kumiz ichmog'i kerak".

Bunday ayol yaxshi, sifatli va kuchli ovqatlanmog'i zarur. Uch kecha issiq sut, go'sht, non, uzum sharobi ichmog'i va yemog'i kerak, zinhor suv ichishi mumkin emas. Uch kundan keyin tana va kiyim-kechaklarini kumiz va suv bilan yuviladi. Shunday qilib, ayol poklanadi. To'qqiz kecha odamlardan ayro, yolg'iz yashaydi, so'ng tana va kiyim-kechaklarini yana suv va kumiz yordamida yuvib, poklaydi. Bu ayol kiygan kiyim-boshlardan hych kim foydalanishi mumkin emas.

Hadis islom olami payg'ambar Muhammad alayhis va salomning xislatlari, xatti-harakatlari, diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqida ma'lumot beruvchi didaktik xarakterdagi ta'limot hisoblanadi. Hadislarda targ'ib qilinadigan insonlarning ma'naviyatini belgilovchi ijobiy sifatlar: saxovat, rostgo'ylik, iffat, oqibatlilik,

rahm-shafqat, e'tiqod, imon, tozalik, pokizalik, bilimdonlik, halollik, sabrlilik, ishonch, qanoat, muloyimlik, latiflik, marhamat, saxiylik, sadoqat, sabotlilik, viqorlilik, salohiyat, halimlik, tavoze', hayo, tejamkorlik, sir saqlash, nonni e'zozlash, diyonat, mehmondo'stlik, mehr-oqibat, xayr-ehson, vazminlik, tadbirkorlik, himmat, bardoshlilik, xushxulqlik, to'g'rilik, shukr, vafo va boshqalar o'z ifodasini topgan. Ushbu ezgu xislatlarni balog'at ostonasda turgan qizlarimizga singdirish har bir ota-ona, ustozlarning asosiy vazifasidir.

Hadislarda "Kelin tanlash vaqtida to'rtta narsaga albatta qiziqiladi: moliga, jamoliga, kasbiy mansabiga va diniga. Sen dindorini tanlagin", - deyiladi. Chunki, mol, jamol vaqtinchalik, mansab esa kelin bilan birga kelmaydi, otasining uyida qoladi, ammo imon-e'tiqod, aql-idrok, xulqu odob, irsiy tozaligi u bilan doimo hamrohdir. Ana shunday fazilatlariga ega bo'lgan ayolning farzandlarini tarbiyalash osonroq bo'ladi.

Hadislarda qoraladigan inson ma'naviy va jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi xususiyatlar: o'g'irlik, zino, hayosizlik, munofiqlik, omonatga xiyonat yolg'on so'zlash, shartida turmaslik, kek saqlash, axloqsizlik, nopoklik, riyokorlik, xusumat, nohaqlik, fitna, yolg'onchilik, g'aybat, ochko'zlik, ta'magirlik, isrofgarchilik, itoatsizlik, chaqimchilik, beparvolik, kibr, gina-adovat, xiyonat, razillik, baxillik, zulm, maqtanchoqlik, ikki yuzklamachilik, takabburlik, manmanlik, shuhratparastlik, shoshqoloqlik, zinokorlik, ichkilikka ruju qo'yish, harom narsalarni iste'mol qilish kabi illatlarning oila qurish ostonasida turgan yigit-qizlarga zararli jihatlarni tushuntirish, bunday illatlardan hazar qilish tuyg'ularini singdirish lozim.

Islomda oilaning o'rni masalasiga yetarlicha o'rgangan va tahlil qilgan muftiy hazratlari Usmonxon Alimov o'zining "Oilada farzand tarbiyasi" kitobida dunyoda hamma narsa juft-juft yaratilganligini, ya'ni oy va quyosh, kecha va kunduz, yer va osmon, erkak va ayol, musbat va manfiy ekanligini ta'kidlaydi. Mohiyatan ularning har biri ikkinchisiga har jihatdan ehtiyojlidir. Mavjudotlar hayotda mana shu juftlik bilangina barqaror bo'ladilar. Ushbu juftlikni inson misolida oladigan

bo'lsak, er kishi turmushda faqat o'z jinsining jufti bo'lgan ayol bilan taskin va rohat topishi mumkin. Muqaddas Qur'oni Karimning "Nahl" surasida "Alloh sizlar uchun o'zlaringizdan juftlar yaratib, juftliklaringizdan sizlar uchun o'g'illar va nabiralar paydo qildi ...", - deb ta'kidlagan.

Ana shunday juftlik sanalgan erkak va ayolning ilohiy nikoh rishtalari tufayli bir xonadonda, bir oilada ahil-totuv yashashlari, nasl davomiyligini ta'minlab, umrguzaronlik qilishlari haqiqatan Yaratganning ulug' san'ati va hikmatiga dalolatdir. Dinimizda oila qurishga erkak va ayol birdek targ'ib qilingan. Payg'ambarimizdan (alayhissalom) bu borda rivoyat qilingan hadislarning birida: "Ey yigitlar, sizlardan qay biringiz oila qurishga qurbi yetsa, uylansin. Uylanish nomahramlarga ko'z tashlashdan, zinokorlikdan asraydi. Qurbi yetmagan kishi ro'za tutsin, toki unga to'siq bo'lsin", - deyilgan (Imom Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Nasa'y).

Hadislarning birida: "To'rtta yaxshi ish bor, ular payg'ambarlar sunnatidan sanaladi: hayo, xushbo'ylik, misvok tutish va uylanishdir", - deb marhamat qilinadi (Imom Termiziy rivoyati).

Payg'ambarimizdan (alayhissalom) yana shunday hadis bor: "Kim uylangan bo'lsa, dinning yarmini mukammal qilibdi, qolgan yarmida Allohga taqvo qilaversin" (Taboroniy, Boyhaqiy, Hokim rivoyati).

Islom ta'limotiga ko'ra, oila Yaratganning roziligini topish, Payg'ambarimiz (alayhissalom) axloqlari, islomiy odob bilan ziynatlanish va pok yo'l bilan insoniyat naslini davom ettirish maqsadida quriladi. Nikoh asosida turmush qurish Alloh taoloning buyrug'i, Payg'ambirmizning sunnatlari ekan, musulmon kishi oila qurishi lozim. Nikoh tufayli inson o'z nasli-nasabining pokligini saqlaydi, iffatini asraydi, buzuvchilik, zino singari harom ishlardan tiyiladi. "Nikoh" so'zi lug'atda, "yaqinlik", "bog'lanish" ma'nolarini anglatadi. Nikoh bitimi, ahdi bitimlarning eng yaxshisidir.

Har bir musulmon uylanishning sha'riy hukumlarini ham bilishi zarur. Kishining jinsiy quvvati, oila mas'uliyatini ado eta olishiga ko'ra, shariatda uylanishning hukmi besh xil:

1. Mahrga va ayol nafaqasiga yetarli moli bor, faqat uylanish bilan zinodan saqlana oladigan kishilarga uylanish farzdir.
2. Mahrga va ayol nafaqasiga yetarli moli bor, uylanmasa zinoga ketish xavfi bo'lgan kishilarga uylanish vojibdir.
3. Mahrga va ayol nafaqasiga yetarli moli bor, jinsiy munosabatlarga layoqatli kishilarga uylanish sunnatdir.
4. Mahr va ayol nafaqasini topib berishdan hamda jinsiy ojizligidan xavfsiragan kishilarga uylanish makruhdur.
5. Mahr va ayol nafaqasiga qodir bo'lmagan, jinsiy layoqati yo'qligi aniq kishilarga uylanish haromdir.

Islomda oila va nikoh masalasiga juda jiddiy e'tibor berilgan. Oilaning mustahkam bo'lishi uchun nikohning qo'shimcha sharti sifatida sharti sifatida kafoatga ham amal qilinadi. "Kafoat" deganda, nikohlanayotgan tomonlarning ijtimoiy, moddiy va ma'naviy jihatdan bir-biriga "teng", mos bo'lishi tushuniladi. Xalqimizning "Teng-tengi bilan" degan maqol bejiz emas. Nikohdagi tenglik ikki tomonning nasl-nasabi, dini, boyligi, kasb-hunari va e'tiqodi kabi narsalarda namoyon bo'ladi. Zero, ota-onasi bag'ridan chiqib, o'zi uchun shu paytgacha mutlaqo begona sanalgan yangi oilaga ko'nikib ketishi uchun tushgan xonadoni bilan ota-onasi xonadoni o'rtasida ijtimoiy va ma'naviy nuqtai nazardan tenglik bo'lsa, kelinning yangi oilaga moslashuvi osonroq kechadi.

Jamiyatning kelajagi porloq, katta imkoniyatlarga ega bo'lishi, avvalo, o'zining ajralmas negizi bo'lgan oilalarning ma'nan sog'lomligini talab qiladi. Bu esa quyidagi shartlarga rioya qilishni talab qiladi:

- 1) Oilaning bir-biriga munosib odamlardan tashkil topishi;
- 2) Er-xotin orasidagi o'zaro hurmat va totuvlik;

3) Erkak kishi o'zining oila ustuni ekanini hamda rahbarlik mas'uliyatini his etishi va bunga amal qilib yashashi;

4) Ayol kishining oila ichki holatlariga mas'ulligi;

5) Ota-ona farzandlarining rioyasini qilib, ularga adolatli bo'lishlari;

6) Farzandlar ota-onalarga yaxshilik qilishlari.

Ana shu shartlarga riyoq qilinsa, oilada sog'lom muhit vujudga kelib, tarbiya topayotgan farzandlar odob-axloqqa, el-yurtga xizmat qiladigan insonlar bo'lib voyaga yetadilar.

XI asrning 82-83 – yillarida G'arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o'g'li Gilonshohga bag'ishlab yozgan “Qobusnoma” asari didaktik xarakterga ega bo'lib, unda yoshlarni oilaga tayyorlash bog'liq jihatlarga ham yetarli e'tibor berilgan. Asarda o'g'il bola uchun alohida, qiz bola uchun alohida tarbiyaviy talablarni qo'yadi. Jumladan: “Bas, farzandingga har na o'rgata olsang o'rgatgil, uning foydasi senga ham yetishur. Ammo, farzanding balog'atga yetgan bo'lsa ko'rgil, uning oila boshlig'i bo'lmoqda, xotin olmoq va ro'zg'or ishlariga mashg'ul bo'lmoqqa salohiyati bo'lsa, sen unga xotin olib bergil, toki shu bilan sen uning bu haqqini bajargan bo'lg'aysan. Lekin agar o'g'lingni uylantirmoq va qizingni erga bermoq tilasang, zinhor o'z qarindoshlaring birla berishib-olishmagil. Begonadan xotin olg'il, nedinkim, o'z qarindoshlaringdan olmasang ham ular sening bilan go'sht, qondek yaqinroqdir. Boshqa qabiladan xotin olg'il. Bu bilan bir qabilani ikki qabila qilishi bo'lg'aysan, begonani o'zinggga qarindosh qilg'aysan, yoki bir quvvating ikki bo'lg'ay, ikki tarafdin madading va ko'maging ko'paygan...

Agar qizing bo'lsa, uni mastura doyalarga topshirgil, toki yaxshi parvarish qilinglar va kattaroq bo'lg'ondan so'ng muallimga topshirgil. Balog'atga yetgandan so'ng harakat qilib, erga berg'il, unga shafqat va marhamat kurg'izgil, nedirkim, qiz otaning asiri bo'lur. O'g'il otasiz bo'lsa ham bir ish talabiga bora olur va o'zin maishatlig' tutar. Qiz har na boring bo'lsa, avval burun qizga bergil va uning sababin tuzatgil. Tezroq uni bir kishining bqyin band etgil, toki uning

g'amidan qutilg'aysan. Agar qizing erga tegmagan bo'lsa, uylanmagan yigitga topshirg'il, toki unga ko'ngil bog'lasin va ul bunga ko'ngil bog'lasin ("Qobusnoma" - 108 bet).

Kuyov tanlaganda ham chiroyli, sog'lom, shirin so'z bo'lishiga e'tibor bergil, qizingni hyech qachon qul kabi sotmagil. Qiz bilan yigit bir-birlariga har tomonlama mos bulmaklari kerak, shunda har ikkalasi chiroyli va mustahkam oila quradi. Bunday oilada tug'ilgan farzand sog'lom, baquvvat va chiroyli bo'ladi.

Kaykovus farzandiga qarata poklik haqida o'git berib, "Tan va libosingni pok tutgil va hozirjavob bo'lg'il" deya uqtiradi. Poklik salomatlik negizidir.

Imom G'azzoliy kuyov va kelin tanlashda quyidagilarga amal qilish lozimligini aytib ketgan:

-uylanishda erkak to'rt jihatdan ayoldan afzal bo'lishida foyda bor:

1. Erkakning yoshi ayolning yoshidan katta bo'lishi;
2. Erkakning bo'yi ayolning bo'yidan baland bo'lishi;
3. Er-xotinidan badavlatroq bo'lishi kerak;
4. Erning mavqyei ayolnikidan balandroq bo'lishi kerak;

Xotin ham er dan to'rt narsada afzal bo'lishi kerak:

1. Go'zallikda ayol erkakdan ustun bo'lishi;
2. Nazokat va zarofatda ayol erkakdan nozikroq va madaniyatliroq bo'lishi;
3. Ayolning fe'li erkakning fe'lidan yumshoqroq bo'lishi;
4. Ayol erdan ko'ra sabbrliroq bo'lishi;

Yosh qiz qari kishi bilan, qari kishi yosh qiz bilan turmush qurmasligi kerak. Ota-onalar farzandlarining juft tanlashlari ustida zulm qilmasliklari lozim. Uylanajak juftlar bir-birini ko'rib, qaror qilishlari kerak¹.

Abu Rayhon Beruniy o'zining oila pedagogikasiga oid ishlarini bevosita xalq pedagogikasi bilan bog'langan. Jumladan, uning hikmatlarida "So'z bilan aytganda o'quvchiga qamchi va qiliq lozim emas", "Omma odat qilgan narsalarga xiloflik qilma", "Yaxshi yo'ldan yurish yaxshilik odatidir", "Kichkina narsani ondek

¹ Imom G'azzoliy. Ey farzand. –T.: "Movarounnahr", 2005, 106 6.

hisoblama, chunki kichkina narsaning ham foydali o'rne bor" va boshqalar. Beruniy "Hindiston" asarida ayrim afsona va hikoyalar keltirib, sevgi, muhabbat, oila, bola tarbiyasi sohasida tizimli g'oya yaratadi. Buyuk mutafakkir "Hindiston" asarida "Hyech bir xalq oila, nikoh munosabatlaridan xoli emas", deb yozadi va unda oila va nikoh o'ziga xos ijtimoiy hodisa ham ekanligini isbotlashga uringan. "Nikoh xususida har bir xalqning (elatning) o'ziga xos rasm va odati bor. Jumladan, bolalarni yoshlik vaqtida uylantirish odati bor bo'lib, o'g'il otasi bilan qizning otasi o'zaro nikoh to'xtamini bajo keltiradilar. Ota-onalar tarafidan braxmanlarga va xalqqa sadaqa berilib, xursandchilik tantanalari o'tkaziladi va o'g'il-qizlar o'rtasida mahr tayin qilinmaydi, (ammo yigit taraf) xotin o'z ximmatiga loyiq ko'rmana va naqd hadyalar beradi. Lekin bergan narsalarni keyin qaytib olish joiz emasdir. Ammo xotin o'z roziligi bilan qaytarib berishi mumkin. Er va xotin o'rtasini o'limdan boshqa hyech narsa ajrata olmaydi, hindlarda taloq qilish ham yo'q. ... Agar xotinning eri o'lsa, uning ikkinchi erga tegishi mumkin emas. ... Hindlarning nikoh qonunlarida begonaga uylanish qarindoshlardan ortiqroqdir. Bolalar esa otasining tabaqasiga mansub bo'lmay, balki onasining tabaqasiga mansub bo'ladi"¹.

Beruniyning ta'kidlashicha, oiladagi totuvlik, o'zaro ishonch, xushmuomalilik, muhabbat – oila kamolotining asosidir. U yozadi "Dur – gavhar o'z chig'anog'i ichida yaxshi saqlanadi, ona o'z farzandlarini har xil yomonliklardan avaylab asrashi kabi". Bu o'xshatmada, mutafakkir mehribon onasining oiladagi roli, bola tarbiyasida birinchi yoki tabiiy tarbiyachi, murabbiyligini tan oladi. "Dur o'z chig'anog'i ichida ham ko'rinadi. Bolalarning chiroyliligi, yuz ko'rinishi ona qornida shakllanib, rivoj topadi".

Beruniyning fikricha, bola sog'lom holda tug'ilishi uchun onani e'zozlash, unga g'amxo'rlik qilish, og'ir mehnatdan asrash, yaxshi ovqatlantirish lozim.

¹ Musurmonova O va b. Ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish – jamiyat taraqqiyotining asosi. – T.: "Fan va texnologiya", 2012, 80-81 b

Mutafakkir oila qurish oson ish emas. Bo'lajak er va xotin bir-birlariga moyil bo'lishlari, ularda o'zaro rozilik paydo bo'lgandan so'nggina turmush qurishlari lozim, degan fikrda edi. Bunda eng avvalo, vafodorlik va muhabbat, o'z idrok va ehtirolarga ega bo'lishi kerak.

Abu Ali ibn Sino "Tadbir al-manozil" kitobida xotinlarning yaxshi xulqli, odobli bo'lishi haqida gapirgan va ularga qator talablar qo'yadi, ya'ni, xotin kishi bilimli, aqlli, farosatli, uyatchan, sharm-hayoli, tabiatan jasur, o'z erini qattiq sevishi, bola tug'ishi va tarbiyalash haqida o'ylashi, ezma, injiq bo'lmasligi, o'z eriga bo'ysunishi, hych qachon o'z sha'niga dog' tushirmasligi, er bilan ehtiyotkor, hurmatni o'rniga qo'yib muomala qilishi, u o'z vazifasini va burchini yaxshi bilimi, tejamkor bo'lishi, o'zining xarakteri va yaxshi tomonlari bilan erining shaxsiy kamchiliklarini yo'qota oladigan bo'lishi zarur degan g'oyani ilgari suradi.

Olim er-xotinning bir-biriga munosabatlari sevishta, vafoga, pokiza va halollikka asoslangan bo'lsa, oila xo'jaligini to'g'ri va tejamli yurita oladi, oila mustahkam zaminga ega bo'ladi degan xulosaga keladi.

Ibn Sino salbiy xislatli ayollarni, o'sha davrda feodal xonlar saroyiga o'z xoxishi bilan yollangan bevafo ayollarni tarbiyalash maqsadida "Salomon va Ibsol" qissasini yozadi. Qissada egrilik to'g'rilik ustidan hych qachon g'olib chiqa olmasligi, ayniqsa, bunday holat oilaviy munosabatlar maqsadsizligi ishonchli fikrlar bilan ifodalangan. Ibsol obrazi orqali sof vijdonli, irodali, katta aql egasi, foyda keltiruvchi, boshqalarga yordamini ayamaydigan, keng qalbli, sevgilisiga vafoli insonlar targ'ib qilinadi. Bundan tashqari yangi obraz orqali esa insoniy hirsga emas, hayvoniy hirsga ruju qo'ygan ijobiy fazilatlardan mahrum bo'lgan, makkor, hiylakor, badxulq, o'z oilasiga vafosiz xotinlar qoralanadi. Bu qissa o'rta asr adabiyotidagi sog'lom oila munosabatlarining yuksak namunasi, uning tarbiyaviy ahamiyati bugungi kunda ham yo'qolmagan. Asarda eng dono vujud insondir, shuning uchun ham inson aql-idrok bilan yashashi, hamisha haqiqat, adolat uchun kurashishi kerak degan fikr keng o'rin egallagan.

Ibn Sino muhabbati barcha dunyoviy narsalardan yuqori qo'yadi, sevgi muhabbat asosida qurilgan oilani mustahkam deb biladi. Olimning fikricha bolani tarbiyalash oilani, homilador ayolni e'zozlashdan boshlanadi, go'dakligidan boshlab, muloyim, mo'tadil ruh, sog' tan, sog'lom fikr, xulq-odob, shirin til bilan tarbiyalash zarur. Mutaфakkir oila qurish va uni mustahkamlash uchun ma'lum darajada moddiy ne'matlarga ega bo'lish kerak. Bu moddiy ne'matlar esa oila quruvchilarning, oila a'zolarining halol mehnati bilan topilgan bo'lishi shart.

Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida oila masalasiga ham e'tibor berib, qanday xotin olish xususida gap ketganda ham asosiy e'tibor uning tozaligi, ozodaligi va pokizaligiga qaratiladi, deb ta'kidlaydi. Xotin tanlashda ayol andishali, pokiza, xulqi chiroyli bo'lmog'i darkor. Tanlangan xotin "Andishali, pokiza bo'lsa (unday kishi) asl bo'ladi"¹.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz ham sog'lom oila va farzand tarbiyasi masalasiga davlat ahamiyatiga molik ish deb qaragan. Amir Temur bobomizning "O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq-salomatligini, jismoniy kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y tamosho berib, kelin tushirdim"², - degan fikrlari asrlar osha farzandlarni uylantiruvchi ota-onalar uchun hayotiy qonuniyatga aylanib qolgan.

Sohibqironning "O'g'illarim, nevaralarim va yaqinlarimga biron tomchi sharobichib xotinlariga yaqinlashishni man etdim. Zero, sharobning ta'sirida bunyodga kelgan farzand nasl-nasabining buzilishiga ta'sir etgay, degan pokiza yo'lni tutdim", - degan g'oyasi nafaqat u yashagan davrda, balki bugungi kunda ham tibbiyot fanining sog'lom talablaridan biridir. Ushbu fikrlarga sohibqiron bobomizning o'zi amal qilgan, so'ngra farzandlari, davlatning har bir fuqarosidan

¹ Musurmonova O va b. Ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish – jamiyat taraqqiyotining asosi. – T.: "Fan va texnologiya", 2012, 124-130 bet.

² Amir Temur o'gitlari. Tuzuvchilar: B.Ahmedov, A.Aminov. –T.: Navro'z, 1992, 64 bet.

talab qilgan. Bu haqda u shunday deydi: “Davlatlarning tanazzulga uchrash sabablarini surishtirdim va davlatu saltanat (oila) zavoliga sabab bo’luvchi ishlardan saqlandim. Naslni buzuvchi ocharchilik va vabo kasalini keltiruvchi zulm va buzuqlikdan saqlanishni o’zimga lozim bildim”.

Xotin – qizlarga bo’lgan hurmati, ularni ona, qiz, zaifa sifatida e’zozlash, har qanday xavf-xatardan himoya qilish sog’lom farzandlarni dunyoga kelishi uchun zamin hisoblangan.

Tarixchi olim ibn Arabshoh “Amir Temur tarixi” kitobida Amir Temurning hayoti haqidagi ma’lumotlarda uning yolg’on-yashiqning dushmani bo’lganligi, hazil uning ko’ngliga yoqmasligi, talon-tarojlik, qotillik, xotin-qizlarning nomusiga tegish, zo’rlash haqida hyech qachon gapirishga yo’l qo’ymasligini yozib qoldirgan.

Tatar pedagog olimi Rizouddin ibn Faxruddin “Ilmi axloq” kiritilgan va qayta nashr etilgan “Nasiyhat” kitobi yosh bolalar, qizlar, o’smirlar, er-xotin, uylanmoq, uy tutmoq kabi qoidalardan har tomonlama hayotiy bilim beradi.

Pedagogika fanlari doktori M.Maxmudova o’zining “Xalq pedagogikasi va oila tarbiyasi”¹ monografiyasida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini, o’zbek xalq pedagogikasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash shart-sharoitlari talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda xalq pedagogikasidan foydalanish metodikasi masalalarini atroflicha yoritgan, asosli xulosalar chiqara olgan. Jumladan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda – maktab, lisey, kasb-hunar kolleji, oliy o’quv yurtida uzviylikka e’tiborni qaratish, yigit-qizlarni erta oila qurishga chek qo’yish, yaqin qarindoshlar o’rtasida nikohning oldini olishga oid barcha targ’ibot ishlarini yo’lga qo’yish, yoshlarning fiziologik-gigiyenik jihatdan oilaviy hayotga tayyorgarligini o’rganish, o’quv yurtida yoshlar o’rtasida barcha muammolar bo’yicha davra suhbatlari, seminarlar tashkil etish kabi jihatlarni ko’rsatgan.

¹ Maxmudova M. Xalq pedagogikasi va oila tarbiyasi. Monografiya. Samarqand, SamDChTI, 2003, 174 bet

Pedagog olimi Malika Inomovning ilmiy-tadqiqot ishlari, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalari oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalariga yetarlicha e'tiborni qaratgan. Chunonchi, muallif bola tarbiyasining – ijodiy jarayon ekanligini, bolaning har tomonlama va uyg'un rivojlanishini oilaviy tarbiyasiz amalga oshirib bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi. Shuningdek, olimi yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayoniga e'tiborni qaratib, ayniqsa qizlarni begona oilaviy muhitga, ularni yashash tarziga va o'ziga xususiyatlarini anglab yetish ko'nikmalarini hosil qilishga tayyorlash lozim. Ammo, ayrim ota-onalar o'z farzandlarini mehnat qilishdan qo'rqib, “Ha mayli o'qisin, odam bo'lsin, vaqti kelganda buyog'ini ham o'rganib olar” qabilidagi fikrga kelishlari jiddiy xatoliklarga olib keladi. Shu taxlitda oilaviy yengil-yelpi qaraydigan ayollar paydo bo'ladi. Oqibatda yangi oilalarda kelishmovchiliklar tug'ula boshlaydi.

Psixologiya fanlari doktori G'.Shoumarovning ilmiy-tadqiqot ishlari, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalarida oila, oilaviy munosabatlarga batafsil to'xtalib, oiladagi o'zaro munosabatlarning barqaror emasligi, er va xotinning oilaviy bilimlari yetarli emasliklarini ta'kidlaydi.

Olimat ul-Banot “Muosharat odobi” kitobida “Er bilan xotun orasida bo'lgan turmushda kelishuv bo'lmasa, har ikkinchi uchun ham so'ngsiz hasrat, zo'r mashaqqat bo'ladi. ... xonadon a'zolari orasida bir-biriga dushmanlik paydo bo'ladi, bolalarning tinchligi yo'qoladi, bundan ko'p noxush ishlar kelib chiqadi”.

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularning mafkuraviy jihatlariga ham e'tiborni qaratish lozim. Bu haqda pedagog olim M.Quronov shunday yozadi: “Fanda “Ijtimoiy rollar nazariyasi” bor. Shunday nazariyalardan o'zbek turmushiga nazar tashlasak, unga ko'ra har bir odam muayyan vaziyatda rolni bajaradi. Masalan, do'konda xaridor, to'y ma'rakada mehmon-mezbon, oilada ota-ona yoki o'g'il va boshqa xizmatni bajaradilar. Hozirgi millat, ona Vatan himoyasi bizdan ogohlik, kurashanlikni kutmoqda. Demak, hozirda har birimiz bu kurashchanlikni namoyon qilishga tayyor bo'lmog'imiz kerak. Bunga bizning mafkuraviy tarbiya maxsus o'rgatmog'i lozim. Misol, yoshlarimiz o'zlariga “Diniy islomni

o'rgataman" degan kishining asl niyatini birinchi muloqotdayoq bilib, unga nima deyish, nima qilishning yaxshi mashqidan o'tishlari kerak, ya'ni "mafkurasi mustahkam o'zbek" sifatidagi milliy vazifamizni a'lo bajarishimiz, dushmanning niyatlarini, rejalarini buzadi. Umidsiz, niyatsiz, dastursiz dushman uydan chiqmaydi. Bizga tahdid solmaydi. Boshqa, mafkurasi zaif, birlashmagan millatlarni, mamlakatlarni izlaydi"¹.

Oila – odamlarning umr mazmuni, ularning taqdirini bog'laydigan baxtu-quvonchlari, tashvishu g'amlarini mujassam etuvchi murakkab va ko'pqirrali, bir makon.

"Oila" ilmiy-amaliy markazi tadqiqot etayotgan muammolardan biri bu – yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda nikoh deb atalmish noyob qadriyatga nisbatan to'g'ri munosabatni tarbiyalash. Ota-onalar aniq-tiniq anglab yetmoqlari lozimki, yoshlar oilaviy hayotga nafaqat jismonan-fiziologik jihatidan, balki eng avvalo, ma'naviy-ruhiy jihatidan ham, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham tayyor bo'lishi kerak².

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda sha'riy nikoh oqibatlarini tushuntirish, eng avvalo, oilaning huquqiy poydevori mustahkam bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

Pedagog-psixolog olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida yosh oilalarning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'rsatib o'tilgan:

- Yoshlarning ma'lumotga va daromad manbai hamda kasb-hunarga ega bo'lmog'i;
- Oilaviy hayotga ruhiy va ma'naviy, huquqiy jihatdan tayyor emasligi;
- Oilada nosog'lom muhitning yuzaga kelganligi va madaniy-ma'rifiy saviyaning pastligi;
- Yoshlarning mustaqil oila qurishlari uchun yetarli sharoit yaratilmaganligi;
- Oilada o'zaro nomaqbul munosabatlar va turli noxush shart-sharoitlar;

¹ Quronov M. O'zbek bolasi pedagogik portretiga chizgilar. // "Pedagogik mahorat", 2012, 1-son

² Mustahkam oila ma'naviyati. A.Abdusamadov va boshqalar. –T.: "Sano-standart" nashriyoti. 2012, 35 bet.

➤ Oila butunligini hamda oilada qaynona va kelin munosabatlarining buzilishi;

➤ Ota-onalar va yoshlarning o'z huquqlarini yaxshi bilmasliklari;

➤ G'ayriijtimoiy qarashlari va an'analar;

➤ Oilada turli salbiy holatlarning mavjudligi;

➤ Oiladagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit;

➤ Mehnat jamoasidagi noxush vaziyatlar;

Hozirgi kunda aholi turli qatlamlarining ma'naviy va huquqiy madaniyatini oshirish dolzarb bo'lib turibdi, bu mamlakat ravnaqining yanada jadallashuviga sabab bo'ladi, turli toifadagi odamlar, xususan yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar, huquqbuzarlikka moyil farzandlar yetishib chiqishiga barham beradi. Buning uchun mahallalarda mavjud barcha oilalarning ijtimoiy-ma'naviy muhitini o'rganish, har bir oila bilan mustahkam aloqa o'rnatish yaxshi samara beradi.

Pedagogika fanlari doktori Oynisa Musurmonova o'zining "Oila ma'naviyati – milliy g'urur", T.Qurbonovning "Ota bo'lish osonmi", M.Quronovning "Milliy tarbiya" kabi tadqiqot ishlarida ham yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oila tarbiyasi muammolari bilan bog'liq jarayonlar yetarlicha tahlil qilinga va tegishli xuslosalar chiqarilgan.

Taniqli adiba Tursunoy Sodiqovanning "Jannatim onam", "Muhabbat nima", "O'g'lim, qizim senga aytaman", "Umr bittadir", "Quyoshlarim oylarim", "Baxt qayerda", "Men kimni sevdim", "Sabab va natija" deb nomlangan kitoblarida oila, oila ma'naviyati, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, qaynona-kelin munosabatlari kabi masalalarga bag'ishlangan. Jumladan, muallifning "Sabab va oqibat" kitobida "Turmush faqat juftingdan iborat emas" faslida quyidagi satrlarni keltirish mumkun:

Savol: - Yaqinda turmushga chiqdim. Turmush o'rtog'im bilan munosabatim yaxshi. Ammo bu xonadonga ko'nika olmayapman, nima qilay?

Javob: - Sen turmushga tayyor bo'lmay turib, oila qurgansan. Bu jarayon sen o'ylaganday rohat-farog'atli emas. ... Agar hozirgi daqiqadan boshlab,

uydagilaringga yoqishga harakat boshlamasang, hayoting izdan chiqadi. ... qay kuyga tushsang tush, qo'lingni mehnatdan olib qochma, tilingni esa yaxshi gapdan. Podshoning qizi bo'lsang ham egil, atrofingdagilaring rizoligini ol. Jufting seni, sen juftingni mushkul bo'lib, sevsalaringu, kelin sifatida oiladalariga yoqolmasang, esingda qolsin, bu turmushdan senga rohat buyurmaydi. Ko'p o'tmay eringning yaxshiligi ham totimay qoladi¹, degan edi.

Rahima Shomansurovaning "Kelinnoma" kitobida o'zbek ayollariga xos bo'lgan – zukkolik, dilbarlik, fadoiylik, mehr va vafo ulashish, yaxshilik izlash, hayotsevarlik kabi fazilatlarining shakllanishida eng mas'uliyatli va "qaltis" davr hisoblangan kelinlik davrining qusurlari ochib berilgan. Masalan, "Oila haqida suhbatlar" haqidagi materiallaridan parcha keltiramiz:

Talaba qiz: - Dugonam erga tegib, bir bolalik bo'lgach, ajrashib ketdi. To'yiga shunday shoshgan ediki. Sovchilar kelib qo'ymayapti, men esa qo'rqaman. Nega erga tegish oson etigini tortish qiyin deyishadi?

Sudya: - Ajralishaman deb ariza bergan aksariyat ayollarni ko'proq oilani saqlab qolish muammosi emas, qaynonasi qilgan sarpo unda qolarmi yoki yo'qmi degan muammo qiziqtiradi. Ular oila qurayotganlarida oila oldidagi burchlari haqida mutlaqo o'ylamaydiganga o'xshaydilar. Kamdan-kam qiz oila rejasi bilan tanish. ... Nikoh kontrakti ham ularga begona ...

Muallima: - O'rta maktabdanoq maxsus darslarda oila haqida ko'p gapiriladi. Lekin ta'siri juda kam. Negadir qizlarimiz oila qurishga nikoh o'qitayotganlarida o'z og'izlari bilan roziliklarini bildiradilar-u, tasavvurida esa to'ydan narisini ko'rolmaydilar. Ko'pchilik qizlar oila qurishni o'zlarining zeb-ziynatlari, yangi kiyim-sarpolarining ko'payishi deb tushunadilar. Oila qurish ikki tomon zimmasiga juda katta vazifa, burch yuklashini tushunib yetmaydilar. To'ydan so'ng ana shu burch va vazifalar birinchi o'ringa chiqa boshlashi bilan oila ham qumga qurilgan imoratdek sochilib ketayapti.

¹ Sodiqova Tursunoy. Sabab va natija. Esselar. –T.: Davr PRESS NMU, 2014, 108 bet.

Ona: - Oila ikki kishining payvandidir. Lekin baribir og'irlik ayolda. Qizlarining onasi turmushda shu qadar qiyinchiliklarning tabiiyligini tushuntirishlari kerak. Ichga yutgan yuzaga chiqadi axir bir kun¹ ...

Demak, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasida o'rganilgan tarixiy, ilmiy, adabiy manbalar shuni ko'rsatadiki, kelajakda oilalarning mustahkamligini ta'minlash uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- ❖ Balog'at ostonasida turgan yigit va qizlar o'rtasida munosabatlarni to'g'ri shakllantirish;

- ❖ Yigit-qizlarda o'zaro hurmat, beg'araz do'stlik, samimiy hamkorlik tuyg'ularini shakllantirish;

- ❖ Talaba-yoshlarni jismonan baquvvat, sog'lom, madaniyatli qilib tarbiyalash, tinch-totuv oila qurishga tayyorlash;

- ❖ Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda asrlar sinovidan o'tgan xalq pedagogikasining yutuqlaridan oqilona foydalanish;

- ❖ Oilada farzandlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalariga e'tiborni kuchaytirish;

- ❖ Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-onalarning mas'uliyatini oshirish;

- ❖ Bu borada pedagogika-psixologiya, oilashunoslik fanining yutuqlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

¹ Kelinnoma. Shomansurova R. –T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2012, 46-47 bet.

1.3 Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning bugungi holati va imkoniyatlari

Oila arabcha “ayolmand, niyozmand” ma’nolarini anglatuvchi “oid” so’zidan chiqqan, “Farhong-i zaboni tojik”da qayd etilgan “O’zbek tilining izohli lug’ati” uchinchi kitobida ham o’z so’zining arabchaligi ta’kidlanib, uning besh ma’nosi farqlanadi. Dastlabki va boshqa ma’nosi “Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug’ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon”; ikkinchi ma’nosi – “Biror maqsad, maslak bilan birlashgan ko’p kishilar, xalqlar, mamlakatlar”; uchinchi ma’nosi: “O’simliklar va hayvonlar sistematikasida tuzilish jihatdan bir-biriga o’xshash, kelib chiqishi jihatdan ham o’zaro yaqin bir necha urug’ni o’z ichiga olgan guruh: dukaklilar oilasi, o’rdaktumshuqlar oilasi”; to’rtinchi ma’nosi: “Qardosh tillar guruhi, oltoy tillar oilasi, sam-xom tillar oilasi”; beshinchi ma’nosi jonli so’zlashuv tilida: “Rafiqa, xotin. Oilam maktabda o’qituvchi”¹.

Oilaning kelib chiqishi ham batamom oydanlashtirilgan emas, deb yoziladi “Filosofiya lug’ati”da – mutaxassislarning aksariyati ibtidoiy jamoa tuzumining avvalida tartibsiz jinsiy aloqalar hukm surgan va u vaqtda oila ham bo’lmagan, bu aloqalar o’rnini gruppaviy nikoh egallagan, so’ngra esa mazkur jamiyat oilasining asosiy formasi sifatida juft oila paydo bo’lgan, deb hisoblashda davom etmoqdalar. Yangi tadqiqotlar bir qancha omillarni eng avval boshdan juft oila mavjud edi., bu oila er va xotin urug’i bazasi (otalik davri, onalik davri) da yashagan va qarindoshlikni ota tomonidan ham, ona tomonidan ham hisoblab borgan, degan xulosaga olib keladi”².

Oila tarixiy kategoriya sifatida, qomusiy adabiyotlar qayd etilganidek, “kishilarning tabiiy-biologik (jinsiy munosabatlar, bola tug’ish) iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy-ro’zg’orni boshqarish), huquqiy (nikohni davlat yo’li bilan qayd

¹O’zbek tilining izohli lug’ati. 5 jildli. Uchinchi jild. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2007, 97 bet.

² Filofofiya lug’ati. Toshkent, “O’zbekiston” nashriyoti, 1973, 355 bet

etish), ma'naviy (er-xotin, ota-ona va bolalar) o'rtasidagi mehr-muhabbat tuyg'usi va boshqalar uning xilma-xil shakllari va ko'p qirrali vazifalari mavjud ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarning tabiatiga, jamiyat ma'naviyati va madaniy taraqqiyotining darajasiga bog'liq holda yuzaga kelgan.

Oila tarixiy-ijtimoiy hodisa sifatida kishilik jamiyatida qator vazifalarni bajarib, ham o'zi, ham jamiyatimizning takomillashuvini ta'minlab kelmoqda. Chunonchi, oilaning dastlabki va bosh vazifasi – demografik vazifadir. To'g'risini aytganda, oila nainki jinsiy aloqani tartibga solish, balki zaruriyatni davom ettirish ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy-biologik hodisa hisoblanadi. Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimda ham er-xotinning yaqinlashuvidan asl muddao farzand talab qilish ekanligi “Baqara” surasining 223-oyatida maxsus ta'kidlangan: “Xotinlaringiz zaroatgohlarimizdir. Bas, zaroatgohlaringizga xohlagan holatingizda yaqinlashavering va o'zingiz uchun yaxshi amallar taqdim qiling”¹.

Zero, farzand – er va xotin munosabatlarini, demakki, oilani mustahkamlovchi ilohiy ne'matdir. Qizlarni chiqarayotganda keksalarning “Iloyo etagingdan ko'paygin, uvali-juvali bo'lg'in” deya olqishlari ham shundan kelgan. Farzandning dunyoga kelish oilaningina quvonchi emas, rost, bunda oila a'zolari ko'payadi, ammo hammadan avval shu farzand mansub bo'lgan xalq, millat ko'payadi, jamiyat to'lishadi. Shu ma'noda oilada qancha bola bo'lish masalasi demografik siyosat asosini tashkil etadi. O'zbek xalqida qadimdan ayolmandlik sharaf sanalib kelingan. Chunonchi, “Avesto”da farzand ko'rgan ayolni alqash, uni har gal bola tuqqanida bir tuya bilan rag'batlantirish qonuniylashtirilgan. Aksincha, balog'atga yetib, qasddan turmush qurmayotgan qizni qopga solib 25 darra urish va yigitga tamg'a bosib, og'ir zanjirni beliga bog'lab yurishi bilan jazolash buyurilgan. Ushbu talablar izsiz ketmagan, xalqda ko'p farzandlikka rag'bat uyg'ongan. Natijada “o'nta bo'lsa – o'rni boshqa, qirqta bo'lsa - qilig'i” degan aqida o'zbek oilasidagi bolaparvarlik ruhiyatini shakllantirgan.

¹ Qur'oni Karim. –T.: “Cho'lpon”, 1992, 27-bet

Ammo, jahonda ayni zamonda kechayotgan demografik siyosat o'zbek oilasini ham befarq qoldirmayapti. Mustaqillik tufayli kun tartibiga qo'yilgan sog'lom avlod uchun kurash maqsadlari ishni sog'lom oiladan boshlashni taqozo qiladi. Bu hol oilani rejalashtirish masalasini keltirib chiqardi. Oilani rejalashtirish bola tug'ishni tartibga solishni anglatsada, bu bu masalada jahon demografik siyosatida ikki yo'nalish davom etib kelayotganligini ko'rsatadi.

Birinchi yo'nalish – oilani ixtiyoriy usulda rejalashtirish. Bunda qancha farzand ko'rish masalasini har bir oilanining o'zi hal qiladi. Iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda ayollarning ma'lumotlilik darajasi o'sib, ishlab chiqarishda bandliklari oshgan, tibbiy himoyalangan imkoniyatlari kengaygan vaziyatda bir yoki ikki farzand ko'rish bilan cheklanishi an'anaga aylanayotir. Bu ayniqsa, Yevropa mamlakatlarida tobora chuqurlashayapti.

Ikkinchi yshnalish – oilani siyosiy yo'l bilan davlat tomonidan rivojlantirish. Bunday demografik siyosat Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida XX asrning o'rtalaridan qo'llanila boshlandi. Sababi, bu davrga kelib, ushbu davlatlarda tug'ilish shiddatli tus olib, aholini oziq-ovqat, kiyim-bosh va ish bilan ta'minlash tashvishli muammo sifatida jiddiy tus ola bordi.

Xitoyda tug'ilishni oldini olishda boshqacha yo'l tutildi. Bunda, avvalo, oila qurish yosh erkaklar uchun 22-24 va qizlar uchun 20-22 yosh qilib belgilab, oila yoshi muddati birmuncha uzaytirildi. Talabalar uchun yoshidan qat'iy nazar o'qishni tugatmagunlaricha oila qurishlari man etildi.

Respublikamizda yurgio'layotgan demografik siyosatda hyech qanday ta'qiq ko'zda tutilayotgani yo'q. Aksincha, nechta bola ko'rish masalasi har bir oilaning ixtiyorida. Biroq, ona va bolaning sog'ligi muammosi bu siyosatning mag'zini tashkil qiladi.

“Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan, - degan edi Prezident Islom Karimov. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada

tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla – yurt mustahkam bo'lsagina davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi"¹.

Ochig'ini aytganda, oila ma'naviy-axloqiy o'ziga xos shakllanish tarixiga ega, u oila tarixi qadar qadimiy yo'lni bosib o'tgan. Bu yo'lni Abdulla Qodiriy Anvar tilidan Ra'noga oila qurish to'g'risidagi taklifni izhor qilish jarayonida shunday bayon etgan edi:

- Tug'ilgandan so'ng o'sish, o'sgandan so'ng ikkov-ikkov bo'lib yashash bor, - dedi Anvar va bir oz to'xtalib oldi. – Juftlik yolg'iz kishilar orasidagina emas, yer yuzidagi har bir maxluqda ham bor. ... Masalan, tog'larda ohular, o'rmonlarda to'tilar, chamandagi bulbullar ham yolg'iz emas, juft yashaydilar. Seningcha, men uni bilmaymen, ammo juftlanishning, eng muhim bir jihati bor. Kim, ul ham har ikki tarafning muhabbat zanjiri bilan bir-birlariga qattiq bog'lanishlaridir. Biz ikkov yoshlikdan birga yashab kelayapmiz, oramizda maxfiy sirlarimiz yo'q va bizning o'zaro sirlarimizga voqif bo'lgan chet kishilar ham yo'q! Shunga binoan sen bilan manim har to'g'risida ham ochiq so'zlashmaganimizga, hyech bir mone'lik bo'lmas deb o'ylayman... Agar yanglishmasam, ikkovimizning bir-birimizga muomalalarimiz samimiy, yuraklarimizning tepishi hamohangdir. Yoki yanglish so'zladimmi, Ra'no?²

Demak, juftlikning shunchalik mavjudligi oilani anglatavermaydi, balki unda juftlikni yuzaga keltirayotganlar orasida ikki tarafning birini teng ko'rishi, bir-biri bilan sevib-sevilgan bo'lishi, bir-birini hurmat qilish va kechira bilishi, o'zaro munosabatlardagi sirlarni maxfiy tuta bilish va e'zozlay olishlari, o'zaro rost so'zlab bir-birlarini aldamasliklari, ayashlari, g'amxo'rlik qilishlari, har qanday vaziyatlarda bir-birlariga suyana olishlari, ishonchlari bardoshlaridan iborat ma'naviy-axloqiy omilsiz oila mo'rt, omonat bo'ladi.

O'g'il bola ulg'aygach – yigit bo'ladi, yigit er tortib uylangach – xotiniga er, qaynona-qaynonasiga kuyov bo'ladi, farzand ko'rgach ota, nevaralar ko'rganda –

¹ Oila ma'naviyati. O.Safarov, M.Mahmudov. –T.: "Ma'naviyat", 2009, 248 bet

² Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. // Roman. –T.: O'zdavnashr. 1959, 96-97 betlar

bobo bo'lib, umr pillapoyalarini bosib o'tadi. Har bir o'g'il bo'z o'g'lon, qarchig'iy yigit, tadbirkor ota, hikmatli nuroniy buva bo'lib, umrguzaronlik qilmog'i – boqiylik saodatidir. Bunday saodatga erishmoq, albatta erkakning jismonan sog'lomligi, ma'nan fazlu kamol sohibi sifatida shakllanmoqligiga bog'liq. Xalqimiz bejizga bu jarayonni “Yigit degan er bo'lur, mehnat ko'rsat she'r bo'lur”, - deb ta'riflangan.

Ochig'ini aytganda yigitning er etishi tufayli yangi oilani bunyod etish tayyorgarligi ko'rila boshlanadi. Binobarin, bo'lajak kelin va kuyov uchun kiyim-kechak, ko'rpa-to'shak, uy-joy, ro'zg'or ashyolari, to'y xarji tayyorgarligi ko'riladi.

Qiz bo'y yetishi bilan uning yo'lini so'rovchi yigit bo'lmasa, oila unga havas bo'lib qolaveradi. Qizniki qiyin bitar, deyilishi shundan. Ammo, yigitning ham boshi ikki bo'lmaguncha moli ikki bo'lmas, boshni ikki qilish esa o'z-o'zidan bo'lavermaydi. Buning uchun jiddiy iqtisodiy tayyorgarlik ko'rib, so'ngra qiz tanlashga kirishiladi.

Ota-bobolarimiz “qiz bersang – otasiga qarab ber, qiz olsang – onasiga qarab ol”, - degan naqlga amal qilib, “Qiz bor – qirg'iz qiovoqli, qiz bor – qarchig'ay qanotli”larini tanlashgan. Tabiiyki, bunda qizning sog'lomligi, oqilona pokizaligi, pazandaligi, chevarligi va sohibjamolligiga alohida e'tibor qilingan. Bu jarayonlarning yigit tomonidan bajarilishi – oila saltanatida er uchun sultonlik mavqeyini belgilovchi ham iqtisodiy va ma'naviy omilga aylangan.

Ota uchun o'g'ildir, qizdir – bari-bir farzand, oila an'analarining, zurriyotning davomchisi. Ammo, o'g'ilga munosabat o'zgacha. Sababi, ota kasbi-korining davmochisi, chirog'ining yoquvchisi, merosxo'ri sanaladi. Qizning merosga huquqi ham o'g'ilninkiga nisbatan cheklangan. Hatto ba'zan oilada qiz tug'ilishi qay bir zamonlarda baxtsizlik sanalgan. Bu jarayonni hozir ham ba'zida qiz tug'ilganligini “Uyingizni o'g'ri bosibdi” qabilidagi ta'bir bilan ifodalanishda ko'rish mumkin. “Qiz saqlaguncha, bir qism tuz saqla”, “Qiz saqlading – o't saqlading”, “Qiz uyning cho'risi ham, o'g'risi ham”, “Qiz chiqargan uy masjidga

o'xshab qolar" kabi maqollarda ham o'z ifodasini topgan. Lekin, otaning vazifasi "qizga oltindan taxt emas, barmoqday baxt" bera olishda.

Aslida otaga mehribonlikda qizga yetari yo'q, uning husni qalbida. Uni halolu pokizalikka, xushxulqlikka, ozodalikka, sarishta-saranjomlikka, ro'zg'or tuta bilishga o'rgatish, ahvolidan xabardor bo'lib turish otalik burchi sanaladi.

O'rganilgan ma'lumotlarga ko'ra xotin tushunchasi uch muddaoning jamlanmasini anglatadi. Birinchisi erkakning orom-osoyishi, huzur-halovati, binobarin, hayotdan lazzatlanishi xotin tufayli. Bunda ayolning ko'rki jamoli, zeboligi, hayo va ibosi, samimiyligi, mehribonligi, g'amxo'rligi va g'amgusorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Va uni tanlashga e'tibor kuchli bo'ladi. O'tmishda bu yumushni ota-onalar bajarishgan bo'lsa, endilikda uni yoshlarning o'zlari hal qilayotir. Sevish va sevilish inson uchun ulug' sifat. U ikki qalbning bir-biriga rohatbaxsh talpinishi. Aflotun ta'riflaganidek, muhabbat eng yetuk e'tiqod bo'lib, har bir shaxs uchun ma'naviy poklanish jarayoni hisoblanadi.

Ikkinchi muddao – juftlashishga ma'naviy-biologik ehtiyoj zaruriyatga aylanib, qo'shiluv sodir bo'ladi. Shu alomat tufayli oilaviy totuvlik zamini mustahkamlanadi. Aksincha bo'lsa, jinsiy nomutanosiblik natijasida bepushtlik yuzaga keladi va ajralishlar sodir bo'ladi. Ana shunday ko'ngilsizliklarni oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasida "Oila kodeksi"da kelin-kuyovlarni to'y oldidan tibbiyot ko'rigidan o'tkazish va shu asosida tegishli xulosaga kelish ko'zda tutilgan. Hozirgi bu nazorat majburiy bo'lmay, ixtiyoriylik asosida belgilangan. Uning mohiyati anglana borilgan sayin jamiyat unga o'zini tayyorlab borishi tayin.

Uchinchi muddao esa – qo'shilmoq bo'lib, undan maqsad – nasl qoldirmoq, naslni davom ettirish evaziga sulola uzviyligini ta'minlashdan iborat. Vaqti kelib, qizi bo'y yetib turmushga uzatilayotganda esa, unga oilaviy hayot shart-sharoitlarini tushuntirib, baxtli hayot kechirish sharafiga muyassar bo'lishni uqtiradi. Shu o'rinda turk olimi Yusuf Tavoqliyning "Hikmatlar" kitobida onaning kelin bo'layotgan qiziga bergan nasihati e'tiborni tortadi:

- Qizim senga aytadigan o'n o'gitinga quloq sol. Bularni yodingda tut:

1. Qanoat sohibasi bo'l. O'z hamingga shukur qil. Ya'ni ering uyga nimaiki olib kelsa, u haq yeydigan, haq kiyadigan narsa bo'lsin, xushfe'llik va go'zal odob bilan qabul qilib ol. Zero, baxtli hayot kechirmoqning bir yo'li o'z holiga shukur etmoqlikdir, holiga shukur etmagan, o'z nafsini tiymagan kishida ko'ngil huzuri, qalb rohati bo'lmaydi.

2. Eringga itoat qil, qil degan ishlarini qil, qilma deganini qilma. Ya'ni, ering bilan suhbatlashganda, muloqotda bo'lganingda itoatli bo'lishingni, uning so'zlarini odob bilan tushunib oladigan bo'lsin. Shunda Alloh taolo sendan xushnud va uyingiz saodat porloq bo'ladi.

3. Eringning ko'zi tushadigan joylarga yaxshi e'tibor ber. Ya'ni uying ichini, tashqarisini nihoyatda toza tut. Shunday qilki, eringning ko'ziga biror chirkin yer ko'rinmasin.

4. Ust-boshingni toza tut. Ering faqat xush bo'yingni sezsing, dimog'iga yomon hid kelmasin. Chunki, yomon hidlar ering ko'z o'ngida sening obro'yingni tushiradi. Sendan ijirg'anishiga sabab bo'ladi. Shuni yaxshi bilgilki, tozalik va zariflik eng yaxshi narsalardir, inson ko'ziga xush ko'rinishlik shular bilandir.

5. Ovqatni vaqtida tayyorla, 'ni ovqatlanish vaqtini hyech qachon kechiktirma. Ering qachon ovqatlanishga o'rgangan bo'lsa, o'sha paytda ovqatini tayyorlagin. Shuni yaxshi bilginki, ochlik insonning jahlini tez keltiradi.

6. Uyqu vaqtini, uyg'onish paytini yaxshi bilib ol. Ya'ni uning qachon uyquga yotsh payti bo'lsa, o'rnini tayyorlab qo'y. Zero, uyqusizlik insonni xafaqon etadi. Asablarning buzilishi, hafaqonlik odamlarning ehtirosi, muhabbatini sekin-asta so'ndiradi.

7. Eringning moli va ashyosiga e'tiborli bo'l. Ya'ni, uning mol-dunyasini yaxshi saqla, ashyolarini avayla, muhofaza qil. Chunki, uning mol-dunyosi senikidir. Eringning mol-dunyasini isrof etmaslik ishni bilish va qadriga yetish demakdir.

8. Eringning qarindosh va yaqinlariga hurmat ko'rsat. Ya'ni, eringning qarindoshlari va yaqinlariga hurmat qilish – uning e'tiborini qozonmoq demakdir.

9. Eringning sirini boshqalarga aytma. Aytsang uning ishonchini yo'qotasan.

10. Eringning diniga to'g'ri keladigan barcha buyruqlarni ado qil.

Ammo bundan ona farzandlaridan yiroq ekan degan xulosa chiqarmaslik kerak. Zero, o'g'il farzand onaning kuch madori, kelajakdagi yorug' kunlarining charog'boni timsoli. Shuning uchun o'g'ilning to'g'ri va halol, mehnatkash va bunyodkor, jasur va matonatli, samimiy va dardkash bo'lib ulg'ayishi yo'lida alohida mehnat qiladi.

Bugungi kunda o'zida ana shunday fazilatlarni mujassamlashtirgan yigit-qizlarni tayyorlashga ehtiyoj sezilayotganligini hayot ko'rsatmoqda.

Talaba-yoshlarimiz shaxs, inson, mutaxassis sifatida shakllanib kelayotgan ekan ularni bugungi kun talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda oilaviy hayotga tayyorlash lozim.

Biz shu maqsadda 5110900 – pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishida 2011 o'quv yili uchun tasdiqlangan o'quv rejasidagi 3-blok kiruvchi umumkasbiy fanlarning talaba-yoshlarni hayotga tayyorlashdagi imkoniyatini o'rgandik.

1-jadval

№	Fanning nomi	Kursi	Ma'-ruza	Labora-toriya	Semi-nar	Mustaqil ta'lim	Jami	Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash imkoniyatlari
1.	Pedagogika nazariyasi	1	52		62	90	204	Bevosita
2.	Pedagogika tarixi	1	36		40	60	136	Qisman
3.	Ijtmoiy pedagogika	2	30	20	26	60	136	Bevosita
4.	Oila pedagogikasi	2	36		40	60	136	Bevosita
5.	Xalq pedagogikasi	3	36		40	60	136	Bevosita
6.	Qiyosiy pedagogika	3	36		40	60	136	Qisman
7.	Maktabgacha va korreksion pedagogika asoslari	3	36		40	60	136	Qisman

8.	Tarbiyaviy ishlar metodikasi	3	36		40	60	136	Qisman
9.	Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi	3	36		40	60	136	Qisman
10.	Pedagogik texnologiya	4	36		40	60	136	Qisman
11.	Pedagogik mahorat	4	36		40	60	136	Qisman

Shuningdek, ushbu yo'nalishda o'qitiladigan "Umumiy psixologiya", "Ijtimoiy psixologiya" kurslarida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun kisman imkoniyatlari bo'lsa, "Oila psixologiyasi" fani bevosita talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi imkoniyatlari yetarlidir. Ushbu fan mazkur yo'nalish 3-kursida talabalarga o'tiladi. Undan 36 soat ma'ruza, 10 soat amaliy, 30 soat seminar, 64 soat mustaqil ish jami 140 soat hajmda o'tiladi.

Shuningdek, 2011 yilgi o'quv rejasida ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishida 3-blok umumkasbiy fanlar jami 3624 soatni tashkil etadi, boshqacha aytganda o'quv yuklamasining 49,8 % ini tashkil qiladi. Ushbu ynlarning talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi imkoniyatlari quydagi jadvalda o'z ifodasini topgan.

2-jadval

№	Fanning nomi	Kursi	Ma'-ruza	Labora-toriya	Semi-nar	Mustaqil ta'lim	Jami	Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash imkoniyatlari
1.	Umumiy psixologiya	1	60		74	106	240	Bevosita
2.	Umumiy pedagogika	1	90	40	60	154	344	Bevosita

2011-yilgi o'quv rejasiga muvofiq 511800 – maktabgacha ta'lim yo'nalishida 3-blok umumkasbiy fanlarga 3632 soat ajralgan bo'lib, bu umumiy yuklamaning 49,8 foizini tashkil etadi. Mazkur fanlarning talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi imkoniyatlari quyidagicha o'z ifodasini topgan

3-jadval

№	Fanning nomi	Kursi	Ma'-ruza	Labora-toriya	Semi-nar	Mustaqil ta'lim	Jami	Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash imkoniyatlari
1.	Umumiy psixologiya	1	60		72	108	240	Qisman
2.	Umumiy pedagogika	2	100	40	70	108	278	Bevosita
3.	Maktabgacha pedagogika	1,2,3	112	80 amaliy	74	214	480	Bevosita
4.	Ijtimoiy pedagogika va oila psixologiyasi	3	40		56	76	172	Bevosita

2011 yilgi o'quv rejaga muvofiq 5210200-Psixologiya yo'nalishida 3-blok umumkasbiy fanlar blogida jami 3040 soat ajratilgan bo'lib, bu soat miqdori umumiy yuklamaning 41 foizini tashkil qiladi. Bu fanlarning talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi imkoniyatlari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

4-jadval

№	Fanning nomi	Kursi	Ma'ruza	Laboratoriya		Semi-nar	Mustaqil ish	Jami	Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi imkoniyatlari
1.	Umumiy psixologiya	1,2,3,4	170			248	274	3040	Qisman
2.	Eksperimental psixologiya va praktikum		60	190	54 amaliy		202	506	
3.	Psixologiya tarixi	4	36			52	59	147	
4.	Umumiy psixodiagnostika	2	46		48 amaliy	20	81	195	
5.	Psixologiya fenomenlari va uslubiyati	4	24			42	44	110	
6.	Sosial psixologiya	2	46		4 kurs ishi	68	81	195	Qisman
7.	Sosial psixologik trening	3	38		36 amaliy	20	63	158	
8.	Etnopsixologiya va din psixologiyasi	3	38			58	81	195	Bevosita
9.	Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya	3	46		20 amaliy	48	81	195	Qisman
10.	Oktogenez psixologiya va differensial psixologiya	2	46		20 amaliy	48	81	195	
11.	Pedagogik psixologiya va psixologiyani o'qitish metodikasi	3	46		20 amaliy	48	81	195	
12.	Tibbiyot	3	44		24	42	74	184	

	psixologiyasi psixoterapiya	va				amaliy				
13.	Mehnat muhandislik psixologiyasi	va	4	26			40	44	110	

“Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fani barcha ta’lim yo’nalishida tahsil olayotgan talabalarga o’qitiladi. Ushbu fanning kalendar tematik rejasi ko’zdan kechirilganda talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning imkoniyatlari va mavjud holatining quyidagi jadvalda bilish mumkin.

“Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanining talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi imkoniyatlari

5-jadval

№	Ma’ruza mavzulari	Ajratilgan soat	Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning imkoniyatlari
1.	O’zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim tizimi	2	
2.	Kadrlar tayyorlash milliy modeli. Hozirgi davrda o’qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o’rni.	2	
3.	Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari	2	Qisman
4.	Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi	2	Bevosita
5.	Ta’lim nazariyasi. Ta’lim mazmuni. Ta’lim tamoyillari va qonuniyatlari	2	
6.	Ta’lim shakllari. Dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli	2	
7.	Ta’lim metodlari va vositalari	2	
8.	Ta’limni tashxis etish	2	
9.	Tarbiya nazariyasi. Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya tamoyillari	2	Bevosita
10.	Bolalar jamoasining shaxs rivojlanishidagi o’rni. Tarbiya metodlari	2	Qisman
11.	O’quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash	2	Bevosita
12.	Ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirish. O’quvchilarni aqliy, iqtisodiy va ekologik tarbiyalash	2	Qisman
13.	Fuqarolik tarbiyasi. Mehnat tarbiyasi. Estetik va jismoniy tarbiya	2	Bevosita
14.	Oila tarbiyasi asoslari	2	Bevosita
15.	Ta’lim muassasasi menejmenti	2	
16.	Korreksion (maxsus) pedagogika	2	
17.	Pedagogika tarixi fan va o’quv predmeti sifatida	2	Qisman

18.	VII-XIV asrning birinchi yarmida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar taraqqiyoti	2	Bevosita
19.	XIV-XVI asrlarda maktab va pedagogik fikrlar	2	Qisman
20.	XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar	2	
21.	XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida tarbiya va pedagogik fikrlar	2	
22.	1917-1990 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi. Istiqloq yillarida pedagogik fikrlar taraqqiyoti	2	Qisman

Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda 12 soat bevosita, 14 soat qisman mavjud mavzulardan foydalanishning imkoniyatlari mavjud ekan.

5141600 – Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish, 5111800-maktabgacha ta'lim yo'nalishlarida (2008 yili o'quv rejasi asosida) saboq olayotgan talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanining imkoniyatlari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

“Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarining kalendar-tematik rejasi

6-jadval

№	Ma'ruza mavzulari	Ajratilgan soat	Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning imkoniyatlari
1.	Pedagogika fanining predmeti	2	Qisman
2.	Asosiy pedagogik tushunchalar	2	
3.	Pedagogika fanlar tizimi	2	Qisman
4.	O'quvchi shaxsining rivojlanishi va tarbiya	2	Qisman
5.	O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi va turlari	2	
6.	O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'рни	2	
7.	Didaktika. Didaktikaning predmeti va vazifalari	2	
8.	Ta'lim jarayonining mohiyati	2	
9.	Ta'lim mazmuni	2	Qisman
10.	Ta'lim qoidalari va ta'lim metodlari	2	
11.	Ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari	2	
12.	O'quvchilar bilimni tekshirish va baholash	2	
13.	Ta'lim jarayonining mohiyati va qoidalari, qonuniyatlari	2	Bevosita
14.	O'quvchilar jamoasini shakllantirish	2	
15.	Tarbiya metodlari	2	Qisman, Bevosita
16.	O'quvchilarni aqliy va axloqiy tarbiyalash	2	Bevosita
17.	Mehnat va iqtisodiy tarbiya	2	Bevosita

18.	Estetik va jismoniy tarbiya	2	Bevosita
19.	Ekologik va huquqiy tarbiya	2	Bevosita
20.	Ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarish	2	
21.	Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar	2	Qisman
22.	XII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikr taraqqiyoti	2	Qisman
23.	XIV-XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar	2	Qisman
24.	XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar	2	
25.	19107-1990 yillarda O'zbekistonda maktab va pedagogika fani	2	
26.	Jahon pedagogika fani rivojlanish tarixining bayoni	2	
27.	Rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi	2	
28.	Pedagogik mahoratning o'qituvchi faoliyatidagi o'рни	2	
29.	Sharq mutafakkirlari va mashhur pedagoglar o'qituvchi mahorati haqida	2	
30.	Pedagogik texnika	2	
31.	Nutq texnikasi va madaniyati	2	
32.	Pedagogik muloqot	2	
33.	O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini boshqaruvchi rejissyor va aktyor sifatida	2	
Jami:		70 soat	

Shuningdek, ushbu fandan 42 soat seminar, 40 soat laboratoriya mashg'ulotlari uchun vaqt ajratilgan. Agar ma'ruza, seminar, laboratoriya mashg'ulotlardagi imkoniyatlari e'tiborga olinsa salkam 50 soat davomida talaba-yoshlarni oilaga tayyorlash bilan bog'liq imkoniyatlar borligiga amin bo'lamiz. Albatta, ushbu imkoniyatlardan qay darajada foydalanish o'qituvchining bilimiga, mahoratiga, tajribasiga, harakatchanligiga bog'liq bo'ladi.

Biz talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning bugungi holatini aniqlash maqsadida 3-kurs talaba-yigitlariga so'rovnoma tarqatdik (1-ilova).

Ushbu so'rovnoma davomida "Oila to'g'risida nimalarni bilasiz?", "O'zingizni oila qurishga tayyor deb hisoblaysizmi?", "Sizningcha o'qishni bitirib oila qurish ma'qulmi yoki o'qish davridami?", "Oliygo'nda o'qitilayotgan qaysi fanlar ko'proq yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga xizmat qiladi?", "Balog'at ostonasida turgan yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun nima ishlar qilish

kerak deb o'ylaysiz?", "Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq qanday ko'rsatuv, eshittirish, maqolalardan xabardormisiz?" kabi savollar berildi. Talabalar og'zaki suhbatlar o'tkazildi, talabalar oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasi tekshirildi. So'rovnomadagi savollarga guruhdan 7 nafar o'g'il bolaning 1 nafari oilali ekanligi, 2 nafari oila qurishga tayyor ekanligini, 4 nafari oila qurishga tayyor emasligini ko'rsatgan. Sabablarini turlicha ko'rsatgan. Jumladan, moddiy holat bilan, o'qish davrida dars jarayonlariga xalal berish kabi jihatlarni aytib o'tgan.

3-kurs maktabgacha ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan 3-kurs talaba-qizlariga quyidagi anketa savollarini tarqatdik va tegishli javoblarni oldik. Mazkur anketaga quyidagi savollar kiritilgandi: "Oila qurganmisiz?", "Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda kimlarni ko'proq mas'ul deb hisoblaysiz?", "Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda mahallada qilinadigan qanday urf-odatlarini bilasiz?", "Bugungi kunda oila qurayotgan qizlarning oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasi qanday deb o'ylaysiz?", "Oila mustahkamligining siri nimada?" kabi savollar berildi. Guruhdagi 19 nafar qizning berilgan savollarga javoblar turlicha bo'ldi. Masalan, "Oila qurganmisiz?" savoliga 13 nafar qiz "yo'q" 6 nafari "ha" javobini berishdi. Anketadagi "Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda mahallada qilinadigan qanday urf-odatlarini bilasiz?" – degan savolga qizlarning aksariyati – mahallada o'tkaziladigan turli oila mavzusidagi suhbatlar, qizlarni erta turmushga bermaslik, oilaviy nizolarni oldini olish, xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarni bilaman degan javoblarni berishgan.

II BOB. TALABA-YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI

2.1 Ta'lim jarayonida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni va mohiyati

Oila hayotning abadiyligini ta'minlaydi, vorislar ota-ona boshlagan ishni davom etishini amalga oshiruvchi muqaddas dargoh. Bu muqaddas dargoh millatning urf-odatlarini saqlashga ko'maklashadi. Shuningdek, oila kelajakda farzandlar qanday inson bo'lb yetishishiga ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov oilaning jamiyatdagi o'rniga baho berib shunday degan edi: "Oila – jamiyatning negizi. Bizning davlatimiz ham katta bir oila deb tushunish mumin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari va burchlarini ado etmasa bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib yashashi mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajadagi ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir"¹.

Oilaning muqaddasligi, mustahkamligi ko'p jihatdan balog'at ostonasida turgan yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq. Jumladan, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ta'lim jarayonining o'rnini katta. Ta'lim berish murakkab va mas'uliyatli ish. Ta'lim birinchidan o'qitish, ikkinchidan o'qish, uni nazorat qilish hamda tuzatish tadbirlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishlarni ancha tezlashtiradi. O'qituvchi ta'lim

¹ Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: "O'zbekiston", 1993, 47 b.

jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, bu jarayonda u ta'lim oluvchiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa bilim olishni yanada faollashtiradi. Natijada ta'lim oluvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi. Inson tevarak-atrofdagi voqyelik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to'qnash kelish yo'li bilan bilib oladi, ularni o'zlashtiradi. Inson amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyat jarayonini tashkil etuvchi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirini o'zlashtirib oladi.

Narsalar, buyumlar bilan amaliy muomalada bo'lish natijasida buyumlar sezgi organlariga ta'sir qiladi, sezgilar idrokni keltirib chiqaradi. Amaliyotda insonning faol fikrlash faoliyati yuzaga keladi. Fikrlash orqali u real voqyelikni chuqur tushunib boradi.

Ta'limni tashkil etishning shakllari ma'lum ijtimoiy tuzum va tuzumning manfaatlariga mos holda shakllangan. Bizga ma'lumki, buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy (1592-1670) tarixda birinchi bo'lib sinf-dars tizimini yaratdi. Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar (talabalar) guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotiga aytiladi. Dars – o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir va o'quv ishlarining markaziy qismi hisoblanadi. O'tgan davr mobaynida ta'limni tashkil etish shakllari o'zgardi, rivojlandi.

Hozirgi zamon didaktikasi ko'p yillar davomida to'plangan o'qitish qoidalari, fan yutuqlari va ilg'or tajribalar asosida boyib bormoqda. Ammo, o'quv jarayonining hamma qismlarini o'qitishni tashkil qilishning mazmuni, usullari, vositalari va shakllari bilan munosabatlari yaxshi ochib berilmagan. Bu esa didaktik qoidalardan amalda foydalanishni qiyinlashtiradi. Ta'lim jarayoni oldida turgan yangi vazifalar va ehtiyojlar o'quvchi (talaba) larga beriladigan ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, yanada rivojlantirish va yuqori bosqichga ko'tarishni talab qiladi. Dars – o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. O'quv amaliyoti va pedagog tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Bu sohada turli

xil ko'rik-tanlovlar respublika miqyosida o'tkazilayotgan pedagogiko'rta qo'yilayotgan ilg'or o'qituvchilarning fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir. tegishli fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilmog'i kerak;
2. Har bir dars mutahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'lmog'i lozim;
3. Har bir dars xilma-xil usul va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilishi kerak;
4. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan numli foydalanmoq lozim;
5. Har bir dars turmush bilan bog'langan bo'lmog'i zarur;
6. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchi (talaba)larning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim;
7. Dars o'quv materiallarining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterdan foydalanish imkoniyatini yaratmoq kerak;
8. Har bir dars mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanmoq imkoniyatini izlamoq lozim.

Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Tajribali o'qituvchilar darsning har bir daqiqasidan oqilona foydalanadi. Uning tashkiliy jihatlarini to'g'ri uyushtiradilar. Dars jarayonida o'qituvchining oldida ikki vazifa turadi. Ya'ni – butun sinf o'quvchilar diqqatini o'ziga jalb qilish va butun sinf o'quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash vazifalari turadi. Dars yangi materialni bayon qilishga qaratilgan bo'lsa, dars mavzusi aytiladi. Dars rejada mo'ljallangan materialni o'tib bo'lingach, ualbatta yakunlashi, xulosalar chiqarilishi kerak. Darsni tashkil etish va olib borishdan bosh maqsad – ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashdir.

Buning uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

1. O'tilayotgan mavzudan ko'zlangan maqsadni uqtirish bilan bir vaqtda, o'quvchilar materialni faol idrok qilishga safarbar etilgan bo'lishlari kerak. Aniqrog'i, o'qituvchi bayon qilayotgan materiallar o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, ongli o'zlashtirishga intilishlarni ta'minlamog'i lozim.

2. Ajratilgan vaqt ichida o'qituvchi materiallarni tizimli va izchil bayon qilish bilan bir vaqtda, o'quvchilarni ham mavzuga oid mustaqil ish olib borishlarini ta'minlash juda muhimdir.

O'qituvchi dars materiallarini bayon qilish jaranida o'quvchilarga muammoli vaziyat tug'diradigan savollar bersin va o'quvchilar axtarish, fikrlash va izlanishlar yo'li bilan bayon qilinayotgan materiallarni puxta o'zlashtirib oladigan bo'lsinlar.

3. Endilikda darsda uzoqdan-uzoq vaqt sarflab o'quvchilarning bilimini aniqlash va baholash, bilimlarni bayon qilish va mustahkamlashda o'quvchilar ishtirokini cheklab qo'yish kabi hollarga barham berilmoqda. Bilimlarni bayon qilish jarayonida o'quvchilar faolligi ishga solinmog'i lozim. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning oldindan o'zlashtirgan bilimlarni ham ishga tushirishga xizmat qiladi va to'g'ri baholash uchun katta imkoniyat tug'diradi.

4. O'quvchilarning mustaqil mantiqiy fikr qilishlari, qunt, irodalarini tarbiyalash hamda, nuqt madaniyatini rivojlantirish, tegishli ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda mustaqil ishning ahamiyati hamisha diqqat markazda bo'lishi, dars jarayonini shu maqsadga muvofiq qurish nazarda tutilmog'i lozim.

5. Dars jarayonida o'tilayotgan o'quv materiallarining boshqa fanlarning aloqador mavzular bilan bog'lanishini ko'rsatish ham muhim ahamiyatga molikdir.

Seminar mashg'ulotlar o'quvchilar (talabalar) ning mavzudagi muhim masalalarni chuqur o'rganish yuzasidan mustaqil ishlashni, keyinchalik ularni jamoa bo'lib muhokama qilishni tashkil etish shaklidir. Mavzu o'rganguncha o'qituvchi o'quvchilar uchun savol va topshiriqlar tuzib chiqadi. Kirish mashg'ulotida u o'quvchilarni materialning mazmuni, qilinadigan ishning xarakteri bilan qisqacha tanishtiradi, ularga ham qaysi seminar uchun topshiriq beradi va

tayyorgarlik uchun tegishli adabiyotlarni ko'rsatadi. Seminarlarga ma'lum darajada tayyorgarlik ko'riladi. O'quvchilar adabiyotlarni o'rganadilar, material to'playdilar, kuzatishlar o'tkazadi, o'z axborotlari yuzasidan tezislar tuzadilar. Seminarlar o'qish vaqtida o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotlar miqdori mavzuning mazmuniga va uni o'rganish uchun ajratilgan vaqtga bog'liq. O'quvchilar mashg'ulotlar jarayonida axborot beradilar, ularga turli xil namoyish etiladigan narsalarni ilova qiladilar. Masalani muhokama qilishda hamma o'quvchilar ishtirok etishadi. Seminarga puxta tayyorlanish uchun o'qituvchi ayni bir vazifani hammaga yoki bir necha o'quvchiga berishi, ma'ruzani esa mashg'ulot bog'lanishida tayinlashi mumkin. Seminar mashg'uloti bevosita o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladi, u o'quvchilar ishini yo'naltirib turadilar, zarur qo'shimcha tuzatishlar kiritishadi, materiallarni sistemaga soladi. Ma'ruza qilgan, muhokamada qatnashgan o'quvchilarga baho qo'yiladi.

Mazkur usulning afzalligi o'quvchilar e'tiborini darsga jalb etish bilan ularning qiziqishini orttirish, o'z ustida mustaqil ishlashga, fikrlashga o'rgatish, darsni faollashtirish va o'quvchilar qobiliyatini o'stirishdir.

Amaliy mashg'ulotlar – maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba ustaxonasida, shuningdek, ta'lim jarayoniga aloqador ma'lum obyektiv kuzatish, o'rganish yo'li bilan olib boriladigan mashg'ulotdir. Bu mashg'ulot turida har qaysi o'quvchining o'ziga xos ishlatish, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni ko'zda tutadi.

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda bevosita ta'lim jarayonining o'rni beqiyos. Dars mashg'ulotlarida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik jihatlari amalga oshiriladi. Bundan oldingi bob va fasllarda ta'kidlab o'tilganidek, pedagogik turkum fanlardan "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti", "Pedagogika tarixi", "Xalq pedagoikasi", "Oila pedagogikasi" hamda "Oila psixologiyasi", "Oilashunoslik" fanlarining o'rni kattadir.

Yosh oilada muammolarning va nizolarning bo'lmisligi eng avvalo yoshlarning oilaviy hayotga qanchalik psixologik jihatdan tayyorgarligiga bog'liq. Oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyor bo'lish – integral kategoriya bo'lib, uning turli jabhalari mavjud. Inson o'zini oila qurishga tayyorman deyishi uchun unda quyidagi sifatlar bo'lishi lozim:

1. Avvalo insonda muayyan **axloqiy fazilatlar** bo'lmog'i darkor, ya'ni oila quraman, turmushga chiqaman deyish, shaxsning bo'lg'usi turmush o'rtog'i, bo'lajak farzandlari, yangi qarindosh-urug'lari oldida yangi, ilgari tajribasidan bo'lmagan mas'uliyatlarni bo'yniga olishni taqozo etadi. Ushbu mas'uliyatlar va ulardan kelib chiqadigan majburiyatlar hayotda yangi rollarni bajarishga hozirlikni nazarda tutadi, ya'ni nikoh uyi ostonasida “kelin” yoki “kuyov” rolida turgan yoshlar endi “rafiqa”, “er”, “ona”, “ota” kabi yangi rollarning mas'uliyatini his etishi shart.

2. **Shaxslararo munosabatlarga, hamkorlik qilishga** ruhan tayyorgarlik ham o'ta muhim. Chunki, oilaviy hayotda malga oshiriladigan ko'plab vazifalar va mas'uliyatlar orasida yangi rollarni bajarish borasidagi hamkorlik qilishga ruhiy tayyorgarlik o'zgacha madaniyatni va aqliy salohiyatni talab etadi. Chunki, oila – bu o'ziga xos kichik guruh bo'lib, undagi o'zaro muomala va munosabatlarning uyg'unligi oilaviy baxtning muhim kalitidir.

3. Turmush o'rtog'ining his-kechinmalariga o'rtoq bo'lish, ularni xuddi o'zinikiday his qilib, psixologiyada **empatiya hissi** deb ataladi. Psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyorgarlik tayyorgarlik avvalo ana shunday o'zgalarni tushunish, uning o'rniga o'zini qo'ya olish, qalbiga yo'l topishni taqozo etadi. Shu ma'noda nikoh shunday psixoterapevtik xususiyatga egaki, u ikki sevishgan qalblarni bir-biriga yaqinlashtiribgina qolmay, ularni bir-birining dardu-hasrati, quvonchu shodligi bilan hamohang yashashga o'rgatadi. Shu sababli nikoh salomatlikni saqlovchi va inson umrini uzaytirovchi omil sifatida e'tirof etiladi.

4. Nikohga kirish uchun inson estetik jihatdan o'zini yuksak madaniyat sohibi sifatida tasavvur eta olishi lozim. O'zbekiston sharoitida yigitni ham, qizni ham

nikohgacha va nikohdan so'ng yaqin qarindoshlar, mahalladoshlar, do'st-yorlar qurshaydiki, ular oldida va o'zaro qallig'larining o'zlarida yuksak insoniy madaniyat, dil va xulq-atvorda ibratli bo'lish muhim. Shu bois ham yosh kelin-kuyovlarda estetik did va madaniyat shakllangan bo'lishi kerak.

5. Oila tekis va ravon yo'l emas, unda ba'zi nizoli vaziyatlar ham bo'lishi tabiiy: qarashlarda, fikrlashda, xatti-harakatlarda nomutanosibliklar ham bo'lishi mumkin, ana shunday nizoli ziddiyatli vaziyatlardan **konsturktiv** tarzda chiqib keta olishga ham tayyor bo'lishlar lozim. Oilaviy munosabatlardagi ana shunday zigizaklar yoki "qirrali vaziyatlar" er va xotinni yanada bir-birining xarakterini yaxshi bilib olishlari uchun imkoniyat ham hisoblanadi.

- Xo'sh, yuqoridagi sifatlarga egamisiz? Albatta, muayyan ma'noda egasiz. Chunki, biz ilk yoshligimizdan o'z ota-onamiz oilasida ko'rgan-kechirganlarimiz shunday tajriba maktabini, unda xohlasak-xohlamasak, yurish-turish, muomala, o'zini tiyish, sabr-qanoatli bo'lish, mehnat qilish, uy yumushlarini bilish kabilarni o'zlashtirgan bo'lamiz.

Qizlar onalari bag'rida, buvilari ta'sirida bunday tajribani egallasalar, yigitlar ham o'z navbatida oilaviy hayotning past-balandini kundalik yumushlarni bajarish, onaga yordam, otaga ehtirom ko'rsatish orqali egallaydi. Ayniqsa, axloqiy va etik nuqtai nazardan baholangandagi yetuklik shaxsda quyidagi fazilatlarining mavjudligini nazarda tutadi: qarama-qarshi jins vakiliga nisbatan xayrixohlik, ota-onaga, katta va kichikka nisbatan hurmat, farzand tarbiyalashni xohlash hissining borligi, mas'uliyat, sadoqat, bosiqlik, mehribonlik, yon bosish, turmush o'rtog'i oldida mas'uliyatni his etish, intim munosabatlarida ichki madaniyatning mavjudligi kabi.

Bundan tashqari, yoshlarda nikohga kirishgacha va undan keyin yangicha huquqiy munosabatlarga kirishadilarki, bu insondagi huquqiy madaniyat va yetuklikni tashkil etadi. Demak, kelin-kuyovlar avvalo oila va nikoh borasidagi mavjud qonunlarni bilish, oila qonunchiligidagi eng muhim normalarga ongli

munosabat tufayli turmush o'rtog'i, farzandlari, jamiyat oldidagi huquq va majburiyatni his etishi va ularga itoat etishlari kerak.

Talaba-yoshlarni “Xalq pedagogikasi”, “Oila pedagogikasi”, “Oila psixologiyasi”, “Oilashunoslik0” kabi fanlar orqali oilaviy hayotga tayyorlash imkoniyatlari yetarli bo'lsa, “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti”, “Pedagogika tarixi” kurslarining imkoniyatlaridan dars jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq. Albatta, bu jarayon o'qituvchidan chuqur bilim, yetarli tajriba, izlanish va harakatchanlikni, tashkilotchilikni talab qiladi.

**“Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanidan talaba-yoshlarni
oilaviy hayotga tayyorlashda foydalanish**

7-jadval

№	Ma'ruza mavzulari	Ajratilgan soat	Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda foydalanish
1.	Pedagogika fanining predmeti	2	Pedagogika fani yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyani mazmuni va umumiy qadriyatlarini o'rgatadi. Pedagogika fanidan xabardor kishilar balog'at yoshidagi farzandlarini oilaviy hayotga ham yaxshi tarbiyalaydilar.
2.	Asosiy pedagogik tushunchalar	2	
3.	Pedagogika fanlar tizimi	2	
4.	O'quvchi shaxsini rivojlanishi va tarbiya	2	
5.	O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi va turlari	2	
6.	O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'рни	2	
7.	Didaktika. Didaktikaning predmeti va vazifalari	2	
8.	Ta'lim jarayonining mohiyati	2	
9.	Ta'lim mazmuni	2	
10.	Ta'lim qoidalari va ta'lim metodlari	2	
11.	Ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari	2	
12.	Tarbiya jarayonining mohiyati va qoidalari, qonuniyatlari	2	
13.	Tarbiya jarayonining mohiyati va qoidalari, qonuniyatlari	2	
14.	O'quvchilar jamoasini shakllantirish	2	
15.	Tarbiya metodlari	2	
16.	O'quvchilarni aqliy va axloqiy tarbiyalash	2	Aqliy tarbiya barkamol inson tarbiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Balog'at

			ostonasida turgan talaba-yoshlar aqlini soʻtirish uchun birinchi oʻrinda ilm olishga daʼvat etishdir. aqliy tarbiya orqali yoshlarda fikrlash, his qilish, tasavvur, xayol va xotira qobiliyatlarini oʻstirish, ichki maʼnaviy dunyosini boyitish mumkin. Aniqrogʻi, aqliy tarbiya yosh avlodni mehnat qilish qobiliyatlarini oʻstiradi va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Axloqiy tarbiya-yoshlarni oilaga, mehnatga va jamiyatga boʻlgan munosabatlarida namoyon boʻladi. Axloq-kishining xulq-atvorida, imon-eʼtiqodida, yurish-turishida, kundalik turmushida, fikr-mulohazasida, mushohada va muloqotida koʻrinadi. Axloqli insonda ichki intizom kuchli boʻladi. Koʻngilga qarab gapiradi, kishi dilini ogʻritmaydi, tashqi muomalasi bilan uning qalbini ilitadi, muloqot odobiga rioya qiladi.
17.	Mehnat va iqtisodiy tarbiya	2	Mehnat tarbiyasi inson kamolotining asosi, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnatsiz kelgan boylik har qanday kishini, har qanday oilani buzadi, muqaddas narsalarni qadrsizlantiradi. Mehnat muhtojlikdan, bekorchilikdan, yurak siqilishidan, axloqiy buzilishlardan saqlaydi. Mehnat orqali inson oʻz qadrini biladi. Ota-bobolarimiz bolalarni mehnatga oʻrgatishga, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida eʼtibor berishgan. Yurtboshimiz aytganidek, hayotga qadam qoʻyib kelayotgan yoshlarning ongiga har bir maqsadga sobitqadamlik, gʻayrat-shijoat, mehnatsevarlik bilan erishish mumkinligini singdirish lozim, degan edilar. Bu uchun ota-ona, ustoz va murabbiylar, keng jamoatchilikni jalb etish zarur. Oʻquvchilarning qiziqishlari va imkoniyatlariga qarab, toʻgaraklarga jalb etish orqali hayotga tayyorlashlari muhimdir. “Avesto”da taʼkidlanishicha ajdodlarimiz orzusi hayotda farovon turmush kechirish uchun mehnat qilishga layoqatli boʻlgan har bir odam, biror hunar bilan, xususan, chorvachilik, dehqonchilik bilan hosil undirishi, hunarmandchilik bilan shugʻullanishi, chorvani parvarishlashi lozim boʻlgan. Bolalar yosh paytidanoq daraxt koʻchati oʻtqazishi, uy-roʻzgʻor qurollarini yasashi, yerga ishlov berishi va chorva bilan shugʻullanishga oʻrgatilishi shart boʻlgan. Zero, oʻz mehnati bilan kun kechirish hayot farovonligini taʼminlaydi. Oqsoqollar yigʻinlarida hunarmandchilik, dehqonchilik, bogʻdorchilik, chorvachilik bilan shugʻullanuvchi qavmlarning yigitlarni muttasil jamoa koʻrigidan oʻtkazib turishi

			qo'llanilgan. Otashkadalar-ibodatxonalar qoshidagi ustaxonalar, vaqf yerlari, darmongoh-sihatgohlar, dorixonalar yoshlar bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladigan maskanlar vazifasini o'tagan. Bozor iqtisodiyoti davrida yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash muhimdir. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi qobiliyatlarni tarkib toptiradi. Forobiy bobomiz "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarida, inson o'z mablag'ini to'g'ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish, xassislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish insonni beboshlikka yetaklaydi. Bolaga iqtisodiy tarbiya berish oiladan boshlanadi. Ibn Sino bobomiz bu haqda to'xtalib, oila a'zolari kundalik oziq-ovqatlari uchun yetarli mahsulotlarni oldindan tejamkorlik bilan sarf qiladi. Har bir kishi bug'doy, guruch, mevalarni saqlash yo'llarini bilishi kerak. Ota-ona uvol qilish gunohligini farzandlariga yoshligidan nasifat yo'li bilan o'rgatadi. Ibn Sino bolalarni hayotga tayyorlash uchun ularga hunar o'rgatish kerak deb ko'rsatadi. Hunar kelajakda ro'zg'or tebratish uchun asqotadi. Hunar egallash yoshlarni mustaqilikka o'rgatadi. Ularda ishbilarmonlik, tashabbuskorlik xususiyatlari shakllanadi. Ota-onalar hovli va xonadonlarni tartibga solish, ovqat pishirish, kir yuvish, kiyim-kechakni yamash, uydagi jihozlarni ta'mirlay olish sohasida bolalar mehnatini tashkil etadilar.
18.	Estetik va jismoniy tarbiya	2	Estetik tarbiya – shaxsni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni ideal nuqtai-nazardan idrok etishga o'rgatadi. O'quvchilarda go'zallik haqidagi bilimlar hayot voqyeli, buyumlar, ularning rang-barangligi turlarini hamda san'at asarlarini estetik o'zlashtirish jarayonida tarkib topadi. Oila – go'zallikning birinchi maktabi. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, uying jihozlari, ularning uyg'unligi, tartibli joylashtirilishi, saranjom-sarishtalik bolalar estetikasiga ta'sir ko'rsatadi. Turmush estetikasining asosini tozalik va tartiblilik tashkil qiladi. Estetik tarbiya berishda ashula, musiqa hamda badiiy adabiyotning o'rni beqiyosligini farzandlarimizga oiladan boshlab singdirish lozim. Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi o'quvchilarning sog'lom o'sishini ta'minlash, ularda aqliy va jismoniy mehnatga, Vatan

			mudofaasiga tayyorlashdir. Ibn Sino inson fazilatlaridan – jasurlik, chidamlilik, aqllilik, ziyraklikka alohida e’tibor bergan. Avloniy bobomiz – sog’lom fikr, yaxshi axloq ilm-ma’rifatga ega bo’lish uchun badanni tarbiya qilish zarur, deb aytgan. Taniqli pedagog Amonashvili pedagogik tajribasida aqliy faoliyatlarni rag’batlantirish maqsadida jismoniy ta’sir ko’rsatishdan tez-tez foydalangan. Masalan, bolalarni boshini silash, qo’lni bolalar yelkasiga ohista qo’yish orqali ularni ruhlantirish, partadagi bolalar yoniga o’tirib hamkorlik bildirish orqali ta’sir ko’rsatish vositasida tarbiyalash samaradorligiga erishadi. O’smir yigitlarni hayotga tayyorlash hozirgi davrda emas, balki qadimdan dolzarb masala hisoblangan. Bobolarimiz ayniqsa, o’g’il bolalar tarbiyasiga katta e’tibor bergan. Chunki, u kelajakda Vatan himoyachisi, oila boshlig’i hisoblangan. Ota-onalar o’g’illarini har xil mashqlar bilan jismonan chiniqtirish, hunar o’rgatishga va o’z ota kasbini egallashga o’rgatib bergan. Qadimda o’g’il bolalarga mustaqil hayotga yo’llanma berish uchun tanlovlar o’tkazilgan. Undan o’ta olgan yigitgina oila qurishga haqli bo’lgan. Jismoniy sog’lom yigit-qizlardan kelajakda sog’lom farzandlar tug’iladi. Sog’lom farzandlar millatning, davlatning, jamiyatning bebaho boyligidir.
19.	Ekologik va huquqiy tarbiya	2	Ekologiya – yunoncha so’z bo’lib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va tevarakatrofdagi muhit bilan o’zaro munosabatlarini hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o’rganadigan fan. Ekologiya atamasi 1866 yil nemis olimi E.Gekkel tomonidan fanga kiritilgan. Atrof-muhitga, tabiat boyliklariga e’tiborsiz bo’lish butun sayyoraga jiddiy zarar yetkazish mumkinligi ochiq bo’lib qoldi. O’quvchi-yoshlarda ekologik madaniyatni tarkib toptirish, ularga tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo’lishni o’rgatish pedagogikasining dolzarb vazifasidir. Ekologik tarbiya – insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ajdodlarimiz bolalarni yoshligidanoq atrof-muhitga, obodonlashtirish va ko’kalamzorlashtirishga hurmat ruhini singdirgan. Bu borada dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlardan, to’garak mashg’ulotlaridan oqilona foydalanish lozim. O’zbekiston – mustaqil, demokratik huquqiy davlat. Respublikamizda insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, ijtimoiy

			ahvoli, siyosiy e'tiqodidan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir. O'quvchi-yoshlarga huquqiy tarbiya berishda ularning yuksak fuqarolik his-tuyg'ularini, sifat va xislatlarini tarkib toptirishda ta'lim-tarbiya birligi muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda qomusimizni bilish va unga amal qilish, Davlatimiz ramzlarini bilish va ularni hurmat qilishni ruhiyatiga singdirishimiz lozim. O'zbekiston fuqarosi o'z Vatanini sevishi, xalqiga cheksiz sadoqatli bo'lish, Respublikamizning qonun va qoidalarini bilimi va chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lishi shart. O'quvchi va talabalarda ana shu his-tuyg'ularni tarbiyalash o'qituvchining muqaddas vazifasidir.
20.	Ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarish	2	
21.	Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar	2	“Avesto”da o'g'il bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash to'g'risidagi fikrlar ilgari surilgan. unda o'g'il bolalar ta'lim tizimida “muqaddas kuylak” udumini bajarish marosimida ustoz bilan quyoshga qarab sajda qilishgan. Maqsad bolalar qalbiga yoshligidan dunyodagi barcha yaxshilik va ezguliklarning bunyodkorlik, Oliy Axura-Mazdaga e'tiqodni mustahkamlash, insonlar boshiga jamiki yomonliklarni va yovuzliklarni soluvchi Axrimandan nafratlanish hissini tarbiyalashdan iborat bo'lgan. Zardusht esa “muallim-kohinlarning burchlari bolalarni ilmlarning yaxshilik yo'sini ila o'rgatib, yaxshi bilan yomonni ajrata oladigan qilish to'g'ri yo'lga hidoyat etishdir”, - deydi. Yoshlarni mustaqil hayotga shakllantirishning masalalari ilk maktablarda ham amalga oshirilgan. Masalan, qadimiy Xorazmdagi “Kaltaminor maktabida har kechki paytda otalar o'zlarining o'g'il bolalarini zardushtlar maktabi “olovxonaga” erlar uyiga yoki “yoshlar uyiga” olib kelib, yonib turgan olov atrofida o'tirib, ularga “Avesto”dagi hikmatli so'zlarni tanishtirgan, mustaqil hayot kechirish uchun zarur nasifatlar o'rgatgan. “Avesto”da olg'a surilgan jismoniy va mehnatsevarlik tarbiyasida nazarda tutilgan asosiy maqsad bolalarni jangavor harbiy ishga va mehnatsevarlikka tayyorlashdan iborat bo'lgan. O'g'li bolalarga kurash tushish, otga suvliq solish, uni egarlash, mol boqish, urchitish va tug'dirish, tuya va otlarni parvarishlash, ularni boshqara olish, yaylovlarni qaroqchilardan muhofaza qilish uchun 50 dan ziyod harbiy qurolni ishlata

			bilish malakasini egallash majburiy bo'lgan. Ularga yana chavandozlik va o'ttiz ikki xil harbiy hunar o'rgatilgan.
22.	VII asrdan XVI asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikr taraqqiyoti	2	Er kishi turmushda faqat o'z jinsining jufti bo'lgan ayoli bilan taskin va rohat topishi mumkin. Yolg'iz holda o'z saodatini his qila olmaydi. Qur'oni Karimda "Sizlar eslatma olishlaringiz uchun Biz har bir narsani juft-juft qilib yaratdik" (Zoriyot, 49). Payg'ambariz hadislarining birida "Ey yigitlar sizlardan qay biringiz oila qurishga qurbi yetsalar, uylansin. Uylanish nomahramlarga ko'z tashlashdan, zinokorlikdan asraydi. Qurbi yetmagan kishi ro'za tutsin, toki unga to'siq bo'lsin, deyilgan" (Imom Buxoriy, Muslim Abu Dovud, Termiziy). Yana bir hadisda "Kim uylangan bo'lsa, dinining yarmini mukammal qilibdi, qolgan yarmida Allohga taqvo qilaversin" (Taboroniy, Boyhaqiy, Hakim rivoyati). Islomda – oilaning saranjom-sarishtaligi, kiyim-kechak va uylarning ozodaligi, taom tayyorlash borasidagi xizmatlari va eng muhimi to'g'ri tarbiya berilgan, ko'zlar quvonchi bo'lgan solih farzandni voyaga yetkazishlari, shunday yaxshiliklar sirasiga kiradi. Islom dini muhabbat, rahmat, mehr-shafqat kabi xislatlar oilaning tayanchi ekanligini aytadi. Hozirgi paytda ba'zi erkaklar arziyas narsa tufayli xotinini so'kishi, urishi va kurakda turmaydigan so'zlar bilan haqoratlash kabi ko'ngilsiz hollar uchrab turibdi. Alloh taolo insonni azizu mukarram qilib, unga boshqa maxluqotlarga bermagan aqlu idrok ne'matini berdi. Demak, inson urib-so'kib emas, balki chiroylik muomala va go'zal xulq bilan tarbiya qilinadi.

2.2 Auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarda talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari

Yosh avlodni kelgusi katta hayotga tayyorlash muammosi O'zbekiston dastlab mustaqilligini mustahkamlash konsepsiyasining ajralmas qismi, milliy maktab, milliy qadriyatlarni tiklashning muhim omilidir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Inson uchun milliy his-tuyg'ular tabiiy holdir, chunki u ota-onadan meros olingan, bolaning onaga, otaga dunyoga qarata aytgan so'zida o'z ifodasini topgan. O'z xalqiga uning an'analari, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamay turib, chinakam insonni o'z xalqini, Vatanini dunyo millatlari hamjamiyatida teng huquqli deb biluvchi, munosib himoya qiluvchi vatanparvarni tarbiyalab bo'lmaydi"¹, - degan edi.

Mustaqillik O'zbekistonning bugungi taraqqiyoti sharoitida fuqarolarning yangi avlodini shakllantirish masalasi kun tartibiga qo'yilmoqda. Bu masalani hal etish uchun o'zbek xalq pedagogikasining boy merosi, ilg'or tajribalarini o'rganish, amalda qo'llash muhim hisoblanadi.

Oilani rivojlantirish, mustahkamlashning oilaviy tarbiyaning bugungi kundagi muammolari o'smir qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda xalq pedagogikasi materiallari asosida ish ko'rishni, shu yo'nalishdagi masalaning pedagogik asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunda talaba qizlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ishlari alohida o'rin tutadi.

Mamlakatimizning ertangi taqdiri bugungi yoshlarimizning kelajakka ishonchi, puxta egallagan kasbi, bilimi va malakasiga bevosita bog'liq. Mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ishlab chiqildi. Dasturda belgilangan vazifalar ta'im tizimini tubdan isloh qilishni talab etdi va "Ta'lim to'risida"gi qonunning qabul qilinishiga olib keldi. Bugungi kunda tarixiy ahamiyatga bog'liq ikkala davlat hujjati mamlakatimizda umumiy va maxsus

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z yangilanishi va taraqqiyot yo'li. –T.: "Sharq", 1993 y

bilimga ega bo'lgan, zamonaviy dunqarashli, milliy va umuminsoniy qadriyatlari shakllangan yoshlarni tarbiyaashda asosiy zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi yosharimiz qalbida, ongida, tafakkurida miliy g'ururni, Vatan tuyg'usini, insonga, uning oilasi, xonadoni va mahallasini, kindik qoni to'kilgan aziz joy – Vatanni qalbidan sevishtni uyg'otish kerak. Bular o'zbek milliy mintalitetining mazmun va mohiyatini tashkil etadi. Zamonamiz yosh avlodi ongiga bu sifatlarga xos fazilatlarni singdirish psixologik va pedagogik jihatdan murakkab, ko'p qirrali va uzoq muddat talab qiluvchi jarayon bo'lib, uning yesimi zaminida eng muhim omil – iqtisodiyot yotadi. Davlatimiz rahbarining taktik va strategik yo'i ham shunga qaratilgan. Buni yosh avlod to'g'ri tushunmog'i lozim. Mamlakatimiz kelajak taqdiri ana shu yoshlarga boliq.

Dunyodagi har bir davlatda o'z milliy manfaatlarini mustahkamlash erki bor. Bu tabiiyki, sog'lom, do'stona, o'zaro manfaatli raqobatni paydo qiladi. Milliy taraqqiyot xalqning yaratuvchanlik salohiyatiga, farzandning tom ma'nodagi shaxs bo'lib yetishishida uning nasl-nasabi, oiladagi tarbiyasi, mahalla jamoasi katta o'rin tutadi. Qadim zamonlardan xalqimizda tarbiyaga ta'limdan kam ahamiyat berilmagan. “Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona” degan hikmat bor. “Olim bo'lma, ammo odam bo'l” degan hikmat ham o'zbeklarda keng tarqalgan. Bu maqollarning tagida katta falsafiy ma'no yotadi. Millat va odamiylik tushunchasi odob-axloq, pok ma'naviyat, diyonat, to'g'riso'zlik, halollik kabi insoniy fazilatlar bilan birgalikda, vatanparvarlik va elsevarlik kabi tushunchalarni ham ichiga oladi. O'zbek xalqida ana shunday rang-barang milliy mintalitet va o'zbekona tizim shakllangan. Bu tizim bolaning tug'ilishidan boshlab, to kamolga yetib, mustaqil hayotga qadam qo'yadigan davrgacha bo'lgan, yillarni qamrab oladi. Bugungi kunda shbu an'anaviy tizimning asosiy bo'g'inlarini oila, mahalla, maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari tashkil etadi.

Eng dastlabki bosqichda oilaning roli beqiyosdir. Ona oilaning or-nomusi, urug' davomchisi va yetakchisi sifatida qadrlangan. Agar oila halollik, mehnatsevarlik, rahmdillik, ezgulik yo'lida namuna bo'lsa, bola tarbiyasi ham

shunga qarab shakllanadi. Buning uchun bola tarbiyasiga ota-ona o'rtasida hech qachon to'siq bo'lmasligi kerak. Ota-onaga farzanddan zo'r quvonch yo'q. Buning uchun ota-ona vaqt ajrata bilishi, bola esa ota-ona mehrini amalda his etishi kerak", ¹ - deb yozadi. Akademik Ahmadali Asqarov.

Pedagogik olim O. Musurmonova "oila ichida-oila manfaatlari bosh mezon" sarlavhali maqolasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ota-onalar universitetlari ishini tiklash va shakllantirish zamirda ota-onalarni farzand tarbiyasiga tayyorlash, yoshlarga tibbiy, pedagogik-psixologik bilim berish ishiga e'tiborni kuchaytirish maqsadida oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga "Oilaviy hayotga tayyorlash kursi" ni kiritish maqsadga muvofiqdir ² deb, ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas'ul xodimi Gonzala Norboyev "Balog'at yoshidagi qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish" mavzusidagi maqolasida "Balog'at yoshidagi qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun eng avvalo ularning huquqiy bilimlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish konsepsiyasi tomonidan turli davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan "Ayol va huquq" seminarlari xotin qizlarning huquqiy bilimlarini oshirish yo'lida ijobiy natijalarni berish tabiiydir". Balog'at yoshiga yetgan qizlarni hozirgi zamon talabi asosida tarbiyalashda ularni maxsus dasturlar orqali o'qitish ko'zlangan natijani beradi. Bunda malakali mutaxassislarni jalb etgan holda ma'ruza, munozara, davra suhbatlari, tarbiyaviy soatlar kabi ish uslublaridan foydalanish mumkin.

Oila har bir inson uchun birinchi tarbiya maskani hisoblanadi. Birinchi tarbiya ham oila hisoblanadi. Shuning uchun farzanlarimizning kamoli ularni oilada qanday tarbiya olishlari, xotin qizlarning ma'naviy axloqiy pokligi, savodxonligi, tadbirkorligi, insonparvarligi va vatanparvarligiga bog'liq. Yuqoridagi sifatlarni

¹ Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. O'quv qo'llanma. -T.: "Universitet", 2007, 328-331 betlar.

² Musurmonova O. "Oila haqida-oila manfaatlari bosh mezon". Xalq ta'limi, 1988 yil. 2-son. 7-8 bet.

oilada shakllantirish har bir ota-onaning muhim burchidir. Bunda ayniqsa har bir oilada qizlarni bilimli qilib tarbiyalash masalasiga ahamiyat berish taqozo etiladi.

Qizlarni tarbiyalash jarayonida o'zbek halqining an'analari, madaniyat, urf-odatlar, sharq halqlariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlaridan foydalanish yoshlarning ma'naviy kamolotga yetishlari uchun zarur manbalardan hisoblanadi. Bundan tashqari, qizlar o'rtasida uchrab turadigan naxloqiy harakatlarning oldini olish, balog'at shiga yetmasdan oila qurish va holatlariga chek qo'yishda mahallalar, korxona tashkilotlar, o'quv maskanlarida turli uchrashuvlarni o'tkazib borish Vazirlar mahkamasi oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish konsepsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "Qizlarni turmushga tayyorlash" dasturini amalda tadbiq etishda muhim omil bo'ladi.

Qizlarni ilm olishga, kasb tanlashga bo'lgan ehtiyojining shakllanishi joylardagi oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish kotibiyatlari va jamoat tashkilotlari tomonidan boshqarib turilsa, jamiyatimizga kerakli bo'lgan mutaxassislarga ega bo'lish, shuningdek, qizlarda axloq, odob madaniyatini shakllantirish mumkin. Buning uchun joylarda so'rovnomalar vositasida qizlar ijtimoiy faolligini hozirgi holatini aniqlash, o'rganish va tahlil etish, ilmiy xulosalar chiqarish va shular asosida joylardagi muttasaddi tashkilotlarga tavsiyalar berish. Qizlar tarbiyasini yaxshilash hamda ularning ijtimoiy faolligini kuchaytrish ishlarini to'g'ri tashkil etishga imkon beradi. Bir so'z bilan aytganda, farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etuvchi barcha vositalarni bir nuqtaga to'plash, yosh avlodning aqliy va axloqiy shakllanishi uchun zarur bo'lgan ruhiy muloqot, sharoit yaratish taqozo etmoqda. Bu vazifalarni o'quv yurtlari oila va jamoatchilik tomonidan hal etilishi samarali natijalar beradi.¹

"Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda va oilada sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni qaror topdirish yuzasidan zarur shart-sharoitlar yaratildi. Bu borada "Onalar maktabi", "Tibbiy ishlar asosi", "Balog'at davri" kabi dasturlar bo'yicha olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovor. "Oila kodeksi"ga binoan nikoh

¹ Norboyev G. Balog'at yoshidagi qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish. /Xalq ta'limi, 1988 yil. 2-son. 8-11 betlar

qurishdan oldin yoshlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, yosh oilalar uchun dastlabki besh yil dispanser-nazoratini tashkil etish ishlari yo'lga qo'yilib, davlat tomonidan katta mablag' ajratildi. Har bir shahar va tumanda nikohni qayd etish bo'limlari qoshida yoshlarga oila, uning muqaddasligi, mas'uliyati, farzand tarbiyasi kabi o'ta muhim masalalar to'g'risida zarur ma'lumot va saboq beradigan "Oila dorilfununlari" tashkil etilgan bo'lib, ularda 20 mingdan ortiq turmush qurayotgan o'g'il-qiz nazoratdan o'tkazildi va homiylik tibbiy yordami ko'rsatildi. 5 milliyondan ziyod farzand ko'rish yoshidagi ayollar 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning qariyb 98 %i va har tomonlama tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, davolanishga muhiti bo'lganlar dispanser nazoratiga olindi va sog'lomlashtirish ishlari olib borilmoqda"¹, - ta'kidlaydi pedagog olim M. Mahmudova

Qiz bolalar o'z sirlarini onalari bilan o'rtoqlashib keladi. Chunki voyaga yetib borayotgan qiz bola kimgadir o'z sirini, o'z holatini aytgisi keladi. Shunday vaqtlarda ona bu masalaga jiddiyroq qarab, o'z fikr va munosabatlarni to'g'ri bayon eta bilsa, tushuntira olsa, farzand to'g'ri yo'lni topib keta oladi, - deydi o'qituvchi A. Egamberdiyev(Xalq ta'limi 2003 yil 5-son, 54 bet).

Darsdan tashqari vaqtlarda o'qituvchilar yoki chetdan taklif qilinadigan mutaxassislar o'quvchilar(talabalar) bilan turli-tuman ta'lim tarbiya ishlarini olib boradilar. Bunday ishlar auditoriyadan tashqari ishlar deb ataladi. Talabalarning deyarli hammasi auditoriyadan tashqari ishlarga jalb etiladi va undan talablarni har tomonlama rivojlantirishning muhim vositasi sifatida foydalaniladi.

Auditoriyadan tashqari ishlar o'zigaxos xususiyatlari bilan o'qish mashg'ulotlaridan farq qiladi. Bu ish ixtiyoriy ravishda tashkil qilinadi. Talabalar o'z qiziqish va layoqatlariga qarab, turli to'garaklarga o'z ixtiyorlari bilan yoziladilar, darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladigan ommaviy va individual ishlarga ham o'z istaklari bilan qatnashadilar.

¹ M. Mahmudova. Ta'lim jarayonida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash metodlari. Xalq ta'limi, 2003 yil. 5-son. 41-44 betlar....

Auditoriyadan tashqari ishlarning turlari va formalari xilma-xil hisoblanadi. Bunday ishlarning yana bir xususiyati shundaki, bu ishda o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlari asosiy o'rin tutadi. Mustaqil ishlarni asosan talabalarning o'zlari tashkil qiladilar. Pedagoglar esa talabalarning mustaqilligiga suyanan holda umumiy rahbarlik qiladi. Auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar dars jarayonida olib boriladigan o'quv tarbiyaviy ishlarni mustahkamlaydi.

Auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni olib borishda bir qator usullardan foydalanish mumkin. Jumladan:

A) Og'zaki ish usullari. Bunga siyosiy axborotlar, majlislar, ma'ruzalar, kitobxonlar, konferensiyalar, uchrashuvlar.

B) Amaliy ish usullari. Sayohatlar, sport musobaqalari, olimpiada va konkurslar, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatlarida olib boriladigan ishlar, shanbalik, yakshanbaliklar o'tkazish.

S) Ko'rgazmali ish usullari. Muzeylarga, badiiy ijod ko'rgazmalarga, mavzuli stentlar va boshqalar.

Auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq mavzudagi suhbatlar uyushtirilishi maqsadga muvofiq.

Balog'at yoshidagi yigit qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasida bugungi kunda nimalarga e'tibor berish kerak, bu borada qanday muammolar borligini aniqlash taklifi universitet "tibbiy tayyorlov va fuqarolik" kafedrasining o'qituvchisi ijodkor-akusher-genekolog G'aybullayeva Feruza Idillayevnaga murojaat qildik:

- Balog'at yoshi har bir yigit qizning hayotida muhim o'rin egallaydi. Sababi, bu davrda birgina noto'g'ri qo'yilgan qadam butun inson umrini, uning orzu-umidlarini chippakka chiqaradi. Shu bois, voyaga yetgan farzandlar bilan muntazam shug'ullanish avvalo ota-onaning, ustozlarning qolaversa biz shifokorlarning asosiy vazifamiz hisoblanadi. Men shifokor sifatida universitetimiz 2-3 talaba qizlariga tibbiy tayyorlov fanidan qator yillardan buyon saboq berib

kelaman. Oila ostonasida turgan qizlarimiz uchun balog'at yoshida ularda sodir bo'ladigan biologik, fiziologik o'zgarishlar va ularning nazariy asoslari to'g'risida tushuncha beraman. Mutaxassislar tomonidan balog'at yoshidagi qizlar uchun tayyorlangan roliklar (animasiyalar)ni namoyish etish orqali ularni oilaviy hayotga tayyorlashning tibbiy tomonlari to'g'risida tushunchalar beraman.

Aslida ham ilmiy, ham tabiiy tomondan olganda ham oila ostonasida turgan yigit-qizlarimiz birinchi navbatda jismoniy jihatdan tayyor bo'lishlari lozim. Chunki, jismoniy zaif yoki nuqsoni bo'lgan yigit-qizning kelajakda baxtli bo'lib ketishi hayotdan uzoqdagi gap. Oila qurayotgan yoshlar nafaqat jismoniy sog'lom balki aqli raso bo'lishi talab etladi.

Ikkinchidan, oila qurayotgan yigit-qizlar ruhiy jihatdan ham oila qurishga tayyor bo'lishlari lozim. Irodasi sust, hissiyotlarga me'yoridan ortiq beriluvchan, tafakkuri, xotirasi zaif yoshlar oila qurishganda bir qator muammolar keltirib chiqaradi. Masalan, hissiyotlarga ortiqcha berilib, o'ta rashqchi bo'lgan yigit-qizlarning turmushi oson kechmaydi.

Uchinchidan, ostonasida turgan yigit-qizlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan bugungi kun talablari doirasida tayyorlash dolzarb vazifalardan biri. Men bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qaror va ko'rsatmalarni bayon qilib o'tirmadim. Sababi, bu haqda tegishli me'yoriy xujjatlar, ko'rsatmalar yetarli. Faqatgina uni bekami-ko'st amalga oshirishda qolgan shu o'rinda talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq ba'zi takliflar-mulohazalarni aytmoqchiman:

- talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq targ'ibot-tashviqot ishlarinikuchaytirish;
- balog'at yoshidagi yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq ko'rsatma va tavsiyalarni markazdan uzoqda joylashgan hududlarga o'z vaqtida yetkazishga e'tiborni qaratish;
- yosh qizlarni erta turmushga bermaslik uchunota-ona, mahalla oqsoqollari, o'quv yurtlarida faoliyat ko'rsatayotgan mutasaddilarni mas'uliyatini oshirish;

- joylarda ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini muntazam oshirib borishni yo'lga qo'yish;

- balog'at yoshidagi farzandlarning taqdirini turli kishilargi ishonib, o'zlari xorijga ketgan ota-onalar bilan ish olib borishda mahalla va turli tashkilotlarning mas'uliyatini oshirish;

Oila qurayotgan yigit-qizlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishda qonunda belgilangan tartiblarga to'la rioya qilishni ta'minlashga erishsak, o'ylaymanki yoshlarimiz tomonidan qurilayotgan oilalar mustahkam bo'ladi. Oilalarning mustahkamligi davlat va jamiyatning mustahkamligiga zamin yaratadi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasida mahallalarda olib borilgan ishlarni o'rganish maqsadida Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumanidagi "G'ilon" mahallasining raisi Abdumalik Hamidovni fikr-mulohazalari:

- Mahallamizda 6096 nafar aholi istiqomat qiladi. Ular 1571 oilaga birlashgan. Mahallada umumiy aholining 60%ini balog'at yoshdagi yigit-qizlar tashkil qiladi. G'ilon qishlog'ida axborot texnologilari kasb-hunar kolleji faoliyat ko'rsatadi. Biz mahalla oqsoqollari vaqti-vaqti bilan kollejda bo'lib, yoshlar bilan suhbatlar uyushtirib turamiz. Jumladan, ularni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq masalalarga ham e'tiborni qaratamiz. Menimcha, bu masalalar ota-bobolarimizdan qolgan, davom etib kelayotgan halq an'analaridan oqilona foydalanish lozim. Chunki, bu an'analar hayot sinovlaridan o'tgan, o'zini oqlagan. Aniqrog'i, oila qurayotgan yigit-qizlarni yetti pushtini surishtirish, bir-birlarining oilalarini yetarli darajada o'rganish, yigit-qizning qo'lida biror-bir kasb-hunar borligini surishtirish, ularning kundalik yurish-turishini bilish, do'st-birodarlariga, ota-onasiga, xesh-aqrabolarga bo'lgan muomala madaniyatini o'rganish lozim ekanligiga e'tibor qaratiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, qishlog'imizda oila ajrashishlar deyarli yo'q. Yosh oilalar o'rtasida uchraydigan ba'zi nizolar mahalla oqsoqollarining ba'zi sa'y harakati bilan bartaraf etilmoqda.

Qurbonova Muhabbat- G'ilonlik uy bekasi-ikki o'g'il, ikki qizni onasiman. Bir qizim uy-joyli bo'lgan. Bitta kelin tushurganman. Qudalarimga rahmat.

Kelinlarimni yaxshi tarbiyalagan. Biror marta yuzimga qarab gap qaytargan emas. Ishini bilib qiladi. Bilmaganlarini o'rgataman, kelinimni o'z farzandimday ko'raman. Kamchiliklarini yotig'i bilan tushuntiraman. Ro'zg'orda sranjom-sarishta. Qo'ni-qo'shnilar mahalladoshlar ko'rib quvonadi. Uydagi gapni ko'chaga olib chiqmaydi. Tashqaridan har xil ig'vo, fisqu-fujus gaplarni olib kelavermaydi. Hayotdan noliydigan joyim yo'q. Yoshlarimizni ibratli oila qurishlari ko'proq oilada olgan tarbiyasiga bog'liq. Axir xalqimiz bejizga "Qush uyasida ko'rganini qiladi",-deyishmaydiku. Mening bilishimcha qaysi yigit yoki qiz hayotda og'irini ustidan yengilini ostidan yurishga harakat qilsa, mehnat qilmay yengil yo'llarni axtarsa hayotining mazmnui bo'lmaydi. Bunday salbiy holat bir kunlari kelib o'zining bo'y bastini ko'rsatadi. U vaqtida esa hyech kimga aql o'rgatadigan zamon emas. Hammaning aqli farosati o'ziga ko'plik qiladi. Ammo hayotda ota-ona, farzand, kelin, kuyov, quda-andalar bilan munosabatda hayotning yozilmagan qonunlari bor. Menimcha har birimiz ana shu qoidalarni, o'zaro izzat-hurmatni unutmashimiz lozim.

Qurbonov Rustam aka G'ilonlik oila boshlig'i.

Turmush o'rtog'i bilan 4 nafar qiz 2 nafar o'g'ilni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Nabiralar og'ushidamiz. Qizlarining ikki nafari kelin bo'lgan. Yaratganga behisob shukurki, hozirgacha biror marta ularni orqalaridan ortiqcha gap eshitmadim. O'g'ilmi-qizmi farzand ota-onaning quvonchi, belining quvvati,ko'zining nuri. Hyech bir ota-ona dilbandining baxtsiz bo'lishini istamaydi. Baxt ham o'z-o'zidan kelib qolmaydi. Menimcha aslida nasl toza bo'lishi kerak. Xalqimiz bejizga "Qo'rg'oshin oltin bo'lmaydi, oltin esa zanglamaydi,"- deb aytmagan. Qiz bolaning tarbiyasida onaning xizmati katta. Uning yurish-turishi sir-sinoatlaridan onasi ko'pincha xabardor. Qizlarimizdagi muloyimlik, xushmuomalalik, sharm-hayo, andishalalik, saramjon-sarishtalilikda onaning xizmati beqiyos. Otasi urgan qiz baxtsiz bo'larmish, deyishadi. Shuning uchun es- hushi joyida otalar qiz bolaga hech qachon qo'l ko'tarmaydi. O'g'il bolalar otalaridan mehnatsevarlik, mardlik, qatiyatlilik kabi fazilatlarni o'rganadi.

Shuning uchun o'g'illarimda yoshligidan kasb-hunar, mehnat ko'nikmalarini shakllantirib kelaaman. Natija chakki emas. O'zining aravasini o'zi tortadi. Bekorchi emas. Bo'sh vaqti yo'q. Ba'zi tengdoshlariga o'xshab ichkilikbozlikka berilmagan, bekorga daydib yurtmaydi. Uyim-joyim deydi. Farzandlardan ko'nglim to'q. Menimcha biz ota-onalar balog'at yoshidagi bolalarimiz bilan, qizlar bilan onalari, o'g'illari bilan otalari doimiy ravishda shug'ullanib turushimiz kerak. Negaki, bu yoshdagi o'g'il-qizlarimizga befarqlik yaxshilik olib kelmasligini hayotda guvoh bo'lib turibmiz.

Haqnazarova Norbibi: - G'ilonlik uy bekasi. 4 nafar qiz, 1 nafar o'g'ilning onasi.

- Bobo va momlari boy uyda tarbiyalangan bolalar boshqacha bo'lar ekan. Axir aytishadiku "Qarisi bor uyning parisi bor" deb. Qari bilganni pari bilmaydida. Farzandlarimni voyaga yetishida onamning xizmatlari katta. Qizlarim onamning o'gitlarini, allalarini eshitib voyaga yetdi. Onamdagi muloyimlik, bosiqlik, har bir ishni sidqidildan bajarish, bichish-tikish, osh-non qilish, taomlar tayyorlash kabi ro'zg'orbop ishlarni ko'proq onamdan o'rgangan. Kiyinish maslasida me'yor bor. Ochiq-sochiq yurmaydi. Aslida ham qiz bolaning baxti uning sharm-hayosida, uyat-andishasida ko'rinadi. Bugungi qiz-o'g'illarimiz nihoyatda baxtli. Yurt tinch, oilalar farovon. Faqat intilib, harakat qilib, yaxshilardan ibrat olib, to'g'ri yo'ldan yursalar baxt-iqbol ularga hamroh. Manmanlik, kibor, hasadgo'ylik, yengiltaklik bilan hyech kim obro' qozonmagan. Obro' misqollab yig'iladi, botmonlab to'kiladi. Ota-onaning duosini olganlar hayotda kam bo'lmagan.

Alisher Navoiy nomidagi SamDU pedagogika fakulteti xotin-qizlar kengashining raisi Yaxshigul Jumayeva bilan talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq muammolarni o'rganish maqsadida suhbatga tortdik:

- Pedagogika fakulteti universitetimizning kontingenti eng katta fakultetlaridan biri hisoblanadi. Aniqrog'i hozirgi kunda 831 nafar talaba to'rt yo'nalishda tahsil olayapti. Talabalarning 80-85 % ini qizlar tashkil etadi. Professor-o'qituvchilarning 35 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. Fakultetimizdagi

talabalarining 585 nafarini qizlar, ularning 194 nafari oilali, 110 nafari bolari ayollar.

Talaba-qizlar bilan muntazam ishlash, ularni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq tarbiyaviy tadbirlarni yo'lga qo'yishga harakat qilayapmiz. Talabalar turar joyida 2013 yil 5-dekabrda "Mustahkam oila – jamiyat tayanchi" mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi. 2013 yil 22 noyabrda talaba qizlar bilan "Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy va umuminsoniy fazilatlarining o'rni" mavzusida tadbir o'tkazildi. Ushbu tadbirda Samarqand shahar "Baxt uyi" mudirasi M.Muhammadqulova, viloyat "Sabr" markazining shifokor ruhshunosi N.Ma'murova, universitet xotin-qizlar qo'mitasining raisi M.Rabbimovalar ishtirok etishib, talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq jihatlar to'g'risida to'xtaldi. Talabalarni qiziqtirgan savollarga javob berdi. Shuningdek, psixologiya kafedrasini o'qituvchisi M.Tavboyeva bilan birgalikda 2014 yil 13 aprelda "Oila jamiyatning muhim bo'g'ini" mavzusida tadbir o'tkazildi. Pedagogika kafedrasini o'qituvchisi G.Pardayeva bilan hamkorlikda 2014 yil 23 yanvarda "Yosh oila a'zolarining vazifalari", "Qaynona ham ona" mavzusida davra suhbatlari o'tkazdik.

Xarakterli tomoni shundaki, o'tkazilgan barcha tadbirlarda shifokor mutaxassislar, olimlar, balog'at yoshidagi qizlarda bo'ladigan o'zgarishlar, har yili dispanser ko'rigidan o'tib turishning ahamiyati, erta nikoh qurishning salbiy jihatlari, homiladorlikning oldini olish bilan bog'liq muammolar haqida, yaqin qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikohning salbiy oqibatlari to'g'risida, shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish haqida, sportning salomatlikni mustahkamlashdagi ahamiyati to'g'risida talabalarni qiziqtirgan savollarga javob berishdi.

Talaba qizlarni oilaga tayyorlash maqsadida kelgusida fakultet qoshida talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlaydigan "Orasta qizlar" klubini tashkil etish maqsadga muvofiq, deb o'ylayman.

III-BOB. TALABA-YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHGA YO'NALTIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARINING NATIJALARI VA SAMARADORLIGI

3.1. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining metodikasi

Oila mustahkamligi asosan balog'at yoshdagi yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash nechog'lik tayyorgarlik ko'rishga bog'liq ekanligiga oldingi bob va bo'limlarda guvoh bo'ldik. Shuning uchun ham oila-nikoh munosabatlarini mustahkamlash, bu borada yo'l qo'yilayotgan kamchilik va nuqsonlarning oldini olish, oilalarda sog'lom muhitni shakllantirish. Asrlar sinovidan o'tgan tajribalardan oqilona foydalanish bugungi kunni asosiy talabiga aylangan.

Yoshlarni oilaviy hayotga, sog'lom oila qurishga tayyorlash, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tug'ish yoshidagi onalar salomatligini mustahkamlash, nogironlar, kamqonlik kasaliga duchor bo'lgan bolalar va ayollarga, mehribonlik uylari va internatlarda tarbiyalanayotgan bolalarga, aholini ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamlariga muruvvat yordam ko'rsatish, tug'ishga yordam beruvchi va bolalar bo'limlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog'lom avlodni tarbiyalash ishida halqaro hamkorlikni rivojlantirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish kabi masalalar har bir fuqaroning kundalik turmush tarziga aylantirilmog'i lozim. Buning uchun har bir fuqaro sog'lom avlodni tarbiyalash borasida yurtboshimiz tomonidan qabul qilingan Farmon va qarorlar, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qarorlar, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qaror, farmoish, Davlat dasturlari hamda parlament tomonidan registrasiya qilingan halqaro huquqiy hujjatlarning mazmun va mohiyatini amaliyotdagi ahamiyatini bilmog'i lozim.

Davlatimiz rahbarining ta'biriga ko'ra sog'lom avlod quyidagilarni o'zida ifodalaydi:

Birinchidan – millat genefondini saqlab qolish va sog'lomlashtirish, milliy mitalistni tiklash.

Ikkinchidan – buning uchun jismoniy va ma'naviy sog'lom avlodni yuzaga keltirish.

Uchinchidan – erkin va ozod, o'ktam va xurram avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish.

To'rtinchidan – sog'lom fikrli, milliy ongli va tafakkuri sog'lom, ulkan iqtidor va salohiyatga ega yoshlarni komil insonlar qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Mamlakatimizda ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalashning muvafaqqiyat bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligining asosiy sharti uning konsepsiyasini mukammal ishlab chiqilganligi xalqaro hamjamiyat tomonidan millat genefondini sog'lomlashtirishning I. Karimov moduli yaratildi deb e'tirof etilishi XX asrning buyuk xodisasi bo'ldi.

Ushbu konsepsiya yurtboshimiz belgilab bergan uch muhim manba, ikki shart va olti yo'nalishni mujassam etgan:

Uch muhim masala:

Birinchisi – sog'lom avlodni voyaga yetkazish asrlar davomida kelayotgan muhim va asosiy maqsaddir.

Ikkinchisi – sog'lom avlodni o'stirish – g'oyat keng ko'lamli masala bo'lib, uzoq muddatli vaqtni o'z ichiga oladi.

Uchinchisi – sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasida aniq va real amaliy ishlarni belgilab olib harakat qilishi shart:

Ikki muhim shart:

Birinchisi – har bir kishining, ota-onaning tafakkurini o'zgartirish.

Ikkinchisi – odamlarning farovonligini va butun jamiyatning moddiy asosini yaxshilash.

Olti muhim yo'nalish:

Birinchisi – voyaga yetib kelayotgan o'simr yigit – qizlarning tibbiy – gigiyenik madaniyatini shakllantirish;

Ikkinchisi – yoshlarni sog'lom oila qurishga tayyorlash.

Uchinchisi – o'smir qizlarni onalikka tibbiy – gigiyenik jihatdan tayyorlash;

To'rtinchisi – bir yoshgacha bo'lgan bolalarni sog'lom voyaga yetkazish;

Beshinchisi – bir yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni sog'lom voyaga yetkazish;

Oltinchisi – nogiron bolalar tug'ilishining sababini o'rganish va uning oldini olishchoralarini ko'rish;

Bunday strategig vazifalarni amalga oshirish uchun jamiyatimizda mavjud barcha institutlar o'zlarini qat'iy tadbirlarini ishlab chiqishni va aniq harakatlarni amalga oshirishni sharoit taqozo etadi.

Talaba – yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash yuzasidan dars va darsdan tashqari tadbirlarni kuzatdik. Tajriba – sinov ishlarini olib bordik. Tajriba – sinov ishlarimiz Samarqand davlat universiteti pedagogika fakulteti “Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish”, “Pedagogika va psixologiya”, “Maktabgacha ta'lim”, psixologig yo'nalishlari talabalari, fakultet professor – o'qituvchilari, mahalla oqsoqollari, ota – onalar, guruh murabbiylari bilan kuzatishlar, uchrashuvlar, suhbatlar o'tkazildi.

Tajriba – sinov ishlarida 300 dan ziyod talaba – yoshlar 50 nafardan ortiq professor – o'qituvchilar, guruh murabbiylari, 30 nafardan ortiq ota-onalar, mahalla oqsoqollari ishtirok etdi. Ularga quyidagi materiallar tarqatildi:

Talaba yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarligini o'rganish maqsadida BTU yo'nalishi 3-kurs talaba yigitlariga berilgan anketa savollar

1.Oila to'g'risida nimalarni bilasiz?(fikringizni qisqacha yozing) 2.O'zingizni oila qurishga tayyor deb hisoblaysizmi? 3.Sizningcha o'qishni bitirib oila qo'rish ma'qulmi yoki o'qish davrida (sababini ayting) 4.Oliygo'nda o'qitilayotgan qaysi fanlar ko'proq yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga xizmat qiladi? 5.Balog'at ostonasida turgan yigitlarni oilaviy hayotga

tayyorlash uchun nima ishlar qilish kerak deysiz? 6.Talaba yoshlarning oilaviy hayot bilan bog'liq qanday, ko'rsatuv, eshtirish va maqolalardan xabardorsiz.

Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorgarligini o'rganish maqsadida B.T.U. yunalishi 3-kurs talaba qizlarga berilgan anketa savollar.

1.Oila qurganmisiz? 2. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda kimlarni ko'proq mas'ul deb hisoblaysiz? 3. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorda ota- bobolardan qolgan qanday urf – odatlarni bilasiz? 4.Bugungi kunda oila qurayotgan qizlarni oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasi qanday holatda?. Qo'yi, o'rtacha, yuqori, (tagini chizing). 5. Oila mustahkamligining siri nimada?(fikringizni yozing).

Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni imkoniyatlarni o'rganish maqsadida B.T.U. 4-kurs talaba qizlariga berilgan anketa bu savollari.

1.Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash qaysi fanlar negizida ko'proq o'rganiladi? (fikringizni yozing) 2. Respublikamizda oila, oilaviy munosabatlar bilan bog'liq qanday qaror va qonunlar qabul qilingan. 3. Respublikamizda viloyatimizda oila, oilaviy tarbiya masallalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlar olib borayotgan olimlar va olimalarni bilasizmi? 4. Qaysi nashrlarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq muammolar ko'proq yoritilib boriladi? 5. Talaba –qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq qanday tadbirlarni ko'proq utkazish maqsadga muvofiq? (fikringizni yozing) 6. Qizlarimizning xamir qorish, ovqat tayyorlash uy ishlari saronjom-sarishta qilish bichish tikish ishlaridan xabardorlik darajasi qay holatda. (fikringizni yozing). 7.Oila ko'rayotgan qizlar qanday fazilatga ega bo'lishlari lozim?

Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning imkoniyatlarini o'rganish yuzasidan B.T.U. 4-kurs talaba yigitlarga berilgan anketa savollari.

1. Oila qurayotgan yigitlar qanday xislatlarga ega bo'lishi lozim. (fikringizni yozing). 2. O'zingizni oila qurishga tayyor deb hisoblaysizmi? 3. Oilada erkakning vazifasi nimalardan iborat bo'lishi lozim? 4.Siz oilaviy hayotga tayyorlanishda qaysi manbalarga ko'proq tayanasiz? 5. Oilangizni

kelajagini qanday tasavvur qilasiz? 6. Yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati va mahalaning o’rnini qanday baholaysiz?

Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni o’rganishni aniqlash

SO’ROVNOMASI (4-kurs psixologika yunalishi talabalari uchun)

1. Talaba yoshlarni oilaviy tayyorlashda psixologlarning vazifalari nimalardan iborat bo’lishi kerak?
2. Oila qurish ostonasida turgan yoshlarning ruhiy holatlari qanday bo’lishi lozim?
3. Sizningcha o’qishni bitirib oila qurgan ma’qulmi yoki o’qish davomidami?
4. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota- bobolarimizdan qolgan qanday udum va urf -odatlarni bilasiz?
5. G’arb va Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning o’ziga xos xo’susiyatlarni ko’sating?
6. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun qaysi darslik, o’quv qo’llanma uslubiy tavsiya va tegishli manbalarni o’qigansiz?
7. Respublikamizda qaysi psixolog olimlar oila muammolarini ko’proq o’rgangan?
8. Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kun talablari darajasidami?

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni o’rganishni aniqlash

SO’ROVNOMASI (ota-onalar uchun)

1. Balog’at yoshdagi farzandingizni oila qurishga tayyor deb o’ylaysizmi?
2. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-onaning vazifalari nimalardan iborat bo’lishi kerak?
3. Sizningcha farzandlaringizni o’qish davrida oilali bo’lgani maqulmi yoki o’qishdan keyinmi?
4. Oilada farzandlaringizga qanday kasb – hunarlarni o’rgatayapsiz?
5. Farzandingizni oilaviy hayotga tayyorlashda bilim va tajribalaringizni yetarli deb hisoblaysizmi?
6. Farzandlaringizni oilaviy hayotga tayyorlash to’g’risida bilim, ko’nikma va malakalarni qaysi manbalardan (gazeta, jurnal, televediniya, radio) ko’proq olasiz?
7. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda bugungi kunning vazifalari nimalardan iborat bo’lishi lozim. (fikringizni yozing)?

Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni o'rganishni aniqlash

SO'ROVNOMASI (mahalla raislariga)

1. Mahallangizning nomi: Siz rahbarlik qilayotgan mahallada yoshlar tarbiyasiga qanday e'tibor berilgan? 2. Mahallangizda bir oyda yoki bir yilda o'rtacha qancha eng oilalar qurayapti? 3. Mahalla faollari, oqsaqollari yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qanday ishlarni olib borishayapti? 4. Mahalla raisi sifatida oila kurish ostonasida turgan o'g'il qizlar bilan suhbatlashib turasizmi? 5. Mahallangizda ibratli hayot kechirayotgan oilalarning siri nimadan deb o'ylaysiz? 6. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda mahallaning vazifalari nimalardan ibrat bo'lishi kerak? 7. Mahallangizda yoshlarni tarbiyalash borasida huquqshinos, sosiolog, shifokor, pedagog–psixolog olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazib turiladimi?

Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni o'rganishni aniqlash

SO'ROVNOMASI (professor o'qtuvchilar uchun)

1. Ismingiz va familyangiz. Ish stajingiz, ilmiy darajangiz. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda o'qtuvchi va murabbiyning o'rni nimalardan iborat bo'lishi kerak? 2. Oilali talabalarning o'qishdagi davomoti jamoat ishlardagi faolligi qanday? 3. Siz dars mashg'ulotlarini o'tayotgan guruhlarda talaba yoshlarini oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasini qanday baholaysiz. 4. Talaba - yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun olib borilayotgangan ilmiy-tadqiqot ishlarga munosabatingiz? 5. Ilmiy-tadqiqot ishlaringizda oila, oila tarbiyasi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammolarni qay darajada yoritib bergansiz? 6. Talaba- yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi taklif va mulohizalaringiz?

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni o'rganish maqsadida guruh rahbarlariga berilgan anketa savollari.

1. Sinf rahbarlik qilayotgan guruhda qancha talaba o'qiydi, ularni necha nafari qiz bolalar necha nafari o'g'il bolalar? 2. Guruhdagi talabalarning necha nafari oila qurgan? 3. Guruhdagi talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha qanday

tadbirlarni amalga oshirayapsiz? 4. Oilali talablarning o'zlashtirish va davomoti jamoat ishlaridagi ishtiroki qanday holatda? 5. Tajribangizdan kelib chiqib, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi taklif va mulohizalaringiz?

Tajriba – sinov ishlarini o'tkazishda pedagogika faoliyatidagi o'quv jarayoni kuzatildi, professor – o'qituvchilar, guruh rahbarlari, boshlang'ich ta'lim metodikasi, pedagogika va psixologiya, maktabgacha ta'lim, psixologiya yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar bilan suhbatlar o'tkazildi. Mazkur yo'nalishlarning o'quv reja, o'quv dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklar o'rganildi, tahlil etildi. Mazkur yo'nalishdagi dars jarayonlari kuzatildi. Auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning metodik ta'minoti yaratildi. Tadqiqot ishi bo'yicha tarqatmali, ko'rgazmali qurollar tayyorlandi.

Qashqadaryo viloyati Shahrizabz tumani "G'ilon" mahallasi raisi, oqsoqollari, shu qishloqda istiqomat qilayotgan ko'plab ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazildi, ularning qizlarini oilaviy hayotga tayyorlashdagi tajribalari, bu to'g'rida fikr – mulohazalar o'rganildi.

Talaba – yoshlarni oilaviy hayotga tayyorgarligini aniqlash uchun 1, 2, 3, 4, 5– so'rovnomalarni tuzdik. 1 – so'rovnomada 6 ta, 2 – so'rovnomada 5 ta, 3 – so'rovnomada 7 ta, 4 – so'rovnomada 6 ta, 5 – so'rovnomada 8 ta savollar tuzildi va talaba – yoshlardan so'raldi.

1 – so'rovnomadagi boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan 3 – kurs talaba yigitlariga berilgan savollar ularning oila to'g'risidagi fikrlarini bilish, ularning oila qurishga tayyorligini o'rganish, qaysi fanlar talaba – yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga xizmat qilayotgani, balog'at ostonasida turgan yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun qanday ishlarni amalga oshirish zarurligi, talaba – yoshlarni oilaviy hayot bilan bog'liq qanday ko'rsatuv, eshittirish, matbuot materiallaridan xabardorlik darajasi maqsad qilib olindi.

Tadqiqot ishlaridan ma'lum bo'ldiki, balog'at ostonasida turgan yigitlar berilgan savollarga umumiy holda javob berishdi.

2 – so'rovnomada 3- kurs boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talaba qizlarga “oila qurganmisiz?”, “Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda kimlar ko'proq mas'ul deb hisoblaysiz?”, “Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota – bobolarimizdan qolgan qanday urf – odatlarni bilasiz?”, “Bugungi kunda oila qurayotgan qizlarni oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasi qanday holatda”, “Oila mustahkamligining siri nimada” kabi savollar bilan murojaat qilindi. “Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda kimlarni ko'proq mas'ul deb hisoblaysiz?” – degan savolga qizlarning aksariyat qismi “Onalar” deb javob berishdi. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasini “O'rtacha” deb javob bergan talaba qizlar ko'pchilikni tashkil etdi. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota – bobolardan qolgan urf odat va udumlarni talaba qizlar kamroq bilishlari ma'lum bo'ldi. Oila mustahkamligining sirini – talaba qizlar asosan tarbiyaga bog'liqligini to'g'ri tasdiqlashdi.

Boshlang'ich metodikasi yo'nalishi 4 – kurs talaba yigitlariga berilgan (4- ilova) “O'zingizni oila qurishga tayyor deb hisoblaysizmi?” – degan savolga guruhdagi yigitlarning aksariyat armiya safida xizmat qilib kelgani uchun, muayyan hayotiy tajribaga ega bo'lganligi uchun bo'lsa kerak “Tayyorman” deb javob berishgan.

Ushbu anketagi uchinchi savolga “Oilada erkakning vazifasi nimalardan iborat bo'lishi kerak?” – degan savolga talaba yigitlar “Oilani iqtisodiy jihatdan ta'minlash” deb javob bergan bo'lsa, 4 nafar talaba yigit bu savolga “Oilada erkak kishiga oilaning ustuni” deb qaradi, shu bois erkak oilada barcha “issiq – sovuqqa mas'ul” deb javob berishgan.

5 – ilovadagi 4 – kurs psixologiya yo'nalishi talabalarga berilgan “Sizningcha o'qishni bitirib oila qurgan ma'qulmi yoki o'qish davomidami” va “oila qurish ostonasida turgan yoshlarning ruhiy holatlari qanday bo'lishi lozim” va boshqa savollarga nisbatan ijobiy natijalar ko'proq olindi. Jumladan, “Respublikamizda qaysi psixolog olimlar oila muammolarini ko'proq o'rgangan?” degan savolga nazorat guruhlarida dastlabki o'tkazishda 48 nafar talabani 9 nafari ijobiy, 16

nafari noaniq, 23 nafar talaba “qoniqarsiz” javob bergan bo’lsa, tajriba – sinov guruhlarida ushbu o’tkazishda 28 nafar talaba ijobiy, 14 nafari noaniq, 6 nafari “qoniqarsiz” javob berdi. Talabalarning bergan javoblarini tahlil qilishda nazorat guruhidagi ijobiy javob bergan 9 nafar talaba respublikamizda oila muammolarini o’rganayotgan psixolog olimlar to’g’risida kitoblardan, ommaviy axborot vositalaridan va boshqa manbalardan o’rganganligi ma’lum bo’ldi.

3 – ilovadagi keltirilgan boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 4 – kurs talaba qizlariga berilgan “Oila qurayotgan qizlar qanday fazilatlarga ega bo’lishlari lozim?” degan savolga javoblar quyidagicha bo’ldi.

7-jadval

3 – so’rovnomaning “Oila qurayotgan qizlar qanday fazilatlarga ega bo’lishlari lozim?” savoliga berilgan javoblar tahlili

Javob- lar turi	1-cavol						2-savol					
	I o’tkazish		Jami	II o’tkazish		Jami	I o’tkazish		Jami	II o’tkazish		Jami
	203	302		203	302		203	302		203	302	
	N	TS		N	TS		N	TS		N	TS	
To’g’ri	39	71	110	44	74	118	41	73	114	45	77	122
No- aniq	54	51	105	51	47	98	55	52	107	57	54	111
Noto’g’ri	43	42	85	41	43	84	40	39	79	34	33	67
Jami	013 6	164	300	136	164	300	136	164	300	136	164	300

Mazkur jadvaldan ko’rinib turibdiki, oila qurayotgan qizlarga xos fazilatlar bilan shakllanish darajasi tajriba snov ishlari davomida muayyan darajada o’sdi.

Shuningdek, ota – onalar, mahalla oqsoqollari bilan o’tkazilgan uchrashuv, suhbat, savol javoblar ham olib borilgan oila qurish ostonasida turgan qizlarimizga xos fazilatlarni shakllantirishda ijobiy natijalarga erishildi.

3.2. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari va tahlili

Ma'lumki, har bir o'tkazilgan pedagogik tadqiqotda tajriba-sinov ishlarining maqsadi, vazifalari, predmeti aniqlab olinadi. Biz ham ushbu qoidaga amal qildik.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi: talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tajriba-sinov ishlarining predmeti: oliy o'quv yurtlarida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni, shakl va metodlari

Tajriba-sinov ishlari jarayoni bilan tanishib chiqamiz:

Birinchi – yo'naltiruvchi bosqich 2012-2014 yillari olib borildi.

Tashxis va bashorat qilish bosqichi (2012 sentyabr - dekabr). Ushbu bosqichda tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, predmeti, obyekti aniqlandi, tadqiqot rejasi tuzildi, tajriba-sinov maydonlari aniqlashga harakat qildik;

Ikkinchi bosqichda Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (2013 yanvar-may). Tadqiqot muammosining ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy asoslari o'rganildi, oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash yuzasidan olib borilgan tajribalar tahlil qilindi. Tadqiqot yuzasidan olib borilgan adabiyotlar tahlili bo'yicha kuzatishlar va suhbatlar natijalari asosida tadqiqot muammosining ilmiy farazi, metodologiyasi aniqlab olindi. Tajriba-sinov ishlari bilan bog'liq bo'lgan holatlar o'rganildi va uni o'tkazish metodlari ishlab chiqdik;

Uchinchi bosqichda Ta'limiy shakllantiruvchi bosqich (2013 iyun-dekabr). Tadqiqot maqsadi va vazifalariga oid muammolar bo'yicha SamDU pedagogika fakulteti talabalari bilan test, anketa so'rovlari, suhbatlar, kuzatishlar o'tkazdik.

To'rtinchi bosqich. Umumlashtiruvchi yakuniy bosqich (2014 yil yanvar-iyun). Bunda talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning nazariy, pedagogik, ilmiy-uslubiy sharoitlari ishlab chiqildi va asoslandi. Tadqiqot natijalari

amaliyotda sinab ko'rilishi natijasida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqdik.

O'tkazilgan so'rovnomalar va suhbatlar natijasida quyidagilar aniqlandi: Ushbu o'zlashtirish darajalari aniqlandi va uch darajaga ajratildi. Mazkur darajalarni "yuqori", "o'rta", "quyi" deb belgiladik.

Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning darajasi bo'yicha guruhlariga taqsimlanishi

jadval

Daraja	Nazorat guruhlari talabalarining o'zlashtirish tarkibi		Tajriba-sinov guruhlari talabalarining o'zlashtirish tarkibi	
	Talabalar soni	% hisobida	Talabalar soni	% hisobida
Yuqori	60	20,0	100	33,3
O'rta	80	26,7	170	56,7
Quyi	160	53,3	30	10,0

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni va mohiyati, qo'llanilish ahamiyati o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra aniqlandi. Bunda talaba-yoshlarning so'rovnomalarga bildirgan yozma va og'zaki javoblari darajalashtirildi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlaridan keyin talabalarni oilaviy hayotga tayrlashning qanday darajada ekanligi $X^2 = \sum_{k=1}^m \frac{(V_k - P_k)^2}{P_k}$ matematik-statistik formula yordamida aniqlandi. Ushbu natijalar tadqiqot xulosalariga ko'ra ilmiy jihatdan asoslandi.

O'quvchilarning javoblarini darajalashtirish mezoni qo'yidagicha ifodalandi.

1-guruhga (yuqori daraja) mansub talabalar. Bu talabalar oilaviy hayot to'g'risida tushunchalari keng shakllanganligi bilan tavsiflandi. Bu yo'nalishdagi talablarda oilaviy hayotga tayyorgarlik holati yuqori darajaga xosdir.

2-guruhga (o'rta daraja) kirgan talabalarda oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasi yetarli bo'lmagan, to'laqonli shakllanmagan, lekin oilaviy hayotga tayyorlanish istagi borligi bilan belgilandi.

3-guruhga (quyi daraja) shunday talabalar kiritildiki, oilaviy hayotga tayyor bo'lmagan, shakllanmagan, ammo oila qurish ehtiyoji mavjudligi bilan ifodalandi.

Tajriba-sinov ishlari bo'yicha pedagogika fakultetida, Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi "G'ilon" mahallasi oqsoqollari va aholi bilan (2012-2014 yillar) o'tkazilgan tadqiqot natijalari yuqoridagi keltirilgan darajalashtirish mezonini bo'yicha guruhlariga ajratildi. Talabalar soni umumlashtirilib tajribagacha va tajribadan keyingi o'zlashtirish ko'rsatkichlari aniqlandi. Tajribagacha 160 (30 %) nafar quyi darajadagi, 60 (30 %) nafar o'rta darajadagi va 80 (40 %) nafar yuqori darajadagi o'quvchi ekanligi ma'lum bo'ldi. Tajriba-sinov ishlaridan keyin 33 (10,4%) nafar talabaning o'zlashtirishi quyi darajada, 80 (40 %) nafar talabaning o'zlashtirishi o'rta darajada, 100 (50 %) nafar talabaning o'zlashtirishi esa yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Mazkur natijalar bo'yicha talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning o'sish darajasi yuqorida keltirilgan matematik formulada tekshirildi.

Demak, bunda R_k - 30 % (quyi,) 30 % (o'rta) va 40 % (yuqori)

V_k – esa 10 % (quyi), 40 % (o'rta) va 50 % (yuqori) darajadagi qiymatlarga ega bo'ldi.

Buni χ^2 (xi - kvadrat) qo'yidagicha ifodalanadi.

$$\chi^2 = \sum_{k=1}^m \frac{(V_k - P_k)^2}{P_k}$$

Bu topilgan qiymatlar hisoblanganda quyidagi natijani berdi:

$\chi^2 = \frac{(20-60)^2}{60} + \frac{(80-60)^2}{80} + \frac{(100-80)^2}{80} \approx 38.2$ Demak, o'rtacha kvadratratik chetlanish $X \approx 6,2$ ga teng bo'ladi. Bunda $T_{\text{kuzatish}} > T_{\text{kritik}}$ ekanligi qo'llanilgan tadqiqot g'oyalari talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashni shakllantirish samarali natija berishidan dalolat beradi.

Tadqiqot dispersiyasini ushbu formula bilan

$$\bar{S} = \sqrt{\bar{S}^2} = \sqrt{\frac{\sum_{k=1}^n (X_k - \bar{X})^2}{n}} \quad \text{hisoblaymiz.}$$

Baholashga ko'ra: σ^2 – dispersiyasi

$$\sigma^2 = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2$$

$$\chi^2 = \sum_{k=1}^m \frac{(V_k - P_k)^2}{P_k}$$

M	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
X _k	8	10	6	6	7	3	6	12	8	4

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^N X_k \quad \bar{X} = \frac{1}{10} \sum_{k=1}^{10} X_k = \frac{70}{10} = 7$$

Demak, o'rta arifmetigi 7 ekanligini ko'rish mumkin.

Agarda $T_{\text{kuzatish}} > T_{\text{kritik}}$ bo'lsa, guruhlarda qo'llanilgan tadqiqot g'oyalari asosida, tarbiyalash afzalliklari haqida gapirish mumkin.

Bundan $X \approx 2,5$ ekanligi $T_{\text{kuz}} > T_{\text{kri}}$ dan

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash asosida milliy tarbiyani amalga oshirish jarayonini o'rganish va uni ma'lum bir tizimga keltirish imkonini beradi degan fikrdamiz.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Oila – qadim zamonlardan buyon hayot davomiyligini ta'minlab kelayotgan manba. Oilasiz jamiyatni tasavvur etib bo'lmaydi. Oilaning mustahkamligi, barqarorligi esa balog'at ostonasida turgan yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq. Olib borilgan tadqiqot ishlarimiz davomida talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq muammolarning yechimini o'rganib, tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda xalq pedagogikasi yutuqlaridan oqilona foydalanish;
2. Oilada sog'lom muhitni shakllantirish;
3. Ota-onaning mas'uliyatini oshirish;
4. Talaba-yoshlarning jismoniy sog'lomligi va ma'naviy-axloqiy sifatlariga ko'proq e'tiborni qaratish;
5. Ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan "Oila etikasi va psixologiyasi", "Oila pedagogikasi", "Oila psixologiyasi", "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammolari" kabi fanlarning imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanish;
6. Mazkur fanlarni tajribali, salohiyatli, yuqori saviyali professor-o'qituvchilarga berish;
7. Ushbu fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyasi yutuqlariga tayanish;
8. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarning saviyasini oshirish va undan imkoniyatlar darajasida foydalanish;
9. Oila qurayotgan yoshlarni tabiiy ko'rikdan o'tishlariga mas'uliyatni yanada oshirish va bu boradagi yo'l qo'yilayotgan ba'zi kamchiliklarga barham berish;
10. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oila, o'quv yurtlari, mahallaning hamkorligini kuchaytirish.

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq jarayonlarni, manbalarni o'rganib, tegishli xulosa chiqardik va quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun davr talablari asosida yozilgan o'quv qo'llanma va uslubiy tavsiyalarga ehtiyoj sezilyapti;

2. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda xorijdagi ilg'or tajribalarni o'rganish va tahlil etish asosida mintaqamizga to'g'ri keladigan jihatlardan foydalanish;

3. Oliy o'quv yurtlari va talabalar turar joylarida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq to'garaklarni tashkil etish va ularning faoliyatini jonlantirish, talabalarni ko'proq jalb etish;

4. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq ommaviy axborot vositalarida chop etilayotgan va namoyish qilinayotgan materiallardan oqilona foydalanish;

5. Talaba-yoshlar bilan huquqshunos, shifokor, oilashunos, pedagog-psixologlar bilan uchrashuvlarni muntazam yo'lga qo'yish;

6. Talabalar turar joyida "Oila qo'rg'oni", "Nikoh muqaddas", "Oila qurishga tayyormisiz", "Alla aytishni bilasizmi" kabi ko'rik tanlovlar o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: O'zbekiston, 1997. - 64 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T 2. - T.: O'zbekiston, 1996. -380 b.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7.-T.: O'zbekiston, 1999. - 410 b.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. -T.: O'zbekiston, 1996. -349 b.
5. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. -T.: O'zbekiston, 2001. - 432 b.
6. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. -T.: O'zbekiston, 1998. 64-b.
7. Karimov I.A. Ma'naviy ildizi teran millat /Ma'rifat g., 1999. 23 iyun.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T. 8. - T.: O'zbekiston, 2001.-528
9. Karimov I.A. Yuksak a'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. - 173b.
10. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997. - 326 b.
11. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda //Prezident I.Karimovning Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining un turtinchi sessiyasidagi ma'ruzasi (1999 yil 14 aprel). - T.: O'zbekiston, 1999. - 48 b.
12. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - T.: O'zbekiston, 1996. -364 b.
13. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yuli.- T.: O'zbekiston, 1992. -119 b.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Davlatga qarashli bulmagan maktabgacha bolalar muassasalari tarmog ini tashkil etish va rivojlantirish chora tadbirlari tug risida"gi Qarori (1999 yil, 24 iyun) /Ma'rifat g., 1999, 30 iyun.
15. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: O'zbekiston, 2000. - 80 b.

2. Asosiy adabiyotlar:

16. Abduvaxobov U. Shaxs (Komil inson xaqida).-T.: Vatan, 1996. - 20 b.
17. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: “Universitet”, 2007, 339 betlar.
18. Azarov Yu. Bolalarni sevish san'ati. -T.: O'qituvchi, 1992, - 197 b.
19. Alimardonov O., Nazarov B. Xayot va turmush odobi. - T.: O'qituvchi, 1996. - 128 b.
20. Amir Temur ugitlari //Tuplam. Tuzuvchilar: B.Ahmedov, A.Aminov.- T.: Navruz, 1992. - 64 b.
21. Inamova M.O. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Diss., ...ped,fan,doktori, -T., 1998 -316 b.
22. Yoshlar ma'naviyati va sog'lom turmush tarzi. Pedagogika fanlari doktori O.Musurmonova umumiy tahriri ostida. “Oydin hayot”, Respublika sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish markazi. –T.: 2012, 274 b.
23. Mustahkam oila ma'naviyati. A.Abdusamedov va boshq. T.: “Sano-standart”, 2012, 160 b.
24. Hayot kitobi: yosh oilalar uchun ensiklopedik qo'llanma. –T.: “Sharq”, 2011, - 272 b.
25. Shomansurova R. Kelinnoma. –T.: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti, 2013, 464 b.
26. Bekalik saodati: oila saboqlari. /To'plab nashrga tayyorlovchi Husniya Pardayeva. –Yurist-Media markazi, 2012, 104 b.
27. Safarov O. Oila ma'naviyati. –T.: Ma'naviyat, 2009, 248 b.
28. Sultonova G. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning samarali yo'llari. //Uzluksiz ta'lim. Ilmiy-uslubiy jurnal. –T.: №3, 50-52 betlar.
29. Obidova N. Oila – muqaddas dargoh. //Xalq ta'limi. –T.: №2, 45-46 betlar.
30. Mahmudova M. Yoshlarda oilaviy hayotga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Yoshlar ma'naviyati va sog'lom turmush tarzi. Ilmiy to'plam. 102-108 betlar.

31. Mahmudova M. Xalq pedagogikasi va oila tarbiyasi. (Monografiya) – Samarqand: SamDChTI, 2003, 174 b.
32. Axloq - odobga oid hadis namunalari.-T.: Fan, 1990. - 172 b.
27. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Kurbonov, X.Saidov, R.Ahliddinov. - T.: Sharq nashriyot -matbaa konserni, 1998. -184 b.
28. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti //Guliston j. 2001. 3-son.3-b.
29. Vamberi X., Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi. Kitobdan parchalar /Tupl.S.Axmad. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. 96 b.
38. Javliyev T. An'analar -xayot sabogei. -T.: O'zbekiston, 1992-88 b.
39. Ziyomuxammedov B., Ziyomuxammedova S., Kodirova S. Ma'naviyat asoslari. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000. -151 b.
40. Ibrohimov A.,Sultonov X.Jurayev N. Vatan tuyg usi. - T.: O'zbekiston, 1996. - 362 b.
41. Imomnazarov M., Eshmuhammedova S. Milliy ma'naviyatimiz asoslari /Tahrir hay'ati X.Karomatov va boshq. -T.: Toshkent Islom universiteti, 2001. - 432 b.
42. Inomova M.O. Oilada bolalarning ma'naviy - axloqiy tarbiyasi. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1999.-38 - bet.
43. Kaykovus. Qobusnoma. - T.: Istiqlol, 1994. – 85-86 b.
44. Karimova V.M. Yoshlarda o'zbek oilasi haqidagi ijtimoiy tasavvurlar: Psix.fan.dok... ... diss. –T.: 1995, - 327
45. Maxkamov U. Axloq - odob saboqlari. - T.: Fan, 1994. -134 b.
46. Maxkamov U.I. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari.- T.: Fan, 1996. -200 b.
47. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- T.: O'zbekiston, 2000.- 80 b.
48. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. - T.: O'qituvchi, 1994. -112 b.
49. Musurmonova O., Abduraimova K. Xayot va turmush odobi dasturi. - T.: RTM, 1993.
50. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.: O'qituvchi, 1996. - 192 b.
51. Musurmonova O. Oila ma'naviyati - milliy g'urur //O'quv qo'l - T.: O'qituvchi, 1999. - 200 b.
52. Musurmonova O va b. Ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish – jamiyat taraqqiyotining asosi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 188 b

53. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish.- T.: Fan, 1993. - 118 b.
54. Sodiqova Tursunoy. Sabab va natija. Esselar. –T.: Davr PRESS NMU, 2014, 108 bet.
55. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. -T.: O'qituvchi, 1992. -42 b.
56. Sattor Maxmud. O'zbek udumlari. - T.: Fan, 1993. - 222 b.
57. Turayeva O, S. Ergashyev Oilada bola tarbiyasi.- T.: O'qituvchi, 1974. - 108 b.
58. Uzoqov X., Yuzyiyev E., Tojiyev A. Oila etikasi va psixologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1992. -128 b.
59. Usanov A. Oila pedagogikasi. O'quv qo'llanma. - Samarqand.: SamDU nashri, 2005.-116 b.
60. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. - T.: Ma'naviyat, 1998. - 112 b.
61. Yusupov E. Yoshlarning ma'naviy kamoloti.-T.: O'zbekiston, 1995. -32 b.
62. O'zbek pedagogikasi antologiyasi //Tuzuvchi-mualliflar. K.Xoshimov, Ochilov S. - T.: O'qituvchi, 1995. - 460 b.
63. Quronov M. Maktab ma'muriyati va milliy tarbiya.-T.: Fan, 1991. - 192 b.
64. Quronov M. Mafkuralar tortishuvi tuxtagani yuq //Jamiyat va boshqaruv j., 1998. 3 - son. - 24 - 26 - b.
65. Quronov M., Raximov J. Oila -milliy tarbiya uchog i //Xalq ta'limi j., 1998, 3-son. - 4 b.
66. Falsafa qomusiy lug'at. Q.Nazarov tah.ost. – T.: Sharq. 2004, 496 b
67. Mustaqillik: Izoshli ilmiy- ommabop lug'at /Mualliflar: M. Abdullayev, M. Abdullayeva, G. Abdurazzoqova va boshq.: A.Jalolov va Khonazarov umum. tazf. ostida.-T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 2000. - 320 b.
68. Muxsiyeva A. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari. 13.00.06-tarbiya nazariyasi va metodikasi. Ped,fan.nom.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent, 2005, 176 b.

3. Internet materiallari:

69. www.ziyonet.uz
70. www.samdu.uz
71. www.edu.uz
72. www.pedagog.uz

**Talaba yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarligini o'rganish maqsadida
BTU yo'nalishi 3-kurs talaba yigitlariga berilgan anketa savollar**

Hurmatli talaba ushbu anketa ilmiy-tadqiqot maqsadida o'tkazilmoqda. Shu bois unga xolis, javob berishingizni suraymiz. Javoblar uchun oldindan rahmat.

1.Oila to'g'risida nimalarni bilasiz?(fikringizni qisqacha yozing)

2.O'zingizni oila qurishga tayyor deb hisoblaysizmi?

3.Sizningcha o'qishni bitirib oila qo'rish ma'qulmi yoki o'qish davrida (sababini ayting).

4.Oliygoxda o'qitilayotgan qaysi fanlar ko'proq yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga xizmat qiladi?.

5.Balog'at ostonasida turgan yigitlarni oilaviy hayyotga tayyorlash uchun nima ishlar qilish kerak deysiz?

6.Talaba yoshlarning oilaviy hayot bilan bog'liq qanday, ko'rsatuv, eshttirish va maqolalardan xabardorsiz.

**Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorgarligini o'rganish maqsadida
B.T.U. yunalishi 3-kurs talaba qizlarga berilgan anketa savollar.
Hurmatli talaba ushbu anketa ilmiy-tadqiqot maqsadida
o'tkazilmoqda. Shu bois unga xolis, mmustaqil holda javob berishizni
suraymiz. Javoblar uchun oldindan raxmat.**

1.Oila qurganmisiz?

2. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda kimlarni ko'proq mas'ul deb hisoblaysiz?

3. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorda ota- bobolardan qolgan qanday urf – odatlarni bilasiz?

4.Bugungi kunda oila qurayotgan qizlarni oilaviy hayyotga tayyorgarlik darajasi qanday holatda?. Qo'yi, o'rtacha, yuqori, (tagini chizing).

5. Oila mustahkamligining siri nimada?(fikringizni yozing).

Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni imkoniyatlarni o'rganish maqsadida B.T.U. 4-kurs talaba qizlariga berilgan anketa bu savollari.

Hurmatli talaba, ushbu anketa savollariga ilmiy –tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti. Savollarga xolis, bir-biringizdan ko'chirmasdan javob berishingizni so'raymiz.

Javoblar uchun raxmat.

1.Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash qaysi fanlar negizida ko'proq o'rganiladi? (fikringizni yozing).

2. Respublikamizda oila, oilaviy munosabatlar bilan bog'liq qanday qaror va qonunlar qabul qilingan.

3. Respublikamizda viloyatimizda oila, oilaviy tarbiya masallalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlar olib borayotgan olimlar va olimalarni bilasizmi?

4. Qaysi nashrlarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq muammolar ko'proq yoritilib boriladi?

5. Talaba –qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq qanday tadbirlarni ko'proq utkazish maqsadga muvofiq? (fikringizni yozing)

6. Qizlarimizning xamir qorish, ovqat tayyorlash uy ishlari saronjom-sarishta qilish bichish tikish ishlaridan xabardorlik darajasi qay holatda. (fikringizni yozing).

7.Oila ko'rayotgan qizlar qanday fazilatga ega bo'lishlari lozim?

Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning imkoniyatlarini o'rganish yuzasidan B.T.U. 4-kurs talaba yigitlarga berilgan anketa savollari?

Hurmatli talaba, ushbu anketa savollari ilmiy_tadqiqot maqsadida o'tkazishmoqda. Savollarga mustaqil holda javob berishingizni so'raymiz. Javoblar uchun oldindan raxmat.

1. Oila qurayotgan yigitlar qanday xislatlarga ega bo'lishi lozim. (fikringizni yozing).

2. O'zingizni oila qurishga tayyor deb hisoblaysizmi?

3. Oilada erkakning vazifasi nimalardan iborat bo'lishi lozim?

4.Siz oilaviy hayotga tayyorlanishda qaysi manbalarga ko'proq tayanaisiz?

5. Oilangizni kelajagini qanday tasavvur qilasiz?

6. Yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati va mahalaning o'rnini qanday baholaysiz?

**Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni o'rganishni aniqlash
SO'ROVNOMASI**

(4-kurs psixologika yunalishi talabalari uchun)

Aziz talabalar ushbu surovnomasi ilmiy-tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti.

**Shu bois, savollarga mustaqil, bir-biringizdan ko'chirmasdan javob
berishingizni so'raymiz.**

Javoblar uchun oldindan raxmat.

1. Talaba yoshlarni oilaviy tayyorlashda psixologlarning vazifalari nimalardan iborat bo'lishi kerak?

2. Oila qurish ostonasida turgan yoshlarning ruhiy holatlari qanday bo'lishi lozim?

3. Sizningcha o'qishni bitirib oila qurgan ma'qulmi yoki o'qish davomidami?

4. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota- bobolarimizdan qolgan qanday udum va urf -odatlarini bilasiz?

5. G'arb va Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning o'ziga xos xo'susiyatlarni ko'sating?

6. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun qaysi darslik, o'quv qo'llanma uslubiy tavsiya va tegishli manbalarni o'qigansiz?

7. Respublikamizda qaysi psixolog olimlar oila muammolarini ko'proq o'rgangan?

8. Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kun talablari darajasidami?

**Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni o'rganishni aniqlash
SO'ROVNOMASI
(ota-onalar uchun)**

1. Balog'at yoshdagi farzandingizni oila qurishga tayyor deb o'ylaysizmi?

2. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-onaning vazifalari nimalardan iborat bo'lishi kerak?

3. Sizningcha farzandlaringizni o'qish davrida oilali bo'lgani maqulmi yoki o'qishdan keyinmi?

4. Oilada farzandlaringizga qanday kasb –hunarlarni o'rgatayapsiz?

5. Farzandingizni oilaviy hayotga tayyorlashda bilim va tajribalaringizni yetarli deb hisoblaysizmi?

6. Farzandlaringizni oilaviy hayotga tayyorlash to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni qaysi manbalardan (gazeta, jurnal, televediniya, radio) ko'proq olasiz?

7. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda bugungi kunning vazifalari nimalardan iborat bo'lishi lozim. (fikringizni yozing)?

**Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni o'rganishni aniqlash
SO'ROVNOMASI
(mahalla raislariga)**

1. Mahallangizning nomi: Siz rahbarlik qilayotgan mahallada yoshlar tarbiyasiga qanday e'tibor berilgan?

2. Mahallangizda bir oyda yoki bir yilda o'rtacha qancha eng oilalar qo'rayapti?

3. Mahalla faollari, oqsaqollari yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qanday ishlarni olib borishayapti?

4. Mahalla raisi sifatida oila kurish ostonasida turgan o'g'il qizlar bilan suhbatlashib turasizmi?

5. Mahallangizda ibratli hayot kechirayotgan oilalarning siri nimadan deb o'ylaysi?

6. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda mahallaning vazifalari nimalardan ibrat bo'lishi kerak?

7. Mahallangizda yoshlarni tarbiyalash borasida huquqshinos, sosiolog, shifokor, pedagog–psixolog olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazib turiladimi?

Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni o'rganishni aniqlash
SO'ROVNOMASI
(professor o'qtuvchilar uchun)

Hurmatli ustoz. Mazkur so'rovnoma ilmiy-tadqiqot yuzasidan o'tkazilayapti shu bois, savollarga sodda va lo'nda javob berishingizni so'raymiz.

Javoblar uchun oldindan raxmat.

1. Ismingiz va familyangiz. Ish stajingiz, ilmiy darajangiz. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda o'qtuvchi va murabbiyning o'rnini nimalardan iborat bo'lishi kerak?

2. Oilali talabalarning o'qishdagi davomoti jamoat ishlardagi faolligi qanday?

3. Siz dars mashg'ulotlarini o'tayotgan guruhlarda talaba yoshlarini oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasini qanday baholaysiz.

4. Talaba - yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun olib borilayotgangan ilmiy-tadqiqot ishlarga munosabatingiz?

5. Ilmiy-tadqiqot ishlaringizda oila, oila tarbiyasi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammolarini qay darajada yoritib bergansiz?

6. Talaba- yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi taklif va mulohizalaringiz?

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni o'rganish maqsadida guruh rahbarlariga berilgan anketa savollari.

Hurmatli murabbiy, ushbu anketa ilmiy-tadqiqot maqsadida o'tkazilyapti

Shuning uchun savollarga xolis javob berishingizni so'raymiz.

Javoblar uchun oldindan rahmat.

1.Sinf rahbarlik qilayotgan guruhda qancha talaba o'qiydi , ularni necha nafari qiz bolalar necha nafari o'g'il bolalar?

2.Guruhdagi talabalarning necha nafari oila qurgan?

3.Guruhdagi talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha qanday tadbirlarni amalga oshirayapsiz?

4. Oilali talablarning o'zlashtirish va davomoti jamoat ishlaridagi ishtiroki qanday holatda?

5.Tajribangizdan kelib chiqib, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi taklif va mulohizalaringiz?

Javoblar uchun rahmat.